



**TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**



**TILSHUNOSLIKNING ZAMONAVIY
YO‘NALISHLARI: ASSOTSIATIV
TILSHUNOSLIK**

moduli uchun

O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

Malaka oshirish kursi yo‘nalishi:

**O‘zbek tili filologiyasi:
o‘zbek tilshunosligi**



Toshkent – 2023

**Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining
2020-yil 7-dekabrdagi 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va
o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan**

Tuzuvchi: **N.Sayidrahimova**– filologiya fanlari
nomzodi, dotsent

Taqrizchi: **B.Mengliyev** – filologiya fanlari
doktori, professor
S. Normamatov – filologiya fanlari
doktori. ToshDO‘TAU
E. Ushenmez – filologiya fanlari
doktori, Turkiya Istanbul universiteti
professori

**Ushbu o‘quv-uslubiy majmua Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining
2022-yil 29-dekabrdagi 5-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.**

MUNDARIJA

T/r	Bo‘limlar	Sahifa
I.	ISHCHI O‘QUV DASTUR	4
II.	MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI	14
III.	NAZARIY MASHG‘ULOT MAZMUNI	27
IV.	AMALIY MASHG‘ULOT MAZMUNI	78
V.	KEYSLAR BANKI	106
VI.	GLOSSARIY	108
VII.	ADABIYOTLAR RO‘YXATI	114
VIII.	TAQRIZ	119

I. ISHCHI O‘QUV DASTUR



KIRISH

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli, 2019-yil 27-avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli, 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-sonli farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli, 2020-yil 29-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi atamalar komissiyasining faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 40-sonli qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek, amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejalari asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni kredit modul tizimi va o‘quv jarayonini tashkil etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan ingliz tili, mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo‘yicha so‘nggi yutuqlar, pedagogning kreativ

kompetentligini rivojlantirish, ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, “blended learning”, “flipped classroom” texnologiyalarini amaliyotga keng qo‘llash bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarning mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

“Assotsiativ tilshunoslik” deb nomlangan mazkur fan doirasida zamonaviy o‘zbek tilshunosligida endigina o‘rganilayotgan antropotsentrik tilshunoslikning lingvokulturologiya, psixolingvistika, pragmalolingvistika yo‘nalishlari, ularning o‘rganish obyekti, tayanch tushunchalari, dolzarb muammolari haqida ma’lumot beriladi. Bu fan pedagoglarni zamonaviy tilshunoslik qo‘lga kiritayotgan eng so‘nggi yutuqlar bilan tanishtiradi, ularni til hodisalarini inson omili bilan bog‘lab o‘rganishga o‘rgatadi.

Modulning maqsadi va vazifalari

Assotsiativ tilshunoslik, uning tahlil metodlari til materiallarini uning egasidan alohida o‘rganishga yo‘l qo‘ymaydi. Tilga antropotsentrik yondashuv asosida muayyan til egalarining voqelikni idrok etishi, kognitiv bilimi, voqelikni til orqali aks ettirishi, lisoniy qobiliyati, lisoniy xotirasi imkoniyatlari, leksik birliklar zaxirasi, matn yaratishi mexanizmi, matnni idrok etishi qobiliyati, til birliklarining milliy-madaniylik belgisi kabi masalalar ochib beriladi. O‘quv fanining asosiy maqsadi tinglovchilarga ayni shu masalalar bo‘yicha nazariy ma’lumot berish va ularni til hodisalarini antropotsentrik paradigma tamoyillari asosida tadqiq etishga o‘rgatishdan iborat.

O‘quv fanida quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko‘zda tutiladi:

- tinglovchilarga assotsiativ tilshunoslikning yuzaga kelishi, o‘rganish obyekti, asosiy tushunchalari, yo‘nalishlari haqida ma’lumot berish;
- til va assotsiativ tafakkur, tilda voqelikning verbal ifodasi masalalarini tahlil

qilish;

- o‘zbek tilida verbal assotsiatsiyalarning hosil bo‘lish omillarini aniqlash va tahlil qilish;
- o‘zbek tilidagi assotsiativ birliklarga xos xususiyatlarni tahlil qilish asosida ilmiy-nazariy xulosalar chiqarish;
- tinglovchilarni til birliklarining assotsiativ xususiyatlarini tahlil qilishga o‘rgatish;
- tinglovchilarni o‘zbek assotsiativ tilshunosligining o‘rganish obyekti, tayanch tushunchalari, dolzarb muammolari bilan tanishtirish;
- tinglovchilarga assotsiativ tajriba metodi, uning mohiyati, ilmiy-amaliy ahamiyati, assotsiativ lug‘at turlari haqida ma’lumot berish.

Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va layoqatlariga qo‘yiladigan talablar

“**Assotsiativ tilshunoslik**” kursini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida tinglovchi:

- Assotsiativ tilshunoslikning asosiy tushunchalarini, tahlil metodlarini;
- tilga assotsiativ yondashuvning mohiyati va uning shakllanish tarixi; tilshunoslikda assotsiativ tilshunoslikning shakllanish bosqichlari va mohiyati; assotsiativ tilshunoslikning asosiy tushunchalari, tahlil metodlari; assotsiativ tilshunoslikda olib borilayotgan tadqiqotlar; assotsiativ tilshunoslikning dolzarb muammolarini **bilishi** kerak;
- Badiiy matnning assotsiativ maydoni, assotsiativ maydonning yadro va chegara qismlari munosabatini to‘g‘ri qo‘llay olish;
- matnni assotsiativ aspektda tahlil qilish; matnning assotsiativ xususiyatlarini belgilash; til birliklarining assotsiativ xususiyatlarini aniqlash; ilmiy xulosani muayyan tizim asosida bayon etish; ilmiy tahlilda zamonaviy metodologiyani qo‘llay bilish **ko‘nikmalariga** ega bo‘lishi kerak;
- Metaforalarda va milliy-madaniy me‘yorlarni ishlab chiqish va ommalashtirish;

- badiiy matn yaratishda assotsiativ maydon, yadro va chegara qismlarning o‘zaro munosabatlariga xos ravishda foydalana olish; assotsiativ tadqiq tamoyillarini ilmiy bilish; matnni assotsiativ aspektda tahlil qila bilish; assotsiatsiyalarning lingvistik xususiyatlarini aniqlay olish; assotsiativ maydon birliklarini tahlil qila olish; assotsiativ tajribalar o‘tkazish, natijalarni statistik va lingvistik tahlil qilish **malakalarini** egallashi zarur.
- Modulni to‘liq o‘zlashtirish natijasida tinglovchi professor-o‘qituvchilar metaforalarda va milliy-madaniy me‘yorlarni ishlab chiqish va ommalashtirish **kompetentligiga** ega bo‘ladilar.

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

“Assotsiativ tilshunoslik” kursi ma’ruza, amaliy mashg‘ulotlar hamda mustaqil ta’lim shaklida olib boriladi.

Kursni o‘qitish jarayonida ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida taqdimot va elektron-didaktik texnologiyalardan; o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, ekspress-so‘rovlar, test so‘rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash va boshqa interfaol ta’lim usullarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Modulning o‘quv rejasidagi boshqa fanlar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

“Assotsiativ tilshunoslik” moduli o‘quv rejasidagi pedagogik kvalimetriya, kompyuter lingvistikasi, filologik tadqiqotlarda tizimli tahlil, o‘zbek tilshunosligining nazariy-metodologik muammolari, til tizimida antropotsentrik tadqiq etish tamoyillari, semasiologiyaning dolzarb muammolari bilan bog‘liqlikda va uzviylikda o‘qitiladi.

Modulning andragogik ta’limdagi o‘rni

“Assotsiativ tilshunoslik” modulini o‘zlashtirish orqali tinglovchilar zamonaviy

tilshunoslikning eng so‘nggi yutuqlari va yangi yo‘nalishlaridan xabardor bo‘ladilar, jahon tilshunosligida til hodisalarini yangicha yondashuv asosida tadqiq etish borasida olib borilayotgan ilg‘or tajribalar bilan tanishadilar, til birliklarini inson omili bilan bog‘liq holda tahlil qilishga doir kasbiy layoqatga ega bo‘ladilar.

Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Auditoriya o‘quv yuklamasi		
		Jami	jumladan	
			Nazariy	Amaliy
1.	Tilni o‘rganishning tarixiy-qiyosiy, sistem-struktur va antropotsentrik yo‘nalishlari, ularning mohiyati va farqli jihatlari.	2	2	
2.	Tilga assotsiativ yondashuvning shakllanish tarixi. Assotsiativ tilshunoslikning nazariy masalalari. Assotsiativ munosabat tushunchasi.	2	2	
3.	Tilda verbal assotsiatsiyalarning hosil bo‘lishi, lingvistik mohiyati. Verbal assotsiatsiyalar tasnifi. O‘zbek tilida verbal assotsiatsiyalar tasnifi.	2	2	
4.	Assotsiativ maydon nazariyasi. Badiiy matnning assotsiativ maydoni, assotsiativ maydonning yadro va chegara qismlari munosabati.	2		2
5.	Assotsiativ tajriba metodi, uni o‘tkazish metodikasi. Assotsiativ tajriba natijalarining	2		2

	lingvistik va statistic tahlili.			
6.	Leksik assotsiatsiyalarning lingvistik omillar asosida hosil bo‘lishiga doir tasniflari: leksimalar semantikasi, leksik-grammatik belgisi, dialectal, uslubiy, pragmatik belgisiga asoslangan assotsiatsiya.	2		2
7.	Leksemalarning yasalihi. Talaffuzda ham ohangligi, milliy-madaniy, ijtimoiy hamda gender xususiyatlariga asoslangan assotsiatsiya.	2		2
	Jami:	14	6	8

NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. Tilni o‘rganishning tarixiy-qiyosiy, sistem-struktur va antropotsentrik yo‘nalishlari, ularning mohiyati va farqli jihatlari. Tilshunoslikda til tizimini antropotsentrik nuqtayi nazardan o‘rganish, asosan, lingvistik semantika, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, pragmatik tilshunoslik, lingvokulturologiyaga oid tadqiqotlarda namoyon bo‘lgan. Antropotsentrik paradigma asosida yaratilgan ishlarda til tizimi shaxs omili bilan bog‘liqlikda tadqiq etilgan. O‘zbek tilshunoslarining lingvistik semantika, pragmatika, kognitiv tilshunoslikka oid tadqiqotlar o‘zida antropotsentrik yo‘nalish tendensiyalarini namoyon qilsa-da, bu boradagi tadqiqotlar hali etarli emas. Hozirgi vaqtda antropotsentrik paradigmaning yetakchi yo‘nalishlari sifatida quyidagilar e’tirof etiladi: kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, pragmatik tilshunoslik, lingvokulturologiya, lingvopersonologiya, pragmalolingvistika, sotsiololingvistika, neyrololingvistika, etnolingvistika.

2-mavzu. Tilga assotsiativ yondashuvning shakllanish tarixi. Assotsiativ tilshunoslikning nazariy masalalari. Assotsiativ munosabat tushunchasi. Assotsiativ tilshunoslikning nazariy masalalari. Assotsiativ munosabat tushunchasi. Assotsiatsiyalarning stimul so‘z va assotsiat o‘rtasidagi munosabat

(sintagmatik yoki paradigmatic munosabat) asosida tasniflanishi. Assotsiatsiyalarning stimul soʻz va assotsiat oʻrtasidagi aloqa mundariyasi yoki assotsiatlar asosidagi tasnifi. Verbal assotsiatsiyalarning J.Miller, N.V.Krushevskiy, A.R.Luriya, M.M.Pokrovskiy, A.P.Klimenko, A.A.Martinovich, A.A.Leontev tomonidan tavsiya etilgan tasnifi. Stimul soʻz va assotsiat oʻrtasidagi munosabat turi asosidagi anʼanaviy tasnif: paradigmatic, sintagmatik, tematik, derivatsion, fonetik assotsiatsiyalar, ularning mohiyati.

Leksik assotsiatsiyalarning lingvistik omillar asosida hosil boʻlishiga koʻra tasnifi: leksemalar semantikasi, leksik-grammatik belgisi, dialektal, uslubiy, pragmatik belgisiga asoslangan assotsiatsiya. Leksemalarning yasalishi, talaffuzda ham ohangligi, milliy-madaniy, ijtimoiy hamda gender xususiyatlariga asoslangan assotsiatsiya.

Leksik assotsiatsiyalarning ekstralingvistik omillar asosida hosil boʻlishiga koʻra tasnifi: makon va zamondagi aloqadorlikka asoslangan assotsiatsiya; predmet va uning belgisi, tovush va uning egasi munosabatiga asoslangan assotsiatsiya; insonning voqelikka munosabati, istak-xohishiga asoslangan assotsiatsiya; faoliyat va uning obyekti, faoliyat egasi va uning mahsuloti aloqadorligiga asoslangan assotsiatsiya; oʻxshashlikka asoslangan assotsiatsiya; egalik, tegishlilik, mansublik belgisiga asoslangan assotsiatsiya; sabab-natija munosabatiga asoslangan assotsiatsiya; hayotiy zaruriyat belgisiga asoslangan assotsiatsiya.

3-mavzu. Tilda verbal assotsiatsiyalarning hosil boʻlishi, lingvistik mohiyati. Verbal assotsiatsiyalar tasnifi. Oʻzbek tilida verbal assotsiatsiyalar tasnifi. Verbal assotsiatsiyalar tasnifi. Oʻzbek tilida verbal assotsiatsiyalar tasnifi. Badiiy matnning assotsiativ maydoni masalasiga doir nazariy qarashlarni tahlil qilish. Verbal assotsiatsiyalarning matn hosil qilishdagi oʻrnini aniqlash. Badiiy matnning assotsiativ maydoni: yadro va chegara qismlar munosabatini belgilash, assotsiativ munosabat, matnning tayanch birliklari, matnning assotsiativ maydoni, maydon yadrosi, maydonning chegara qismini aniqlash. Assotsiativ tilshunoslikda assotsiativ maydon tushunchasi. Assotsiativ maydon terminining

ilmiy muomalaga kiritilishi. Assotsiativ maydon tushunchasining funksional-semantik maydon (mazmuniy maydon) tushunchasidan farqi. Assotsiativ maydonning inson ongida aks-etgan voqelik va uning hamrohlari obrazining verbal ifodasi, u haqdagi tasavvuri, bilimlarini namoyish etuvchi tilning assotsiativ bog'langan birliklari yigindisi ekanligi. Assotsiativ maydonning lingvistik va ekstralingvistik ma'lumotlar bazasi hisoblanishi.

Assotsiativ maydonga o'zaro semantik bog'liq verbal assotsiatsiyalar bilan birga, semantik jihatdan bog'lanmagan, til egalarining ruhiyati, dunyoqarashi, qiziqishlari, olam haqidagi bilimlari bilan bog'liq holda xotirasida tiklangan birliklarning ham birlashuvi.

Assotsiativ maydonda yadro va chegara qismlar munosabati. Assotsiativ maydonning yadro qismidan qo'llanish chastotasi yuqori bo'lgan assotsiatlarning o'rin olishi. Assotsiativ maydon chegarasida assotsiatlarning qo'llanish chastotasining kamayishiga qarab joylashuvi. Chegaradan o'rin olgan assotsiatlarning stimul so'z bilan mantiqiy-semantik aloqasining kuchsizlanib borishi.

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mashg'ulot. Assotsiativ maydon nazariyasi. Badiiy matnning assotsiativ maydoni, assotsiativ maydonning yadro va chegara qismlari munosabati. Badiiy matnning assotsiativ maydoni, assotsiativ maydonning yadro va chegara qismlari munosabati. Assotsiativ maydon ko'lami va tarkibining turlichaligi. Assotsiativ maydon ko'lamiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar. Assotsiativ maydon birliklarining individual va jamoaviy xarakter kasb etishi. Individual assotsiatlarning shakllanishiga til egalarining kasbi, jamiyat hayotidagi mavqei, jinsi, yoshi, hayotiy tajribasi kabilarning ta'sir ko'rsatishi. Jamoaviy xarakterdagi assotsiatlarning ko'pchilik tomonidan voqelikning bir xil idrok etilishi asosidaho'silbo'lishi.

Assotsiativ maydon tushunchasini tavsiflash. Funksional-semantik maydon tushunchasiga tavsif berish.

Assotsiativ maydonning tarkibiy qismlari: yadro va chegara qism haqida ma'lumot berish.

Atlas stimul so'zi assotsiativ maydonida individual va jamoaviy xarakterdagi assotsiatlarni aniqlash.

2-mashg'ulot. Assotsiativ tajriba metodi, uni o'tkazish metodikasi. Assotsiativ tajriba natijalarining lingvistik va statistik tahlili. Assotsiativ tajriba natijalarining lingvistik va statistik tahlili. Assotsiativ tajriba metodining amaliy ahamiyatini yoritish.

Assotsiativ tajriba o'tkazish metodikasini yoritish.

Assotsiativ tajriba natijalarini lingvistik va statistik tahlil qilish.

Atala, beshik to'y stimul so'zlari assotsiativ maydoni birliklarini lingvistik tahlil qilish.

Assotsiativ tajriba metodi, erkin assotsiativ tajriba, bog'li assotsiativ tajriba, yo'naltirilgan assotsiativ tajriba, stimul so'z, respondentlar, informantlar, sinaluvchilar tushunchalarining mohiyatini ochib berish.

3 -mashg'ulot. Leksik assotsiatsiyalarning lingvistik omillar asosida hosil bo'lishiga doir tasniflari: leksimalar semantikasi, leksik-grammatik belgisi, dialektal, uslubiy, pragmatik belgisiga asoslangan assotsiatsiya. Leksemalar semantikasi, leksik-grammatik belgisi, dialektal, uslubiy, pragmatik belgisiga asoslangan assotsiatsiya. Leksik assotsiatsiyalarning lingvistik omillar asosida hosil bo'lishiga doir tasniflarni aytish;

Leksemalar semantikasi;

Leksik-grammatik belgisi;

Dialektal, Uslubiy pragmatik belgisiga asoslangan assotsiatsiyalarga misollar keltirish

4-mashg'ulot. Leksemalarning yasalishi. Talaffuzda ham ohangligi, milliy-madaniy, ijtimoiy hamda gender xususiyatlariga asoslangan assotsiatsiya. Leksemalarning yasalishiga ta'sir qiluvchi omillarni sanang

Talaffuzda va ohangda aks etuvchi milliy-madaniy, ijtimoiygender xususiyatlariga asoslangan assotsiatsiya haqida ma'lumot bering va misollar

keltiring

O'QITISH SHAKLLARI

Ushbu modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- masofadan o'qitish;
- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ta'lim texnologiyalarini anglab olish, nazariy bilimlarni amaliyotga qo'llash);
- suhbatlar orqali tinglovchida muayyan muammoga munosabat bildirish qobiliyatini shakllantirish, undaadabiy ta'limga doir masalani eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish xususiyatini qaror topdirish;
- tinglovchilarni bahs-munozaralar paytida muammolar yechimi bo'yicha dalil va asosli argumentlar taqdim qilishga, o'z fikrini asoslashga o'rgatish.

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI



“SWOT-tahlil” metodi.

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S (strength)	- kuchli tomonlari
W (weakness)	- zaif, kuchsiz tomonlari
O (opportunity)	- imkoniyatlari
T (threat)	- to'siqlar

Namuna: Mumtoz matnlar bo'yicha struktural tahlil imkoniyatlarini jadvalga tushiring.

S	Mumtoz matnlar bo'yicha struktural tahlilning kuchli tomonlari.	Maksimal aniqlik bilan har tomonlama xolis xulosa chiqarishi.
W	Mumtoz matnlar bo'yicha struktural tahlilning kuchsiz tomonlari.	Badiiy matndagi tuyg'ular tahlilini to'la amalga oshirib bo'lmaydi.
O	Mumtoz matnlar bo'yicha struktural tahlil (ichki) imkoniyatlari.	Shakl va mundarijaning har bir komponentlarini jiddiy mikrotahlildan o'tkaziladi.
T	To'siqlar (tashqi).	Struktural poetika bo'yicha tinglovchilarning nazariy bilimlari yetishmasligi.

“Xulosalash” (Rezyume, Veer) metodi

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko‘p tarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘quvchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va ko‘chma mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

Metodni amalga oshirish tartibi:



trener-o‘qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratadi;



trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo‘lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallari



har bir guruh o‘ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o‘z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo‘yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;



navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o‘z taqdimotlarini o‘tkazadilar. Shundan so‘ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlar bilan to‘ldiriladi va mavzu

Badiiy tahlil tizimlari					
Germenevtik tahlil (talqin)		Struktural (tarkibiy) tahlil		Lisoniy tahlil	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchilig i
Xulosa:					

“Keys-studi” metodi

“**Keys-stadi**” - inglizcha so‘z bo‘lib, (“case” – aniq vaziyat, hodisa, “stadi” – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921-yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta‘minoti bilan tanishtirish	✓ yakka tartibdagi audiovizual harakat; ✓ keys bilan tanishish (matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili;

	✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ni belgilash	✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik ierarxiasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining yechimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil yechim yo'llarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

Keys. Kichikroq badiiy (she'riy) matnni tahlil qilish uchun ko'rsatkich ishlab chiqiladi, mazkur metodning ijobiy va salbiy tomonlari qiyoslanadi va xulosa chiqariladi.

Keysni bajarish bosqichlari va topshiriqlari:

- Keysdagi muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang (individual va kichik guruhda).
- Mobil ilovani ishga tushirish uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligini belgilang (juftliklardagi ish).

“FSMU” metodi

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi;
- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiiy tartibda taqdimot qilinadi.

F	- fikringizni bayon eting
S	- fikringizni bayoniga sabab ko‘rsating
M	- ko‘rsatgan sababingizni isbotlab misol keltiring
U	- fikringizni umumlashtiring

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

Namuna:

Fikr: “Struktural tahlil asosida mavjud matnni mantiqan qismlarga ajratish va uni yig‘ish yotadi”.

Topshiriq: Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

“Assesment” metodi

Metodning maqsadi: Mazkur metod ta’lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi va amaliy ko‘nikmalarini tekshirishga yo‘naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta’lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo‘nalishlar (test, amaliy ko‘nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo‘yicha tashxis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi: “Assesment” lardan ma’ruza mashg‘ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o‘rganishda, yangi ma’lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg‘ulotlarda esa mavzu yoki ma’lumotlarni o‘zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o‘z-o‘zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o‘qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o‘quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo‘shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

Namuna:

Har bir katakdagi to‘g‘ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.



“Struktura” deganda nimani tushunasiz?

- A. Yunoncha so‘z bo‘lib, tarkib ma‘nosini anglatadi.
- B. Inglizcha so‘z bo‘lib, tahlil ma‘nosini anglatadi.
- C. Yunoncha so‘z bo‘lib, talqin degan ma‘noni anglatadi.
- D. Lotincha so‘z bo‘lib, badiiy asar matnini anglatadi



“Struktural tahlil” qanday tahlil turi?

- A. “Struktural tahlil” badiiy tahlil turi.
- B. “Struktural tahlil” ilmiy tahlil turi.
- C. “Struktural tahlil” tanqidiy tahlil turi.
- D. “Struktural tahlil” badiiy asarni tarkilash orqali tahlil qilishdir.



“Struktural metod”ning lug‘aviy ma‘nosini bilasizmi?

- A. “Struktura – tarkib”, “metod - fan yo‘nalishi” kabi lug‘aviy ma‘noni anglatadi.
- B. “Struktura - tarkib”, “metod – ijod turi” kabi lug‘aviy ma‘noni anglatadi”
- C. “Struktura – tahlil”, “metod - fan yo‘nalishi” kabi lug‘aviy ma‘noni anglatadi.
- D. “Struktura - talqin”, “metod – ilmiy izlanish” kabi lug‘aviy ma‘no beradi.



Badiiy matn ilmiy matndan qaysi jihatlari bilan farqlanadi?

- A. Badiiy matn obraz yaratish orqali shakllantiriladi, ilmiy matnda tushuncha va atamalar asosida fikr yuritiladi.
- B. Badiiy matn roman va hikoyalar matni, ilmiy matn esa dissertatsiyadir.
- C. Badiiy matn ijodiy tasavvur orqali yaratiladi, ilmiy matn ilmiy tafakkur asosiga quriladi.
- D. Badiiy matn vazn va qofiyaga asoslanadi, ilmimatnda vazn va qofiya bo‘lmaydi.

“Tushunchalar tahlili” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod talabalar yoki qatnashchilarni mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashxis qilish maqsadida qo‘llaniladi. Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- o‘quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- o‘quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma‘no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma‘lumot beradilar;

- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o'qituvchi berilgan tushunchalarning to'g'ri va to'liq izohini o'qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan to'g'ri javoblar bilan o'zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o'z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Namuna:

“Moduldagi tayanch tushunchalar tahlili”

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma'noni anglatadi?	Qo'shimcha ma'lumot
Badiiy matn	Nobadiiy matndan hissiy-impressiv va nutqning bo'yoqdorligi va obrazli tafakkur bilan farq qiladi	
Struktura	Tarkib. Badiiy matn tarkibi (qurilishi), uning qismlarga ajratib tahlil qilish	
Badiiy timsol (obraz)	Aniq va shu bilan birga umumlashtirish xarakteriga ega bo'lgan badiiy manzara yoki siymo yaratish	
Adabiy tur	Matnni ifoda xususiyatiga ko'ra farqlash	
Adabiy janr	O'z ifoda shakliga, vazn birliklariga va qofiyalanish tizimiga ega bo'lgan mustaqil shakliy ifodalanish	
Ritm, Ritmika	Bir maromda takrorlanib turuvchi nutqiy harakat va uni o'rganuvchi soha	
Uslub	Muallif ijodining yoki badiiy matnning bektakror o'ziga xosligi	

Izoh: Ikkinchi ustunchaga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo'shimcha ma'lumot glossariyda keltirilgan.

“Venn diagrammasi” metodi

Metodning maqsadi: Bu metod grafik tasvir orqali o'qitishni tashkil etish shakli bo'lib, u ikkita o'zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur


metod turli tushunchalar, asoslar, tasavvurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko‘rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladi va ularga ko‘rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o‘ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;
- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to‘rt kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiriladi va har bir juftlik o‘z tahlili bilan guruh a‘zolarini tanishtiradilar;
- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko‘rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

Namuna:

Ifoda shakllari bo‘yicha (she‘riy va nasriy nutq).



“Blits-o‘yin” metodi

Metodning maqsadi: tinglovchilarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maksadida qo‘llash samarali natijalarni beradi.

Metodni amalga oshirish bosqichlari:

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan

topshiriq, ya'ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o'rganish talab etiladi. Shundan so'ng, ishtirokchilarga to'g'ri javoblar tarqatmadagi "yakka baho" kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.

2. Navbatdagi bosqichda trener-o'qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiradi va guruh a'zolarini o'z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta'sir o'tkazib, o'z fikrlariga ishonirish, kelishgan holda bir to'xtamga kelib, javoblarini "guruh bahosi" bo'limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.

3. Barcha kichik guruhlar o'z ishlarini tugatgach, to'g'ri harakatlar ketma-ketligi trener-o'qituvchi tomonidan o'qib eshittiriladi, va o'quvchilardan bu javoblarni "to'g'ri javob" bo'limiga yozish so'raladi.

4. "To'g'ri javob" bo'limida berilgan raqamlardan "yakka baho" bo'limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bo'lsa "0", mos kelsa "1" ball qo'yish so'raladi. Shundan so'ng "yakka xato" bo'limidagi farqlar yuqoridan pastga qarab qo'shib chiqilib, umumiy yig'indi hisoblanadi.

5. Xuddi shu tartibda "to'g'ri javob" va "guruh bahosi" o'rtasidagi farq chiqariladi va ballar "guruh xatosi" bo'limiga yozib, yuqoridan pastga qarab qo'shiladi va umumiy yig'indi keltirib chiqariladi.


6. Trener-o'qituvchi yakka va guruh xatolarini to'plangan umumiy yig'indi bo'yicha alohida-alohida sharhlab beradi.

7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo'yicha o'zlashtirish darajalari aniqlanadi.

Struktural tahlil ketma-ketligini aniqlash. O'zingizni tekshirib ko'ring!


Harakatlar mazmuni	Yakka baho	Yakka xato	To'g'ri javob	Guruh bahosi	Guruh xatosi
Matnning tashqi strukturasi					
Matnning ichki qurilishi					
Matnni o'z yozuvida					

o‘qish tajribasi					
Matnni o‘z tilida o‘qib tushunish (lug‘at va izoh)					
Matn qismlarining dastlabki talqini					
Qismlarga ajratilib tahlil qilingan matnning mantiqiy butunligi					



Grafik organayzer talabalar tomonidan o‘zlashtirilgan o‘zaro yaqin nazariy bilim, ma’lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Undan muayyan bo‘lim yoki boblar bo‘yich yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.

Uni qo‘llash bosqichlari quyidagilardan iborat:



III. NAZARIY MASHG‘ULOT MAZMUNI



1-MAVZU:

**TILNI O‘RGANISHNING TARIXIY-QIYOSIY, SISTEM-STRUKTUR VA
ANTROPOTSENTRIK YO‘NALISHLARI, ULARNING MOHIYATI VA
FARQLI JIHATLARI.**

REJA:

1. *Jahonning mashhur psixolingvistlari*
2. *Assotsiativ fikrlash*
3. *O‘zbek tilidagi leksik birliklarning assotsiativ bog‘lanishi*
4. *O‘zbek tilida leksik birliklarning assotsiativ bog‘lanishi*

Tayanch tushunchalar: *lingvistik omil, stimul, pragmatik omil, sinaluvchi “shaxsi”, retsiyent, lisoniy birliklar.*

Jahonning mashhur psixolingvistlari Tilshunoslikda til birliklarining assotsiativ munosabati, verbal assotsiatsiyalarning hosil bo‘lishi, assotsiativ birliklarning lingvistik xususiyatlari, tasnifi, assotsiativ tajriba metodi, assotsiativ lug‘atlarning yaratilishi masalasi bo‘yicha muayyan ilmiy-nazariy qarashlar shakllangan. Bugungi kunda ham bu yo‘nalishda ko‘plab tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Jahonning mashhur psixolingvistlari: F.Galton, A.Tumb, K.Marb, G.Kent, A.Rozanov, D.S.Palermo, M.Rozensveyg, R.Vudvorts, L.Postmen, K.Nobl, J.Diz, J.Jenkins, F.Kreymer, A.R.Luriya, A.A.Leontyev, L.V.Saxarny, A.A.Zalevskaya, Yu.N.Karaulovlarning bu yo‘nalishdagi ishlarida tilga assotsiativ yondashuvning mohiyati, zarurati, assotsiativ munosabat, assotsiativ ma’no, verbal assotsiatsiya, assotsiativ maydon, matnning assotsiativ maydoni, lisoniy ong, lisoniy xotira, inson leksikoni tushunchalari, assotsiativ tajriba metodi, assotsiativ lug‘atlarning tuzilishi, ahamiyati kabi masalalar bo‘yicha qimmatli ilmiy qarashlar bayon etilgan.

O‘zbek tilshunosligida til birliklarining assotsiativ aloqasi, tilda verbal

assotsiatsiyalarning hosil bo'lishi muammosi monografik aspektda maxsus o'rganilmagan bo'lsa-da, ayrim ishlarda bu masalalarga munosabat bildirib o'tilgan. Xususan, professor A.Nurmonovning «Struktur tilshunoslik: ildizlari va yo'nalishlari» nomli o'quv qo'llanmasida shveytsariyalik olim F.de Sossyurning assotsiativ munosabat haqidagi qarashlari umumlashtirilgan, assotsiativ munosabatning mohiyati, sintagmatik munosabatdan farqi ko'rsatib berilgan.

Olimning qayd etishicha, «ongimizda hosil bo'lgan assotsiativ guruhlar ma'lum umumiy belgisiga ega bo'lgan munosabat a'zolarining yaqinlashuvi bilan chegaralanmaydi. Ong har bir munosabatda munosabat a'zolarini bog'lovchilar xarakterini ham qamrab oladi. Natijada nechta assotsiativ qator bo'lsa, shuncha farqli munosabatni hosil qiladi. Masalan, o'zakdoshlik asosida birlashgan so'zlar guruhi, qo'shimchadoshlik asosida birlashgan so'zlar guruhi. Bundan tashqari assotsiatsiya faqat ifodalanmish o'xshashligi asosida yoki akustik obrazlar umumiyliigi asosida yoki faqat shakl, yo mazmun asosida yuzaga kelishi mumkin. Har qanday so'z o'zi bilan assotsiatsiya munosabatida bo'lishi mumkin bo'lgan so'zni doimo esga soladi».A.Nurmonovning «Paradigma va uning olamning lisoniy manzarasi (OLM)ga munosabati» nomli maqolasida ham F.de Sossyurning assotsiativ munosabatga doir qarashlari tahlil etilgan.

I.Azimovanning «O'zbek tilidagi gazeta matnlari mazmuniy persepsiyasining psixolingvistik tadqiqi» nomli nomzodlik ishida publitsistik matnni hosil qiluvchi assotsiatsiyalar tahlil qilingan. Tadqiqotda matnni eshitish va o'qishda so'zlarning eslab qolinishi darajasini aniqlash maqsadida o'tkazilgan tajriba asosida retsipyentlarning stimul matn ta'sirida yuzaga kelgan assotsiatsiyalari o'rganilgan. Olima stimul matn ta'sirida quyidagi vaziyatlarda assotsiatsiyalarning yuzaga kelishini ko'rsatgan: «1. Retsipyent so'zning ma'nosini yaxshi tushungan, biroq shaklini eslab qola olmagan. Bu so'zga ma'no yoki shakl jihatdan yaqinroq bo'lgan so'zlarning paradigmatic assotsiatsiyalari hosil bo'lgan. 2. Retsipyent matndan biror so'z yo birikmani eslab qolgan. Biroq bu so'z ishtirok etgan gapni to'liq tushunmagan. Shunda eslab qolingani so'z yo birikma sintagmatik assotsiatsiyalarni hosil qilgan. 3. Matndagi biror so'z yo birikmaga

bog'liq bo'lmagan, biroq, odatda, publitsistik uslubda qo'llanadigan so'zlar ham eslab qolingani so'z sifatida yozilgan».

Shuningdek, ishda retsiyentlarda assotsiatsiyalarning yuzaga kelishi stimul matn mavzusi, uslubi, akustikasi bilan bog'liq bo'lishi, so'zlardagi tovush yoki qo'shimchalar ta'sirida hosil bo'lishi ham qayd etilib, sema asosida paradigmatic assotsiatsiyalarning, uslub asosida ham paradigmatic, ham sintagmatic assotsiatsiyalarning, akustika asosida esa talaffuz jihatidan stimul matnga xos bo'lgan so'zlarga yaqin turadigan assotsiatsiyalarning hosil bo'lishi; sema asosida paydo bo'ladigan assotsiatsiyalar matndagi so'zning ma'nosidan kelib chiqsa, uslub asosidagi assotsiatsiyalar matnning umumiy mazmunidan kelib chiqishi haqida qiziqarli ma'lumotlar berilgan.

I. Azimovning mazkur tadqiqotida gazeta matnlarini tushunish, idrok etish jarayonida hosil bo'lgan assotsiatsiyalarni tahlil etish maqsad qilib belgilangani bois, unda o'zbek tilidagi leksik birliklarning assotsiativ bog'lanishi, inson xotirasida bir-biriga bog'liq holda tiklanishi, buning ichki va tashqi omillari masalasi tahliliga alohida e'tibor qaratilmagan.

D. Xudoyberganovning «O'zbek tilidagi badiiy matnlarning antropotsentrik talqini» mavzuidagi doktorlik ishida badiiy matnda qo'llangan assotsiativ birliklarga munosabat bildirib o'tilgan. Tadqiqotda sinonimik, omonimik, antonimik qatorlarni tashkil qilgan ayrim so'zlarda assotsiativ munosabatning namoyon bo'lishi masalasi tahlil qilingan, assotsiativ tafakkur tilning nafaqat leksik sathida, boshqa sathlarida ham amal qilishi asoslab berilgan. Olimaning fikricha, sovuq, iliq, tarqoq, saylov kabi yasama ot va sifatlar esga tushganida ularning yasash asosi bo'lgan fe'llar ham xotiraga keladi. Masalan, sovuq – sovimoq, iliq – ilimoq, saylov – saylamoq, tarqoq – tarqamoq kabilar.

Shuningdek, ishda assotsiativ fikrlash bo'yicha o'tkazilgan tajriba asosida taom – palov, milliy kiyim – atlas/to'n, bosh kiyim – do'ppi juftliklarida assotsiativ fikrlashning milliy; yirtqich hayvon – sher, planeta – Mars, issiq – yoz kabi juftliklarda assotsiativ fikrlashning umumiy semantik xususiyatlari namoyon bo'lishi haqida qiziqarli xulosalar berilgan. Dissertatsiya maqsadidan kelib chiqqan

holda mazkur ishda ham badiiy matndagi assotsiativ birliklar tahlili bilan chegaralanilgan.

Sh.Iskandarova, N.Hoshimovalarning «Nutq jarayonida assotsiatsiyalarning voqelanishi» deb nomlangan maqolasida so‘zlarning kuchli assotsiativ juftligi gapda bir butun mazmuniy va grammatik birikuvni tashkil etishi, kuchsiz assotsiativ juftlik parchalanib, gapning turli mazmuniy guruhlariga birikuvi haqida fikr yuritilgan va bu masalaga oid mavjud qarashlar qo‘llab-quvvatlangan. Mualliflarning fikricha, «Iste’dodli rassom qiziqarli rasm chizyapti» gapida iste’dodli so‘zi rassom so‘zi bilan, qiziqarli rasm atributiv birikmasi chizyapti so‘zi bilan va qiziqarli so‘zi rasm so‘zi bilan o‘zaro zich bog‘lanib, so‘z birikmasini hosil qilgan. So‘zlarning kuchli assotsiativ juftliklari gapda mazmuniy va grammatik birikuvni tashkil qilgan, assotsiatsiyalarning ma’nosi predikativ juftlik va nominativ guruh tarkibida ko‘rinadi.

Bizningcha, berilgan gap qurilishi uchun rassom leksemasi bilan bog‘liq assotsiatsiyalar tayanch birlik vazifasini o‘tagan. Boshqacha aytganda, gapdagi assotsiativ birliklar rassom leksemasi atrofida birlashgan. Rassom leksemasi bilan assotsiativ bog‘lanishdagi eng kuchli a‘zo avvalo rasm leksemasi hisoblanadi. Negaki rassom leksemasi ko‘pchilik til egalari xotirasida dastlab rasm leksemasini tiklaydi. Demak, rasm assotsiatsiyasining rassom leksemasi bilan assotsiativ aloqasi kuchli. Ammo rassom – rasm (berilgan gapda qiziqarli rasm) assotsiativ juftligi grammatik birikuvni hosil qilmaydi. Aksincha, rassom – iste’dodli, rassom – chizyapti assotsiativ juftliklari mazmuniy va grammatik birikuvni yuzaga keltiradi. Bundan xulosa qilish mumkinki, so‘zlarning kuchli assotsiativ juftliklari har doim ham grammatik birikuvni hosil qilavermaydi.

Maqola mualliflarining assotsiativ munosabatlarning o‘ziga xos tomonini yoritishda leksik birliklarning sintagmatik xususiyatlari bilan bir qatorda, ularning valentlik imkoniyatlari ham yuzaga chiqishi haqidagi xulosalari o‘rinli. Darhaqiqat, assotsiativ birliklarda til birliklarining valentik imkoniyatlari ham voqelanadi. Masalan, chizmoq leksemasining ob’yekt valentligi chizdi – rasm juftligida reallashadi.

N.Hoshimovanning “**Прагматические аспекты при исследовании ассоциатив**” deb nomlangan maqolasida assotsiatsiyalarning individuallik xususiyatlari va ularni aniqlashga pragmatik yondashuv masalasi tahlil qilingan. Tadqiqotchi individual assotsiatsiyalarni yuzaga keltiruvchi tashqi va ichki omillar haqida fikr yuritgan. Uning qayd etishicha, tashqi omillarga til egalarining millati, yoshi, jinsi, ijtimoiy mavqei, kasbi kabi omillar kiradi. Shuningdek, voqelikning har bir inson tomonidan turlicha idrok etilishi, soʻz bilan bogʻliq holda orttirilgan bilim, insonning representativ tizimi, soʻz maʼnosi va u haqida insonda shakllangan tushuncha kabi ichki omillar ham individual assotsiatsiyalarning hosil boʻlishiga olib keladi. Albatta, assotsiativ maydonda oʻziga xos individual assotsiatsiyalar ham uchraydi. Bunday assotsiatsiyalar nafaqat turli tillarda, balki bir til doirasida ham bir-biridan farq qiladi. Individual assotsiatsiyalarni oʻzbek tili materiallari asosida milliy-madaniy, gender, ijtimoiylik va boshqa omillar bilan bogʻliq tarzda tadqiq etish dolzarb muammolardan biridir.

Assotsiativ fikrlash. Oʻzbek tilidagi leksik birliklarning assotsiativ bogʻlanishi muammosiga qiyosiy aspektda ham munosabat bildirilgan. Rus olimasi A.A.Zalevskaya doktorlik ishida rus, qozoq, qirgʻiz, oʻzbek tillaridagi 111 ta soʻz-korrelyat (ekvivalent) misolida bu tillarga xos leksik assotsiatsiyalarni qiyosan oʻrganib, mazkur masala boʻyicha xulosalarini eʼlon qilgan.

A.A.Zalevskayaning ingliz, nemis, fransuz, ukrain, belorus, qirgʻiz, qozoq, oʻzbek tillaridagi leksik assotsiatsiyalarning qiyosiy tahliliga oid maqolasida esa turkiy tillarda soʻzlashuvchi informantlarda leksik assotsiatsiyalarning hosil boʻlish jarayoni turkiy til – rus tili ikki tilligi sharoitida ruslarnikiga emas, amerikaliklarnikiga oʻxshashligi haqida qiziqarli maʼlumotlar berilgan.

A.A. Zalevskaya 9 ta til: ingliz, nemis, fransuz, polʼyak, slovak, rus, qozoq, qirgʻiz, oʻzbek tillari boʻyicha oʻtkazgan assotsiativ tajribalari asosida bu tillarga oid lingvomadaniy xususiyatlarni ham qiyosan tahlil qilgan.

Oʻzbek tilida leksik birliklarning assotsiativ bogʻlanishi, assotsiatsiyalarning xususiyatlari muammosiga munosabat bildirilgan mana shu ishlarni istisno etganda, bugungi kunda oʻzbek tilida leksik assotsiatsiyalarning hosil boʻlish

mexanizmlari, verbal assotsiatsiyalarning til egalarining mentaliteti, milliy-madaniy qarashlari bilan bog‘lanishi, gender belgisi, ijtimoiylik xususiyatlari nuqtai nazaridan tadqiqi, o‘zbek tili materiallari asosida assotsiativ lug‘atlarni yaratish masalasi dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

Ma’lumki, tashqi olamning verbal ifodasi va bunda voqelik – ong – til uchligi munosabatining tahlilida quyidagi muhim jihatga ham e’tibor qaratilishi lozim. Tashqi olamdagi voqeliklar inson ongida ular bilan bevosita aloqador bo‘lgan makon, zamon, sabab, maqsad kabi omillardan ajralgan holda aks etmaydi. Muayyan voqelikning ob’yektiv mavjud bo‘lish sharti sifatida yonma-yon yuruvchi bunday omillar inson ongida voqelik obrazining hamrohlari sifatida birga gavdalanib, u bilan assotsiativ bog‘langan «zanjir»ni hosil qiladi.

Tashqi olam inson ongida bir-biri bilan aloqador turli ob’yektlar, voqea-hodisalar hamrohligida aks etgani bois ular assotsiativ tarzda biri ikkinchisini yodga tushiradi. Nafaqat tashqi olamdagi ob’yektlar, balki insonning birgalikda va bir vaqtda boshidan kechirgan turli kechinmalari ham aloqadorlik tamoyili asosida bir-birini eslatib turadi. M.Vettler va R.Rappning qayd etishicha, «bir vaqtlar birgalikda his qilingan ob’yektlar qoidaga ko‘ra xayolan bir-biriga bog‘liq ob’yektlarga aylanadi. Shu bois ulardan biri haqidagi o‘y, tabiiyki, boshqasi haqida ham avvalgidek birin-ketinlik yoki birga mavjud bo‘lishlik tartibida o‘y surishga olib keladi”. Bu jihatdan qaraganda, ongda aks etgan assotsiativ aloqalarning tilda ham ifoda topishi bejiz emas.

Turli voqeliklarning ongda aks etgan assotsiativ aloqasi tilda ham bir-birini eslatuvchi birliklarning assotsiativ bog‘lanishini yuzaga keltiradi. Masalan, daraxtning o‘sishi uchun tuproq, suv kabilar zarur; daraxt o‘rmon, bog‘, maydonda o‘sadi. Daraxtning tuproq, suv, bog‘ kabilar bilan aloqasi inson xotirasida daraxt leksemasi orqali tuproq, suv, o‘rmon, bog‘, maydon leksemalarning yodga tushishiga sababchi bo‘ladi. Til birliklarining inson psixologik tasavvuri bilan bog‘liq tarzda bir-biri bilan bu tarzda munosabatga kirishuvi assotsiativ munosabat deyiladi. Atoqli tilshunos A.Nurmonov qayd etganlaridek, «...lisoniy birliklar nutq jarayonidan tashqari o‘zaro qandaydir umumiy belgi asosida xotirada muayyan

guruhlarga birlashib turadi. Masalan, ta'lim so'zi ongda maktab, kitob, muallim singari bir qancha so'zlar bilan bog'lanib turadi. Bunday munosabatning sintagmatik munosabatdan tamomila boshqacha xususiyatga egaligini ko'rish qiyin emas. Keyingi munosabat cho'ziqlikka ega emas, u miyada lokallashadi va har bir shaxsning xotirasida saqlanuvchi xazinaga mansub bo'ladi. Bunday munosabat assotsiativ munosabat hisoblanadi».

Tilshunoslikda ba'zan assotsiativ munosabat va paradigmatic munosabat terminlarining muqobil holatda qo'llanishi kuzatiladi. Jumladan, T.Bushuy, Sh.Safarovlar til birliklari orasidagi munosabatlarni an'anaviy tarzda sintagmatik, paradigmatic va iyerarxik munosabatga ajratgan holda, paradigmatic munosabatga quyidagicha ta'rif beradilar: "Assotsiativ yoki paradigmatic munosabatlar birliklarning ayrim xususiyatlari umumiyligi yoki o'xshashligi asosida muayyan guruhlarga bo'linib, munosabatga kirishuvidir". Ko'rinadiki, olimlar F.de Sossyur izidan borib, assotsiativ munosabat terminini paradigmatic munosabat termini bilan parallel qo'llaydilar.

O'zbek tilidagi leksik birliklarning assotsiativ bog'lanishi. Assotsiativ munosabat bir yoki bir necha sath birliklarining turli omillar bilan bog'liq holda inson tafakkurida assotsiativ bog'lanishini aks ettiradi. Bir til egasida biror til belgisiga nisbatan hosil bo'lgan assotsiatsiya boshqa til egasida yuzaga kelgan assotsiatsiyadan farqlanadi. Paradigmatic munosabat esa bir sathga mansub til birliklarining umumiy belgisi asosida muayyan guruhlarga (semantik, grammatik turlarga) birlashuvini aks ettiradi. Inson xotirasidan o'rin olgan paradigmatic munosabatdagi guruhlar har bir til egasida farq qilmaydi. Bu jihatdan yondashilsa, assotsiativ munosabat va paradigmatic munosabat terminlarini muqobil terminlar sifatida qo'llash o'zini oqlamaydi.

Bu o'rinda til birliklari o'rtasidagi assotsiativ munosabatni psixik elementlar assotsiatsiyasidan farqlash ham zarur. Ayrim tilshunoslar tildagi assotsiatsiyani psixik tuzilmalar assotsiatsiyasidan farqlash maqsadida uni «verbal assotsiatsiya» (verbal – lot. verbum, ya'ni so'z) termini bilan ifoda etishni ma'qul ko'rishadi. Lingvistik assotsiatsiyaga nisbatan bu terminning qo'llanishi, bizningcha ham,

o'zini oqlaydi.

Darhaqiqat, lingvistik assotsiatsiya psixologik assotsiatsiyadan tubdan farq qiladi. Lingvistik assotsiatsiyada tilda aniq verbal ifodasiga ega bo'lgan va bir-birini yodga solib turuvchi ikki va undan ortiq voqelik, narsa-predmet, belgi, harakat-holat va hokazolar aloqasi aks etsa; psixologik assotsiatsiya inson ongida yuzaga kelgan bir-birini kuzatib yuruvchi psixik elementlar (g'oyalar, fikrlar, tasavvurlar, his-tuyg'u va boshqalar) munosabatini ifoda etadi.

G'oyalar assotsiatsiyasi haqida fikr yuritarkan, J.Lokk bunday assotsiatsiya ko'pincha odamlarda o'rganish bo'lib qolgan odatlar ta'sirida yuzaga keladi deb hisoblaydi. U odamlarda kuzatiladigan g'oyalar assotsiatsiyasiga ularga qattiq ta'sir qilib, doimo o'z natijasini ko'rsatuvchi xush ko'rish va xush ko'rmaslik sabab bo'lishini qayd etadi. J.Lokk ko'p asal yeb qo'ygan odamning asalni eshitishi darhol uning oshqozonida og'riq va ko'ngil aynishi hissini hosil qilishi, bu odam asal haqidagi tasavvurni qabul qila olmasligi, bu tasavvur darhol boshqa tasavvurlar – ko'ngil aynishlik, qusish, o'zini yomon his qilishlik kabilarni yuzaga keltirishini va bunday assotsiatsiya xush ko'rmaslik (tabiiy bo'lmagan antipatiya) natijasi ekanini bayon qiladi.

Anglashiladiki, inson ongida hosil bo'lgan bir-birini eslatuvchi psixik tasavvur, g'oyalar psixologik assotsiatsiya sanaladi. Lingvistik assotsiatsiyalar (verbal assotsiatsiyalar) ham til egasining voqelik haqidagi psixologik tasavvuri asosida yuzaga keladi, ammo bu tasavvur tilda bir-biri bilan muayyan belgisiga ko'ra aloqada bo'lgan aniq lisoniy birliklar orqali reallashadi. Lingvistik assotsiatsiyalar psixologik assotsiatsiyalardan, avvalo, lingvistik mohiyat kasb etishiga ko'ra farq qiladi. Quyida lingvistik assotsiatsiyalarga xos eng umumiy belgilar xususida fikr yuritamiz.

Ma'lumki, tildagi ma'noli birliklar semantikasi, tabiiy ravishda, yondosh ma'nolar (yaqin, zid, o'xshash ma'nolar) orqali ochib beriladi. Masalan, yaxshi leksemasining ma'nosiga yomon leksemasining ma'nosi asosida aniqlik kiritiladi. Bu jarayonda til birligining assotsiativ ma'nosi muhim o'rin tutadi. Leksemaning assotsiativ ma'nosi leksik ma'no kabi so'z orqali reallashadi, biroq leksik ma'no

leksemda o'z ifodasini topsa, assotsiativ ma'no til egalari lisoniy ongida muayyan leksik birlik bilan bog'liq tarzda shakllanadi. Assotsiativ ma'no leksemaning nafaqat semantik jihati, grammatik shakli, intonatsion xususiyati, so'z yasash strukturasi, uslubiy, dialektal belgisi kabi lingvistik omillar, balki ekstralingvistik omillar asosida ham hosil bo'ladi.

A.Zalevskayaning fikricha, assotsiativ ma'no tushunchasi o'ziga xos ichki strukturani, insonda nutq va tafakkur orqali o'rnashuvchi aloqa va munosabatlarning tub modellarini aniqlash jarayonida shakllandi, "kognitiv tuzilma"lar asosida assotsiativ ma'no tushunchasi yotadi va uni faqat so'zlarning assotsiativ aloqasi tahlili orqali aniqlash mumkin bo'ladi.

Verbal assotsiatsiyalar har bir til egasida turlicha shakllangani bois assotsiativ ma'no ham individual xususiyat kasb etadi. So'zning assotsiativ ma'nosi dinamik xarakterda. Insonning tashqi olam haqidagi bilimi va tasavvurlarining o'zgarishi, olamni qayta idrok etishi verbal assotsiatsiyalarning va u bilan bog'liq assotsiativ ma'noning o'zgarishiga olib keladi. Masalan, qahatchilik vaqtida qora non haqidagi tasavvur shu davr til egalarida qahatchilik, yetishmovchilik, yo'qchilik assotsiatsiyalarini hosil qilgan bo'lsa, bugungi tinch va to'kin-sochin hayotimizda qora non til egalarida salomatlik, parhez non assotsiatsiyalarini yuzaga keltiradi. Demak, olamning qayta idrok etilishi verbal assotsiatsiyalar va ular orqali anglashiluvchi assotsiativ ma'noga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Verbal assotsiatsiyalar tahlilida assotsiativ ma'no tushunchasi bilan bir qatorda assotsiatsiyalar ko'lami, assotsiatsiyalarda milliy-madaniylik, ijtimoiylik, gender belgi kabi tushunchalar ham muhim o'rin tutadi.

Ma'lumki, verbal assotsiatsiyalarning ko'lami til egalarida farqlanadi. Verbal assotsiatsiyalarning ko'lami til egasining leksik birliklar zahirasi bog'liq. Bolalar va kattalar, ayollar va erkaklar, turli kasb egalarida verbal assotsiativ maydon ko'lami, uning tarkibi turlicha bo'ladi. N.O.Zolotovaning ma'lumotiga qaraganda, assotsiativ maydon yadrosiga mansub yuqori chastotali birliklar 6 yoshli bola lug'at boyligidan o'rin olib ulgurgan bo'ladi. Bunday birliklar kundalik nutqiy faoliyatda qo'llanuvchi inson va uning tana a'zolari nomlari, qarindoshlik

munosabatlarini ifoda etuvchi nomlar, koinot jismlari, tabiat hodisalarini anglatuvchi nomlar, ayrim rang bildiruvchi so'zlar, harakat va holatni anglatuvchi so'zlar va boshqalardir. Albatta, bu xulosa bolalar va kattalarda verbal assotsiatsiyalarning ko'lemi bir xil bo'lishini anglatmaydi. Yadro a'zolari eng ko'p qo'llaniladigan birliklardan tashkil topgani bois bolalar va kattalarda o'xshash bo'lishi tayin, ammo assotsiativ maydon ko'lemi til egalarining leksik zahirasiga bog'liq bo'ladi.

O'zbek tilida leksik birliklarning assotsiativ bog'lanishi. Verbal assotsiatsiyalarning ko'lemi, mazmun mundarijasi ayol va erkaklarda ham farqlanadi. O'tkazilgan assotsiativ tajriba natijalari shuni ko'rsatadiki, ayollarda hissiy munosabat ifodalovchi assotsiatsiyalar, noadabiy qatlamga oid o'ziga xos individual qo'llanishlar nisbatan ko'p uchraydi.

Shunisi qiziqki, bir ob'yekt bo'yicha turli millat vakillarida bir-biridan farq qiluvchi verbal assotsiatsiyalarning yuzaga kelishi kuzatiladi. Bu holat turli til egalarining milliy-madaniy qarashlari, qadriyatlarini, voqelikka munosabati kabilar bilan bog'liq. A.A.Zalevskaya non stimul so'ziga ruslar tuz, fransuzlar vino, nemis va amerikaliklar yog', o'zbeklar choy javob reaksiyasini berishganini qayd etadi. Bu holat verbal assotsiatsiyalarda milliy-madaniy qarashlar aks etishini anglatadi.

Verbal assotsiatsiyalar ijtimoiylik belgisi asosida ham farqlanadi. Paxta leksemi dehqon uchun paxta dalasini eslatga, tibbiyot xodimiga bog'lov xonasi (yoki muolaja xonasi)ni yodiga tushiradi. Mana shu tasavvur asosida paxta – paxta dalasi, paxta – bog'lov xonasi assotsiativ juftliklari yuzaga keladi.

Verbal assotsiatsiyalarga xos xususiyatlardan yana biri shuki, ular turli nutqiy tuzilmalarning yaratilishiga yo'l ochadi. Boshqacha aytganda, har qanday nutqiy tuzilma uchun o'zaro assotsiativ bog'langan til birliklari (leksik, sintaktik birliklar) tayanch birliklar vazifasini o'taydi.

Stimul so'z (eshitilishi yoki o'qilishi bilan xotirada boshqa birliklarning yodga tushishiga turtki beruvchi so'z) + javob reaksiyasi (eshitilgan yoki o'qilgan so'zga javob reaksiyasi sifatida inson xotirasida gavydalanadigan birlik, assotsiat) modelidagi assotsiativ struktura muayyan vaziyat ifodasi uchun xizmat qila oladi.

Masalan, ona leksemasining mo'tabar, aziz, mehribon assotsiatsiyalari asosida hosil bo'lgan assotsiativ struktura «Ona mo'tabar», «Ona aziz», «Ona mehribon» gaplarini yuzaga keltiradi. Yoki belamoq leksemasi bilan assotsiativ bog'langan beshik, bola, chaqaloq, go'dak, farzand, ona, tebratmoq kabi leksemalar ishtirokida nutqda «Bola beshikka belandi», «Ona chaqalog'ini beshikka beladi» yoki «Ona go'dagini beshikka beladi» jumllarini tuzish mumkin bo'ladi. Assotsiativ birliklar ushbu jumllarning qurilishida tayanch birliklar vazifasini o'taydi. Biroq mazkur jumllarni tuzish uchun til egasi nafaqat tilning grammatik qoidalarini bilishi, balki beshik haqidagi milliy-madaniy qadriyatimizdan ham xabardor bo'lishi lozim.

Ba'zi nutqiy tuzilmalarning shakllanishida sintaktik assotsiatsiyalar (so'z birikmasi va gaplar) tayyor qurilish materiali sifatida qatnashadi. Jumladan, til egasi lisoniy zahirasida o'rnashgan maqol, matal kabi pretsedent birliklar yirik nutqiy tuzilmalarni tuzishda ishtirok etadi. Masalan, bola leksemasi bilan bog'liq holda til egasi xotirasida tiklangan «Bolali uy – bozor, bolasiz uy – mozor» maqoli nutqiy akt jarayonida bevosita lisoniy zahiradan olinadi. Shuningdek, moviy osmon, temir intizom, qish chillasi, erta tong kabi so'z birikmalari ham til egalari tomonidan asosan shu shaklda qo'llanib, ularning xotirasida o'rnashib qolgani bois nutq jarayonida lisoniy zahiradan tayyor holda olinadi. Demak, assotsiativ munosabatdagi leksik, sintaktik birliklar nutqiy tuzilmalar uchun qurilish materiali vazifasini o'taydi. Rus tilshunosi Yu.N.Karaulovning fikricha, «Har qanday so'z bizning ongimizda, xotiramizda, xuddi shunday nutqiy tuzilmalarimizda ham alohida tarzda mavjud bo'lmaydi: u o'nlab, yuzlab «iplar» orqali boshqa so'zlarga tomon intiladi. Har qanday so'z, aytish mumkinki, «davom ettirilish»ni talab qiladi, o'z juftini qidiradi», «ikki so'z modeli»ga aylanishni xohlaydi. Bu tarzda «davom ettirilish» imkoniyati, bu kabi ikki so'z modeli – tipik hol bo'lib, til egasi tomonidan oson talaffuz etiladi, haqiqatga yaqin va tushunarli bo'lib, assotsiativ lug'atlarda ham qayd etiladi. Shunga ko'ra har bir stimul – reaksiya juftligi hali tugallanmagan jumla, uning zarur tarkibiy qismi yo grammatik jihatdan shakllangan bo'lagi yoki tugallangan shaklga keltirish lozim bo'lgan bo'lajak jumlaning yadrosidir». Albatta, biror bir leksik birlikning eshitilishi (yoki o'qilishi)

bilan xotiramizda boshqasining tiklanishi leksemalarning lisoniy ongimizda «yolg‘iz yashamasligi»dan dalolat beradi. Lisoniy ongda «birga yashovchi» bu birliklar nutqiy tuzilmalarni shakllantiruvchi tayanch birliklar sanaladi. Biroq bu o‘rinda shuni qayd etish joizki, har bir stimul so‘z – javob reaksiyasi juftligi har doim ham nutqiy tuzilma uchun qurilish materiali vazifasini ado etavermaydi. Bu o‘rinda mantiqiy-semantik jihatdan bog‘langan assotsiativ juftliklar haqida gapirish o‘rinli. Negaki assotsiativ maydon tarkibida sinaluvchilar tomonidan sun‘iy tarzda hosil qilingan yoki stimul so‘zning faqat fonetik strukturasi yoki talaffuzi asosida hosil qilingan, stimul so‘z bilan biror bir jihatdan bog‘lanmaydigan, nutqiy tuzilmalarni shakllantirishda ishtirok etmaydigan assotsiatsiyalar ham uchrab turadi.

Tilda assotsiativ birliklar, xususan, leksik assotsiatsiyalarning hosil bo‘lishiga qanday omillar ta’sir ko‘rsatadi?

Har qanday leksik birlik, u qanday grammatik shaklga yoki qanday ma’noga ega bo‘lmasin, inson xotirasida turli omillarga bog‘liq holda qandaydir leksik birliklar yoki boshqa sath birliklarini yodga tushiradi, ular bilan assotsiativ bog‘lanadi. Professor A.Nurmonov leksik assotsiatsiyalarning hosil bo‘lishini leksemalarga xos umumiy belgi bilan bog‘laydi. Olimning fikricha, «so‘z sintagmatik munosabatga kirishi bilan birga nutqiy jarayondan tashqarida boshqa so‘zlar bilan umumiylik belgisiga ko‘ra so‘zlovchi til xotirasida assotsiatsiyalashadi va bu assotsiatsiyalashgan birliklar xotirada muayyan guruhlarni hosil qiladi». Darhaqiqat, tildagi leksik birliklar semantik, struktur, derivatsion, konnotativ, akustik kabi qator belgilari asosida umumiylikka birlashishi mumkin. Bu kabi umumiy belgilar ko‘plab leksik assotsiatsiyalarda kuzatiladi va ular til egalari xotirasida muayyan guruhlarga birlashgan holda o‘rinlashadi.

O‘tkazilgan assotsiativ tajribalarda ba’zan leksema ma’nosini tushunmay, sun‘iy tarzda hosil qilingan chayon – yovvoyi hayvon, maorif – odamlar yig‘ilishi tarzidagi juftliklar ham kuzatiladiki, bunday juftliklarda stimul so‘z va assotsiat o‘rtasida yuqorida qayd etilgan umumiylik kuzatilmaydi. Bunday

assotsiatsiyalarda mantiqiy-semantik aloqa ham mavjud emas. Til egasining voqelikka baho munosabatini ifoda etishi asosida (ekstralingvistik omil) hosil bo'lgan mastava – jonga tekkan, shirinlik – joni dilim juftliklarida ham stimul so'z va assotsiat o'rtasida umumiy lingvistik belgi aks etmaydi. Bunday assotsiatsiyalar jamoaviy xarakterga ega emas, ular til egalari xotirasida assotsiativ guruhlariga birlashmaydi.

Shunisi xarakterliki, ba'zi leksik birliklarning semantik komponentlari orqali ham verbal assotsiatsiyalar yuzaga keladi. Bu o'rinda semantik va assotsiativ komponentlar birligi haqida gapirish mumkin bo'ladi. Biroq leksemalarning assotsiativ bog'lanishini ularning semantik tuzilishi bilan chegaralash yaramaydi. Muayyan leksema boshqa leksema bilan bir vaqtda ham assotsiativ, ham semantik munosabatga kirisha oladi. Biroq leksemalarning assotsiativ va semantik bog'lanishidagi asosiy farq shundaki, assotsiativ munosabat ikki leksemaning nutqda yuqori darajada birga qo'llanishini ta'minlaydi, semantik bog'lanish esa leksemalarning umumiy semasi asosida bir guruhga birlashuviga sabab bo'lsa-da, ularning har doim ham nutqda birga qo'llanishiga olib kelmaydi.

Tilshunoslar tilda verbal assotsiatsiyalarning hosil bo'lishini turli omillar bilan bog'lashadi. Ye.I.Goroshko, L.E.Kuznetsovalarning fikricha, assotsiatsiyalarning hosil bo'lishiga: 1) lingvistik omil (stimul so'zning muayyan xususiyatlari); 2) pragmatik omil (sinaluvchi "shaxsi") ta'sir ko'rsatadi. Har ikki olim ham bu omillar qatoriga tajriba o'tkazish shart-sharoiti omilini ham qo'shish lozimligini tavsiya etadilar.

Bizningcha, sinaluvchi "shaxsi" ta'siri hamda tajriba o'tkazish shart-sharoiti omilini mohiyatan ekstralingvistik omilga birlashtirgan ma'qul. Masalaga bu jihatdan yondashilsa, assotsiativ juftliklarning hosil bo'lishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni lingvistik va ekstralingvistik omillarga ajratgan holda o'rganish mumkin bo'ladi.

Xullas, tildagi verbal assotsiatsiyalar asosida insonning tashqi olam haqidagi psixologik tasavvuri yotadi. Verbal assotsiatsiyalarning lingvistik omillarga bog'liq holda hosil bo'lgan ko'rinishlari til birliklari o'rtasidagi aloqa-

bog‘lanishlarga asoslansa, ekstralingvistik omillar bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan turlarida tashqi olamdagi rang-barang munosabatlar, milliy-madaniy qadriyatlar til egalarining voqelik haqidagi tasavvurlari, dunyoqarashi va boshqalar o‘z aksini topadi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Assotsiativ birlik assotsiativ munosabat, verbal assotsiatsiya, lingvistik omil, ekstralingvistik omil tushunchalarini izohlang.
2. Jahonning qaysi mashhur psixolingvistlari o‘z ishlarida assotsiativ munosabat, assotsiativ ma’no, verbal assotsiatsiya, assotsiativ maydon, matnning assotsiativ maydoni, lisoniy ong, lisoniy xotira, inson leksikoni tushunchalari... o‘z ifodasini topadi?
3. O‘zbek tilshunosligida til birliklarining assotsiativ aloqasi, tilda verbal assotsiatsiyalarning hosil bo‘lishi muammosi dastlab qaysi tilshunos olimning ishlarida ko‘rinadi?
4. A.Nurmonovning «Struktur tilshunoslik: ildizlari va yo‘nalishlari» nomli o‘quv qo‘llanmasida assotsiativ tilshunoslik haqida qanday fikrlarni bildirib o‘tadi?
5. A.Nurmonovning quyidagi fikrini izohlang: “ongimizda hosil bo‘lgan assotsiativ guruhlar ma’lum umumiy belgisiga ega bo‘lgan munosabat a’zolarining yaqinlashuvi bilan chegaralanmaydi”
6. Tilshunoslikdagi “retsipiyent” tushunchasini izohlang.
7. I.Azimova o‘zining tadqiqot ishida assotsiatsiyalarning qaysi tomonlarini o‘rganadi?
8. D.Xudoyberganova o‘zining tadqiqot ishida assotsiatsiyalarni qaysi aspekta tahlil qilishga harakat qiladi?
9. Sh.Iskandarova, N.Hoshimovalarning «Nutq jarayonida assotsiatsiyalarning voqelanishi» deb nomlangan maqolasida nimalarga e’tibor beriladi?
10. N.Hoshimovanning “Pragmaticheskiye aspekti pri issledovanii assotsiatsiy” deb nomlangan maqolasida assotsiatsiyalarning qaysi tomoniga e’tibor qaratadi?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Лутфуллаева Д.Э. Ассоциатив тилшунослик назарияси. Тошкент: Мерияс, 2017. – Б. 140.
2. Худойберганава Д. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол. фан. д-ри ... дис. – Тошкент: ЎЗР ФА ТАИ, 2015. – Б. 33.
3. Лутфуллаева Д.Е. Ўзбек тилининг ассоциатив луғати (миллий-маданий бирликлар). -Тошкент: “НАВОИЙ УНИВЕРСИТЕТИ” нашриёт-натбаа уйи. 2019.
4. Лутфуллаева Д.Э., Солиева Ф. Ўзбек тилида лексик ассоциацияларнинг ҳосил бўлиши. Ўзбек тили ва адабиёти. 2016. №.3. - Б.35-41.
5. Lutfullayeva D.E., Kurbanova M.A. Associative Approach to a Language and the Problem of Associative Relation of Words in Uzbek. Anglisticum Journal Volume: 5 Issue: 7, July, 2016. (Makedoniya). P.61-66.
6. Lutfullayeva D.E. The role of associative experimental method in the study of human linguistic memory. Современные проблемы тюркологии: язык-литература -культура // Международная научно-практическая конференция. – Москва. 2016. С.452-458.
7. Комалова Л.Р. Ассоциативный эксперимент: теоретические и прикладные перспективы психолингвистики: монография /Пищальникова В.А., Карданова-Бирюкова К.С., Панарина Н.С., Степыкин Н.С., Хлопова А.И., Шевченко С.Н.Под ред. Ищальниковой.В.А. - М.: Р-валент, 2019. - 200 С.

2-MAVZU:

TILGA ASSOTSIATIV YONDASHUVINING
SHAKLLANISH TARIXI.

REJA:

1. *Assotsiativ tilshunoslikda assotsiativ maydon tushunchasi.*
2. *Assotsiativ maydon tarkibi.*
3. *Assotsiativ maydon ko‘lami va tarkibining turlichaligi.*
4. *Xulosa.*

Tayanch tushunchalar: *assotsiativ maydon, funksional-semantik maydon, mazmuniy maydon, assotsiativ maydon tarkibi, yadro va chegara qismlar munosabati, individual assotsiatlar, jamoaviy xarakterdagi assotsiatlar.*

Assotsiativ tilshunoslikning nazariy masalalari. Assotsiativ munosabat tushunchasi. Assotsiativ tilshunoslikda *assotsiativ maydon* tushunchasi tayanch tushunchalardan biri sanaladi. *Assotsiativ maydon* terminini ilmiy muomalaga mashhur frantsuz tilshunosi Sh.Balli kiritgan.

Assotsiativ maydon – struktur jihatdan leksikografik xususiyatga ega bo‘lgan, mohiyatan inson ongida aks etgan muayyan voqelik, uning hamrohlari obrazining verbal ifodasi, u haqdagi tasavvuri, bilimlarini namoyish etuvchi tilning o‘zaro assotsiativ bog‘langan semantik va grammatik munosabatdagi birliklari yig‘indisidir.

Assotsiativ maydon tildagi boshqa maydon ko‘rinishlari, xususan, *funksional-semantik maydon (mazmuniy maydon)*dan farqlanadi.

Manbalarda *funksional-semantik maydon* tushunchasi turlicha talqin etiladi. A.Nurmonov va Sh.Iskandarovalarning ma’lumot berishicha, “I.Trir mazmuniy maydon sifatida “tushunchalar maydoni”, “tushunchalar doirasi”ni nazarda tutadi. L.Vaysgerber “til mazmunining ma’lum qismi”, “tarkibining bo‘lagi”, V.Portsig “ma’nolarning mohiyatan bog‘liqligi”, G.Ipsen mazmuniy va grammatik jihatdan bog‘langan so‘zlar guruhini semantik maydon tarzida talqin etadi. A.Yolles esa uni

“semantik birlashish” deb nomlab, uning doirasida antonimik juftliklarni belgilaydi. F.Dornzayf va V.Vartburglar til leksik tarkibi – ajratilish mumkin bo‘lgan semantik guruhlarida mazmuniy maydonni ko‘radilar”.¹

Funksional-semantik maydon tushunchasiga oydinlik kiritish uchun uni *paradigma* tushunchasidan farqlash lozim. *Maydon* va *paradigma* o‘rtasidagi farqni izohlar ekan, A.Nurmonov bir sathga mansub, gomogen birliklarning bir umumiy belgi asosida xotirada muayyan guruhlariga birlashuvini *paradigma*; turli sathga mansub, geterogen birliklarning bir umumiy belgi asosida xotirada muayyan guruhlariga birlashuvini esa *maydon* hisoblaydi.²

Sh.Iskandarova A.Nurmonovdan farqli tarzda birlashtiruvchi semasiga ko‘ra umumiy bo‘lgan, ammo turli sathlarga mansub birliklar (grammatik va leksik birliklar) yig‘indisini *funksional-semantik maydon* deb nomlagan.³ Biz ham birlashtiruvchi umumiy semasi asosida o‘zaro bog‘langan turli sath birliklari majmuini *funksional-semantik maydon* sifatida talqin etamiz.

Assotsiativ maydon esa bir-biri bilan assotsiativ bog‘langan (bir-birini yodga tushiruvchi) til birliklarining yig‘indisi bo‘lib, bir sathga yoki turli sathga oid birliklar munosabatidan tashkil topadi. Assotsiativ maydonga o‘zaro semantik bog‘langan birliklar bilan birga, semantik jihatdan bog‘lanmagan, til egalarining ruhiyati, dunyoqarashi, qiziqishlari, olam haqidagi bilimlari bilan bog‘liq holda xotirasida tiklangan birliklar ham birlashadi. Bunday birliklar nutqqacha tayyor til birliklari – leksik birliklar, iboralar, matal, maqol, hikmatli so‘zlar, til egalari nutqida barqaror birlik kabi qo‘llanayotgan ayrim so‘z birikmalari va gaplar hamda nutq jarayonida hosil bo‘luvchi nutqiy sintaktik birliklardir. Masalan, *imtihon* leksemasining assotsiativ maydonidan, asosan, quyidagi birliklar o‘rin oladi: *sinov, baho, baholash, ball, reyting, test, oraliq baholash, joriy baholash, “2” baho, “5” baho, domla, pora, hayajonli daqiqalar, imtihondan yiqildim, imtihon kuni, stipendiya* kabilar. Ko‘rinadiki, assotsiativ maydon tarkibidan leksik birliklar bilan

¹ Нурмонов А., Искандарова Ш. Тилшунослик назарияси. – Тошкент: Фан, 2008. –Б. 80-81.

² Нурмонов А. Парадигма ва унинг оламнинг лисоний манзараси (ОЛМ)га муносабати. Танланган асарлар. III жилд. – Тошкент: «Akademnashr», 2012. –Б. 105.

³ Искандарова Ш. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сифатида ўрганиш (шахс микромайdonи): Филол. фан. док. ... дисс. автореф. – Тошкент. 1999. – Б. 43.

birga, sintaktik birliklar ham (“2” baho, “5” baho, hayajonli daqiqalar, imtihondan yiqildim, imtihon kuni kabilar) o‘rin oladi. Ushbu maydonda stimul so‘z bilan semantik jihatdan bog‘langan (*sinov, test, oraliq baholash, joriy baholash* kabilar) birliklar bilan birga, bu leksemaga semantik jihatdan aloqador bo‘lmagan birliklar (*hayajonli daqiqalar, stipendiya, domla, pora* kabilar) ham uchraydi.

Anglashiladiki, assotsiativ maydonda nafaqat tildagi leksik-grammatik bog‘lanishlar, balki inson tasavvuridagi aloqalar ifodasi ham aks etadi. Shu bois tildagi assotsiativ maydon ko‘rinishlarini o‘rganish til va tildan tashqaridagi aloqa-bog‘lanishlarni aniqlashga imkon beradi. Rus olimasi A.A.Zalevskayaning xulosasiga ko‘ra, assotsiativ maydonda aynan so‘zlar o‘rtasidagi aloqa modellari muayyan tildagi leksik bog‘lanishlarga xos xarakterli jihatlarni ko‘rishga imkon beradi, shunga ko‘ra alohida javob reaksiyalarinigina emas, aynan assotsiativ maydonni tahlil qilish lozim, bunda yuqori chastotali javob reaksiyalari bilangina cheklanmay yoki yakka javoblarnigina e‘tiborga olmay barcha ma’lumotlarni inobatga olish lozim, negaki assotsiativ maydondagi qo‘llanish chastotasi past yoki yakka javob reaksiyalari bir yoki shu turdagi aloqa modellarini hosil qilishi, shu bilan birga, madaniylik belgisi jihatidan o‘ziga xos va, ayniqsa, etnomadaniy tadqiqotlar uchun qiziqarli bo‘lishi mumkin.⁴

Assotsiativ maydon tildagi boshqa maydon ko‘rinishlari kabi yadro va chegara qismlaridan tashkil topadi. Maydonning yadro qismidan qo‘llanish chastotasi yuqori bo‘lgan assotsiatlar o‘rin oladi. Bu birliklar assotsiativ-verbal tarmoqda eng ko‘p assotsiativ bog‘lanishlarni hosil qiladi. Shu bois ularning bir vaqtda boshqa assotsiativ maydonlardan ham o‘rin olishi kuzatiladi. Maydon yadrosidan o‘rin oluvchi birliklar til egalarining voqelik haqida universal bilimlarga egaligidan dalolat beradi. N.O.Zolotovanning fikricha, yadro «til egasi tomonidan stimul so‘zga eng ko‘p berilgan javob reaksiyalari yig‘indisi», “yuqori

⁴ Залевская А.А. Психолингвистические исследования. Слово. Текст: Избранные труды. - М.: Гнозис, 2005. - С. 21-22.

darajada assotsiativ kuchga ega bo'lgan chegaralangan miqdordagi birliklar"dir.⁵ Shuningdek, yadro birliklarining inson tomonidan yoshlik davridayoq o'zlashtirilishi, yuqori darajadagi aniqligi, emotsionalligi, obrazlilik, bazaviy darajadagi muloqotning qandaydir kategoriyalariga mansubligi kabi xarakterli jihatlari ham ulardan o'ta mavhum, ko'pma'noli, shu bilan birga, noma'lum so'zlarni bir xillashtirish jarayonida asosiy element sifatida foydalanishda qulayligini ko'rsatadi.⁶ Anglashiladiki, assotsiativ maydon yadrosini belgilashda assotsiatlarning qo'llanish chastotasi eng muhim omil hisoblanadi.

Assotsiativ maydonning chegara qismida assotsiatlar qo'llanish chastotasining kamayishiga qarab joylashadi. Chegaradan o'rin oluvchi assotsiatlarning stimul so'z bilan mantiqiy-semantik aloqasi kuchsizlanib boradi.

Har bir leksik birlikning assotsiativ maydoni ko'lami va tarkibi turlicha bo'ladi. O'z vaqtida Sh.Balli ham turli individlarda assotsiativ maydon ko'lami turlicha bo'lishini qayd etgan edi. A.Nurmonov assotsiativ maydonga xos bu belgi asosida «assotsiativ qatorlar»ning quyidagi ikki jihatini farqlagan: a) tarkibning noaniqligi; b) miqdorning chegarasizligi.⁷

Assotsiatsiyalar ko'lami, xilma-xilligi sinaluvchilar miqdoriga bog'liq. Sinaluvchilar qancha ko'p bo'lsa, assotsiatsiyalar miqdori shuncha ko'p va rang-barang bo'ladi.

V.P.Abramov assotsiativ maydonga xos xususiyatlar asosida uning quyidagi turlarini ajratadi: 1) til egalari xarakteriga ko'ra umumiy va personal; 2) aktuallik jihatidan doimiy (an'anaviy) va vaqtinchalik; 3) struktur jihatdan sodda (elementar) va murakkab; 4) hosil qilinishiga ko'ra tabiiy va sun'iy; 5) qo'llanish doirasiga ko'ra o'ta jo'n va ilmiy; 6) assotsiatsiyalarning motivlashuv darajasiga ko'ra majburiy va erkin assotsiativ maydon.⁸ Anglashiladiki, assotsiativ maydon turli omillar bilan

⁵ Золотова Н.О. Ядро ментального лексикона человека как естественный метаязык: Автореф. дис. ... д-ра филол. наук. – Тверь: 2005. – С. 3.

⁶ Золотова Н.О. Ядро лексикона человека как феномен языкового сознания // Языковое сознание: содержание и функционирование. XIII Международный симпозиум по психолингвистике и теории коммуникации. – М., 2000. – С. 94.

⁷ Нурмонов А. Структур тилшунослик: илдизлари ва йўналишлари («Лингвистика» йўналишидаги магистрлар учун ўқув қўлланма). – Андижон. 2006. – Б. 59.

⁸ Абрамов В.П. Теория ассоциативного поля // Лексикология, фразеология и лексикография русского языка:

bog'liq holda bir necha ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

Assotsiativ maydon tahlilida uning tarkibi masalasi muhim o'rin tutadi. Assotsiativ maydonning asosiy qismini stimul so'z bilan semantik jihatdan bog'langan assotsiatlar tashkil etadi. Ba'zi hollarda assotsiat vazifasida stimul so'zning berilishi ham kuzatiladi. Assotsiatlar stimul so'z bilan grammatik jihatdan bir shaklda, ba'zan har xil shaklda kelishi mumkin. Maydon tarkibida turli sathga mansub assotsiatsiyalar ham kuzatiladi. Masalan, o'tkazilgan assotsiativ tajribalarda *bilim* stimul so'ziga til egalari tomonidan quyidagi assotsiatsiyalarning berilishi aniqlandi: *dars, ilm, kitob, malaka, maktab, kollej, universitet* kabi ot turkumiga oid leksemalar; *o'qish, izlanish, intilish, bilim olish* kabi fe'l turkumiga oid leksemalar; *bilimsiz, bilimli, bilimdon* sifatlari, *bilimi zo'r, chalasavod odam, bilimlar uyi, bilimdonlar jamoasi* so'z birikmalari, "*Kitob – bilim manbai*", "*Bilimi zo'r mingni yutar, bilagi zo'r – birni*", "*Bilimli ming yashar, bilimsiz – bir*" pretsedent jummalari.

Assotsiativ maydonda ba'zan so'zlashuv nutqiga oid assotsiativ birliklar, leksik birlik bilan semantik jihatdan butkul bog'lanmagan yoki nutqiy vaziyat, nutq egasining ruhiy holati kabi tashqi omillar bilan bog'liq holda yuzaga kelgan pragmatik assotsiatlar ham ko'zga tashlanadi. Masalan, o'tkazilgan assotsiativ tajribalarda *hunar* stimul so'ziga berilgan *vaqt o'tkazish* assotsiati, *bo'g'irsoq* leksemasiga berilgan *shajara* assotsiati stimul so'z bilan semantik jihatdan bog'lanmagan assotsiativ birliklar sirasiga kiradi.

Assotsiativ maydon birliklari individual va jamoaviy xarakter kasb etishi mumkin. Har bir inson voqelikni o'z tasavvuri darajasida idrok etadi. Bu holat individual assotsiatlarning shakllanishiga olib keladi. Shuningdek, individual assotsiatlarning shakllanishiga til egalarining kasbi, jamiyat hayotidagi mavqei, jinsi, yoshi, hayotiy tajribasi kabilar ham ta'sir ko'rsatadi.⁹ Individual assotsiatlar yakka shaxsning hayotiy tajribasi asosida shakllangan voqelik haqidagi bilimlari, qarashlari, ruhiyati kabilar haqida ma'lumot beradi. Masalan, *boy* stimul so'ziga

<http://netref.ru/leksikologiya-frazeologiya-i-leksikografiya-russkogo-yazika-te.html>

⁹ Бу ҳақда кенгрок маълумот олиш учун қаранг: Хошимова Н.А. Прагматические аспекты при исследовании ассоциаций // Вестник МГОУ. Серия «Русская филология». 2011. - № 6. – С. 91-93.

berilgan *puli ko‘p, davlatmand, mashinasi bor, hamma narsasi o‘ziga yetarli* assotsiatlari til egasining boy odamlar haqidagi individual qarashlarini ifoda etadi. Yoki *dada* leksemasi uchun berilgan *Afandi* javob reaksiyasi muayyan shaxsning xarakter-xususiyatiga nisbatan hosil qilingan individual assotsiat hisoblanadi. O‘xshatishga asoslangan bu assotsiatsiya bir vaqtda o‘zbek xalqi xotirasida milliy badiiy obraz sifatida jonlanuvchi xalq og‘zaki ijodi qahramonini ham gavdalandiradi.

Jamoaviy xarakterdagi assotsiatlar voqelikning ko‘pchilik tomonidan bir xil idrok etilishi asosida hosil bo‘ladi. Bunday assotsiatlar ko‘pincha inson hayoti bilan bog‘liq eng muhim tushunchalarni ifoda etadi. Masalan, *bitiruvchi* stimul so‘ziga berilgan *maktab, kollej, litsey, so‘nggi qo‘ng‘iroq, ustozlar, sinfdoshlarim, diplom, attestat* assotsiatlari har bir inson hayotida unutilmas davr sifatida iz qoldiradigan o‘quvchilik yoki talabalik davri voqeliklarini yodga soluvchi jamoaviy xarakterdagi assotsiatlardir. Muayyan tilning me‘yoriy assotsiativ lug‘ati uchun mana shunday jamoaviy xarakterdagi assotsiativ birliklar asos qilib olinadi.

Shunisi xarakterliki, assotsiativ birliklar individual yoki jamoaviy tusda bo‘lmasin, til egalarining tafakkuri mahsuli sanaladi.

Assotsiativ maydon stimul so‘z vazifasidagi leksik birlikning ma‘no xususiyatlarini o‘rganishda muhim o‘rin tutadi. Assotsiativ maydon stimul so‘zning lug‘aviy ma‘nosi, lug‘atlarda aks etmagan ayrim konnotativ, uslubiy, pragmatik, dialektal ma‘nolari, nutqiy qo‘llanishdagi xususiyatlari, ko‘chma ma‘nolarini aniqlashga imkon beradi. Bu jihatdan assotsiativ maydonni leksik birlikning nafaqat assotsiativ strukturasi, balki turli ma‘no xususiyatlarini aniqlashga imkon beruvchi manba sifatida baholash mumkin.

Xullas, assotsiativ maydon bir-biri bilan assotsiativ bog‘langan til birliklari yig‘indisi sifatida muhim ma‘lumotlar bazasi hisoblanadi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Assotsiativ munosabat tushunchasini izohlang.
2. Paradigmatik munosabat tushunchasini izohlang.
3. Sintagmatik munosabat tushunchasini izohlang.

4. Tilshunoslikda ba‘zan assotsiativ munosabat va paradigmatic munosabat terminlarining muqobil holatda qo‘llanishi haqida nimalar deya olasiz?
5. A.Zalevskayaning fikricha, assotsiativ ma‘no tushunchasi ostida nimani nazarda tutadi?
6. Nima uchun verbal assotsiatsiyalar tahlilida assotsiativ ma‘no tushunchasi bilan bir qatorda assotsiatsiyalar ko‘lami, assotsiatsiyalarda milliy-madaniylik, ijtimoiylik, gender belgi kabi tushunchalar ham muhim o‘rin tutadi?
7. Stimul so‘z tushunchasini izohlang.
8. Nima uchun tilshunoslar tilda verbal assotsiatsiyalarning hosil bo‘lishini turli omillar bilan bog‘lashadi?
9. YE.I.Goroshko, L.E.Kuznetsovalarning fikricha, assotsiatsiyalarning hosil bo‘lishiga qanday omillar ta’sir etadi?
10. “Xullas, tildagi verbal assotsiatsiyalar asosida insonning tashqi olam haqidagi psixologik tasavvuri yotadi” jumlasini izohlang.
11. Ba’zi nutqiy tuzilmalarning shakllanishida sintaktik assotsiatsiyalar (so‘z birikmasi va gaplar) tayyor qurilish material sifatida qatnashishiga misollar keltiring.
12. A.A.Martinovich so‘z-assotsiatlar ifoda etgan mazmunli munosabat asosida verbal assotsiatsiyalarning qanday tiplarini ajratadi?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Lutfullaeva D.E. Assotsiativ tilshunoslik nazariyasi. Toshkent: Meriyus, 2017. – B. 140.
2. Xudoyberganova D. O‘zbek tilidagi badiiy matnlarning antropotsentrik talqini: Filol. fan. d-ri ... dis. – Toshkent: O‘zR FA TAI, 2015. – B. 33.
3. Lutfullayeva D.E. O‘zbek tilining assotsiativ lug‘ati (milliy-madaniy birliklar). -Toshkent: “NAVOIY UNIVERSITETI” nashriyot-natbaa uyi. 2019.
4. Лутфуллаева Д.Э., Солиева Ф. Ўзбек тилида лексик ассоциацияларнинг ҳосил бўлиши. Ўзбек тили ва адабиёти. 2016. №.3. - Б.35-41

5. Lutfullayeva D.E., Kurbanova M.A. Associative Approach to a Language and the Problem of Associative Relation of Words in Uzbek. *Anglisticum Journal* Volume: 5 Issue: 7, July, 2016. (Македония). P.61-66.
6. Lutfullayeva D.E. The role of associative experimental method in the study of human linguistic memory. *Современные проблемы тюркологии: язык-литература -культура // Международная научно-практическая конференция. – Москва. 2016. С.452-458.*
7. Комалова Л.Р. Ассоциативный эксперимент: теоретические и прикладные перспективы психолингвистики: монография / Пищальникова В.А., Карданова-Бирюкова К.С., Панарина Н.С., Степыкин Н.С., Хлопова А.И., Шевченко С.Н. Под ред. Ищальниковой в.а. - М.: Р-валент, 2019. - 200 С.
8. Гридина Т.А. Ассоциативный потенциал слова как основа лингвистической креативности: экспериментальные данные / Вопросы психолингвистики. –М., 2015. 148-157 –С.
9. Лутфуллаева Д.Э.Ассоциатив луғатлар ҳақида. Ўзбек тили ва адабиёти. 2017. №. 2. -Б.30-36.
8. Лутфуллаева Д.Э. Тилни ўрганишга ассоциатив ёндашув. Тил ва адабиёт таълими. 2017. №6. -Б.15-17.
10. Deese J. The structure of associations in language and thought. Johns Hopkins Press. 1965. – P. 216.
11. Белянин В.П. Психолингвистика. Учебник. – М.: Флинта, 2003. – С.131;
12. Береснева Н.И. Модель внутреннего лексикона в позднем онтогенезе (ассоциативный эксперимент): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Пермь, 1997. – 24 с.
13. Волков В.В. Введение в психолингвистику: Пособие по спецкурсу. – Ужгород, 1994. – 202 с.;
14. Воробьев В.В. Лингвокультурология (теория и методы). – М.: Изд-во Российского университета Дружбы народов, 1997. – 332 с.;

3-MAVZU.

TILDA VERBAL ASSOTSIATSIYALARNING HOSIL BO'LISHI,
LINGVISTIK MOHIYATI.

REJA:

1. *Tilshunoslikda verbal assotsiatsiyalar tasnifi.*
2. *Leksik assotsiatsiyalarning lingvistik omillar asosida hosil bo'lishiga ko'ra tasnifi.*
3. *Leksik assotsiatsiyalarning ekstralingvistik omillar asosida hosil bo'lishiga ko'ra tasnifi.*

Tayanch tushunchalar: verbal assotsiatsiyalar tasnifi, stimul so'z, assotsiat, sintagmatik munosabat, paradigmatic munosabat, tematik, derivatsion, fonetik assotsiatsiyalar, leksik assotsiatsiyalar, leksemalar semantikasi, dialektal, uslubiy, pragmatik belgisiga asoslangan assotsiatsiya, leksemalarning yasalihi, talaffuzda hamohangligi, milliy-madaniy, ijtimoiy hamda gender xususiyatlariga asoslangan assotsiatsiya, makon va zamondagi aloqadorlikka asoslangan assotsiatsiya; predmet va uning belgisi, tovush va uning egasi munosabatiga asoslangan assotsiatsiya; insonning voqelikka munosabati, istak-xohishiga asoslangan assotsiatsiya; faoliyat va uning obyekti, faoliyat egasi va uning mahsuloti aloqadorligiga asoslangan assotsiatsiya; o'xshashlikka asoslangan assotsiatsiya; egalik, tegishlilik, mansublik belgisiga asoslangan assotsiatsiya; sabab-natija munosabatiga asoslangan assotsiatsiya; hayotiy zaruriyat belgisiga asoslangan assotsiatsiya.

Tilshunoslikda verbal assotsiatsiyalar tasnifi. Verbal assotsiatsiyalar tasnifi. O'zbek tilida verbal assotsiatsiyalar tasnifi. Verbal assotsiatsiyalar tahlilida ularning tasnifi muammosi muhim o'rin tutadi. Shu kunga qadar tilshunoslikda assotsiatsiyalar tasnifi masalasida turli qarashlar shakllangan. Ayrim tilshunolar assotsiatsiyalarni stimul so'z va assotsiat o'rtasidagi munosabat turi (sintagmatik

yoki paradigmatic munosabat) asosida tasniflashsa, ba'zilar stimul so'z va assotsiat o'rtasidagi aloqa mundariyasi yoki assotsiatlar asosidagi tasnifni ma'qul ko'rishadi.

G'arb tilshunosligida J.Miller tomonidan tavsiya etilgan tasnif keyinchalik fanda verbal assotsiatsiyalarni o'rganishda muhim o'rin tutdi. J.Miller tomonidan tavsiya etilgan verbal assotsiatsiyalar tasnifida assotsiativ juftliklar o'rtasida quyidagi munosabatlar aks etishi ko'rsatilgan: kontrast, o'xshashlik, tobelik, birgalikdagi tobelilik, umumlashtirish, assonans, butun-qism, to'ldirish, egotsentrizm, bir asosli so'zlar, predikatsiya. Ko'rinadiki, J.Millerning ushbu tasnifida asosiy e'tibor stimul so'z → javob reaksiyasi munosabatiga qaratilgan, tasnifda stimul so'zning ma'no komponentlari va uning javob reaksiyalariga munosabati masalasi e'tiborga olinmagan.

Verbal assotsiatsiyalarning N.V.Krushevskiy tomonidan tavsiya etilgan tasnifini rus tilshunosligidagi dastlabki urinishlardan biri sifatida baholash mumkin. U assotsiatsiyalarning hosil bo'lishi tomoniga e'tiborini qaratdi va shu asosda ularni quyidagi turlarga ajratdi: 1) bevosita hosil bo'luvchi assotsiatsiyalar; 2) bilvosita hosil bo'luvchi assotsiatsiyalar.

Olimning qayd etishicha, "har qanday so'z o'xshashlik belgisiga ko'ra boshqa so'zlar bilan bog'liq bo'ladi, bu o'xshashlik nafaqat tashqi, tovush tomondan yoki struktur, morfologik jihatdan, balki ichki, semasiologik jihatga ko'ra hamdir, har qanday so'z psixologik qonuniyatlar natijasida qalbimizda o'ziga o'xshash bo'lgan boshqa so'zlarni qo'zg'atishga va ular bilan birgalikda qo'zg'alishga qodir bo'ladi. So'zlarning bir-birini yodga solishining yana bir turi yondoshlikka ko'ra assotsiatsiya qonuniyatiga asoslanadi: bunda muayyan so'zni ko'pincha boshqa bir so'z bilan birga ishlatishga odat qilinadi".¹⁰

N.V.Krushevskiy bilvosita hosil bo'luvchi assotsiatsiyalarni narsalar haqidagi tasavvurlarning o'zaro aloqasi orqali reallashadi deb hisoblaydi. U bu haqda quyidagilarni yozadi: «... So'z narsa belgisidir. Narsa va uni ifoda etuvchi so'z haqidagi tasavvur assotsiatsiya qonuni asosida bir-biri bilan ajralmas juftlikka birlashadi. Bunday assotsiatsiya yondoshlikka ko'radir. Har bir tilda ko'p

¹⁰ Крушевский Н.В. Очерк науки о языке. – Казань, 1883. – С.65.

bo'lmagan taqlidiy so'zlar guruhigina o'ziga muvofiq bo'lgan narsalar bilan o'xshashlik asosida assotsiativ bog'lanadi, masalan, shushukat va h.k... Agar narsa haqidagi tasavvur uni ifoda etuvchi so'z haqidagi tasavvur bilan ajralmas bo'lsa, bundan qanday xulosa kelib chiqadi? Demak, so'zlar ham ular ifoda etgan narsalar kabi o'sha guruhlariga tasniflanishi kerak».¹¹

Verbal assotsiatsiyalarning rus psixologi, neyropsixologiya asoschisi A.R.Luriya tomonidan ilgari surilgan tasnifi ham muhim ahamiyatga ega. Uning tasnifida bolalarga xos verbal assotsiatsiyalarning turlari aks etgan. A.R.Luriya bolalarda hosil bo'lgan assotsiativ reaksiyalarning quyidagi turlarini ajratgan:

- 1) stimul so'zga mos bo'lmagan javob reaksiyalari (neadekvatniye reaksii), bunda stimul so'z va javob reaksiyalari o'rtasida semantik aloqa kuzatilmaydi;
- 2) stimul so'zga mos javob reaksiyalari, bunda stimul so'z va javob reaksiyalari o'rtasida semantik aloqa mavjud bo'ladi;
- 3) asl assotsiativ reaksiyalar, bunda stimul so'z va u orqali hosil bo'lgan obraz o'rtasida ma'noviy aloqa aks etadi.¹²

E.I.Goroshkoning qayd etishicha, A.R.Luriya tomonidan tavsiya etilgan ushbu tasnifning muhim jihati shundaki, uning asosida stimul so'z – javob reaksiyasi – aloqa assotsiativ tizimini o'rganish yotadi, bu tasnif tamoyillari asosida o'tgan asrning 90-yillarida ontogenetik materiallarni hamda kattalarda o'tkazilgan erkin assotsiativ tajriba materiallarini o'rganish jarayonida qator verbal assotsiatsiyalar tasnifi yuzaga keldi.¹³

M.M.Pokrovskiy ham verbal assotsiatsiyalarni turlarga ajratishda stimul so'z va assotsiat o'rtasidagi munosabatga asoslanadi. U so'zlarning ma'no jihatdan aloqadorligi, o'xshashligi, kontrastlik (to'g'ridan-to'g'ri zidlanish) belgisi asosida hamda so'zlarning shakliy jihatdan o'xshashligi asosida assotsiatsiyalarni turlarga ajratgan.

¹¹ Крушевский Н.В. Шу асар. – Б.67.

¹² Лурия А.Р. Речевые реакции ребенка // Речь и интеллект в развитии ребенка. – М., 1927а.

¹³ Горошко Е.И. Описание механизмов ассоциирования и проблема классификации реакции // Интегративная модель свободного ассоциативного эксперимента // www.textologu.ru

A.P.Klimenko ham stimul soʻz va javob reaksiyalari oʻrtasidagi assotsiativ munosabat asosida verbal assotsiatsiyalarni tasniflaydi. U bu belgi asosida fonetik assotsiatsiya, soʻz yasalihi belgisiga asoslangan assotsiatsiya, paradigmatic, sintagmatik va tematik assotsiatsiyalarni ajratgan.

Psixolingvistikada verbal assotsiatsiyalarni stimul soʻz va assotsiat oʻrtasidagi munosabat asosida tasniflashga keyingi yillarda ham eʼtibor qaratildi. Jumladan, L.E.Kuznetsova LYUBOV konsepti bilan bogʻliq assotsiatsiyalarni stimul soʻz va assotsiat oʻrtasidagi munosabat xarakteriga koʻra paradigmatic va sintagmatik turlarga boʻlib oʻrgangan. Uning fikricha, birinchi tip assotsiatsiyalar bu konseptning inson ongidagi paradigmatic qatorlarini aniqlashga yordam beradi, ikkinchi tipdagi assotsiatsiyalar esa leksik birliklarning oʻzaro bogʻlanishi, stimul soʻz, soʻz birikmalarining kontekstdagi xususiyatlari haqida maʼlumot beradi.

Assotsiatsiyalarning bu tarzidagi tasnifi keng tarqalgan boʻlsa-da, ayrim tilshunoslar ushbu tasnifning har doim ham oʻzini oqlayvermasligi haqida fikr bildirishadi. Jumladan, rus tilidagi beliy – bumaga tipidagi assotsiatsiyalarda stimul soʻz va assotsiatning grammatik shakli bir-biriga muvofiq kelmasligi, stimul soʻz va assotsiat munosabatida yordamchi soʻzlarning tushirib qoldirilishi sintagmatik munosabat talablariga javob bermasligi koʻrsatiladi. Ayrim tilshunoslar, xususan, A.P.Klimenko va I.G.Ovchinnikova bu tipdagi assotsiatsiyalarni alohida turga kiritishni tavsiya etishadi.

A.A.Martinovich grammatik shakli bir-biriga muvofiq kelmaydigan bu turdagi assotsiatsiyalarning uchinchi tur assotsiatsiyalar sifatida ajratilishini maʼqullamaydi. U A.A.Leontev tomonidan ajratilgan grammatik shakli bir-biriga nomutanosib assotsiatsiyalar haqida fikr yuritarkan, tasnifda paradigmatic va sintagmatik javob reaksiyalarining farqlanishida ingliz tili assotsiativ meyorlaridan kelib chiqilgani, unda faqat grammatik sinflarga ajratish gʻoyasiga asoslanganligi, A.A.Leontev grammatik jihatdan toʻgʻri soʻz birikmalarini tuzish zarurligi haqida fikr yuritmaganligini eslatadi. Shu sababli znamya – krasniy, znamya – krasnoe assotsiativ juftliklarini ham sintagmatik reaksiyalar hisoblash lozimligi, agar toʻgʻri soʻz birikmalarining hosil boʻlish-boʻlmasligi formal mezonidan kelib chiqilsa,

krasniy – znamy assotsiativ juftligi – tematik, krasnoe – znamy juftligi – sintagmatik, bilet – v kino juftligi sintagmatik (bilet v kino), bilet – kino juftligi esa paradigmatic (bir xil so'z turkumi) reaksiyalar hisoblanishini, bunday holatda aynan uchinchi tip javob reaksiyalarining eng noaniq tip ekanini qayd etadi.¹⁴

Leksik assotsiatsiyalarning lingvistik omillar asosida hosil bo'lishiga ko'ra tasnifi. A.A.Martinovichning fikricha, verbal assotsiatsiyalarning qayd etilgan barcha turlari quyidagi umumiy ikki tipdagi assotsiatsiyalarning xususiy ko'rinishlari sifatida qaralishi mumkin: 1) yondoshlikka ko'ra assotsiatsiya (zamon va makondagi yondoshlik); 2) shakliy, funksional va mazmuniy jihatlarni hisobga olgan holda yuzaga keluvchi o'xshashlikka ko'ra assotsiatsiya.

A.A.Martinovich so'z-assotsiatlar ifoda etgan mazmuniy munosabat asosida verbal assotsiatsiyalarning quyidagi tiplarini ajratadi:

1. Yondoshlik asosidagi assotsiatsiya. Bu shunday so'zlar juftligiki, ular ma'no ifodasiga ko'ra umumiy xarakterli belgiga ega bo'lmaydi (babushka – blini). Bu turga tematik assotsiatsiyalar deb nomlangan deyarli barcha assotsiatsiyalar kiradi.

2. O'xshashlik asosidagi assotsiatsiya. A.A.Martinovich o'xshashlik asosidagi verbal assotsiatsiyalarni ikkiga ajratadi:

A. Sintagmatik xarakterdagi assotsiatsiyalar. Bu shunday so'zlar juftligiki, a'zolaridan birining ma'no ifodasi (protsessual yoki protsessual bo'lmagan ma'no) ikkinchi a'zo ma'nosi tarkibiga uning ma'no xususiyatlaridan biri sifatida kiradi (babushka – staraya, babushka – vyajet). Mazkur assotsiativ juftliklar o'zaro uyg'un turli turkumlaridagi so'zlardan tashkil topadi. Shuningdek, bu tipga moslashmagan aniqlovchili so'z birikmalari tarzidagi assotsiatsiyalar ham kiradi (babushka – v platke).

B. Paradigmatik xarakterdagi assotsiatsiyalar. Bu so'zlar juftligi ma'no ifodalariga ko'ra minimum tarzda bir umumiy xarakterli belgiga ega bo'ladi. Bu

¹⁴ Мартинович Г.А. Вербальные ассоциации в ассоциативном эксперименте. СПб., 1997. [http://davaiknam.ru/text/g-a-martinovich-verbalenie-associacii -v-associativnom-ekspe-rim -page-5](http://davaiknam.ru/text/g-a-martinovich-verbalenie-associacii-v-associativnom-ekspe-rim -page-5).

tip assotsiatsiyalar rang-barang, ularga turli leksik-semantik, tematik va boshqa maydon, guruh a'zolari bilan munosabatdagi assotsiativ juftliklar kiradi (babushka – dedushka, babushka – starushka, beliy – cherniy, beliy – svet, bejat – idti, golova – churban, xleb – pisha kabilar).¹⁵

A.A.Martinovich boshqa bir ishida o'xshashlik asosidagi verbal assotsiatsiyalarni o'xshash ma'nolarining bir-biriga nisbatan turlicha munosabati asosida ikki ichki tipini ajratgan: a) determinatsion (epitetlar tipidagi) assotsiatsiyalar; b) klassifikatsion (metaforik tipdagi) assotsiatsiyalar. U fonetik (noch – doch) va grammatik (stol – stola) assotsiatsiyalarni shakliy o'xshashlik asosidagi assotsiatsiyalar qatoriga kiritadi. Uning fikricha, ham mazmuniy, ham shakliy jihatdan umumiy elementlarga ega bo'lgan so'z yasalishiga asoslangan assotsiativ juftliklar (zapisat – zapis) o'xshashlikka ko'ra mazmuniy va shakliy assotsiatsiyalarning oraliq tipini hosil qiladi.¹⁶

Ma'lum bo'ladiki, tilshunoslar verbal assotsiatsiyalar tasnifida yakdil fikrda emaslar. Shunga qaramay, psixolingvistik tadqiqotlarda asosiy hollarda stimul so'z va assotsiat o'rtasidagi munosabat turi asosidagi tasnif ma'qullanadi. Bunday tasnifda assotsiatsiyalarning ko'pincha quyidagi turlari farqlanadi:

1. Paradigmatik assotsiatsiyalar. Bunday assotsiatsiyalar stimul so'zning paradigmatic qatorlari asosida aniqlanadi. Paradigma a'zolari ko'pincha sinonimik, antonimik, gipo-giperonimik munosabat asosida belgilanadi.

2. Sintagmatik assotsiatsiyalar. Bu turdagi assotsiatsiyalar stimul so'z va assotsiat o'rtasidagi sintagmatik munosabat asosida belgilanadi.

3. Tematik assotsiatsiyalar. Bunday assotsiatsiyalar stimul so'z anglatgan predmetlik tushunchasi asosida belgilanadi.

4. Derivatsion assotsiatsiyalar. Bunday assotsiatsiyalar stimul so'z negizida hosil qilingan assotsiatlar asosida belgilanadi.

¹⁵ Мартинович Г.А. [Типы вербальных связей и отношений в ассоциативном поле // Вопросы психологии. 1990. – № 2. – С. 143-146.](#)

¹⁶ Мартинович Г.А. [Вербальные ассоциации в ассоциативном эксперименте. СПб., 1997.
http://davaiknam.ru/text/g-a-martinovich-verbalenie - associacii-v-associativnom-ekspe-rim -page-5.](#)

5. Fonetik assotsiatsiyalar. Bunday assotsiatsiyalar stimul so'z va assotsiatlarning fonetik jihatdan yaqinligi asosida belgilanadi.¹⁷

Tilshunoslikda assotsiatsiyalarning stimul so'z va assotsiat o'rtasidagi aloqa mundariyasi asosida ham tasniflanishini kuzatish mumkin. N.I.Beresneva bu tasnif asosida assotsiatsiyalarni quyidagi turlarga ajratadi:

1. Stimulning semantik kengayishini aks ettiruvchi semantik kengaytiruvchi javob reaksiyalari: *tyulpan – svetok, voda – mokraya*.

2. Informantning stimul so'zga munosabatini aks ettiruvchi emotsional-baho ifodalovchi konnotatsiyali javob reaksiyalari: *mama – dorogaya*.

3. Predmet bilan bog'liq muhim harakat, holatni ifodalovchi tipik vaziyatlarning funksiyalashuvini aks ettiruvchi javob reaksiyalari.

4. Informantning o'z xalqi madaniyatiga tegishligini aks ettiruvchi milliy-madaniy konnotatsiyalar bilan bog'liq javob reaksiyalari: *beliy – gvardiya, polojit – na sberknijku, slovo – o polku Igoreve*.

J.Jambayeva verbal assotsiatsiyalar bo'yicha tadqiqotchilar tomonidan amalga oshirilgan tasniflarni quyidagi turlarga umumlashtiradi:

1. Formal reaksiyalar. Olima ularni semantik asoslanmagan yoki tovush asosidagi reaksiyalar tarzida nomlash ham mumkinligini qayd etgan. Bunday javob reaksiyalarini hosil qilishda informant so'zning ma'nosini tushunmagan holda faqat shakliy tuzilishiga asoslanadi. Bunday yondashuvda sinaluvchi ruhiyatida so'zning tovush-harf zanjiri yoki talaffuz tomonini o'zida jamlagan pertseptiv xususiyatlar aktuallashtadi. «Semantik faraz»ning mavjud emasligi, formal-tovush tomondan o'xshash bo'lgan boshqa so'zning qidirilishi quyidagi kabi reaksiyalarning hosil qilinishiga olib keladi: *zayats – yaysa, kartina – tina, kniga – noga, ryabina – ryab*.

2. Formal-semantik yoki derivatsion reaksiyalar. Bu javob reaksiyalari informantning so'z ma'nosini anglashda morfema (so'zning leksik ma'no tashuvchi asos qismi yoki grammatik ma'no ifoda etuvchi affiks)ga asoslanishi

¹⁷ Волков В.В. Введение в психолингвистику: Пособие по спецкурсу. – Ужгород, 1994. – 202 с.; Воробьев В.В. Лингвокультурология (теория и методы). – М.: Изд-во Российского университета Дружбы народов, 1997. – 332 с

natijasida hosil bo'ladi. Morfema asosiga tayanish orqali quyidagi reaksiyalar hosil bo'ladi: zvonok – zvonit, kolso – kolechko, bolnoy – bolit, bol; affiks morfemaga tayanish asosida quyidagi kabi reaksiyalar hosil bo'ladi: igrushka – pogremushka.

3. Semantik yoki semantik asoslangan reaksiyalar. Olimaning fikricha, bunday javob reaksiyalari so'zning ifoda etgan ma'nosiga bevosita murojaat qilinishi natijasida hosil bo'ladi va ular til lug'at tarkibining tub qatlamlariga yo'l ochadi.

So'nggi yillarda tilshunoslikda assotsiativ modellarni belgilash va tasniflash masalasiga ham e'tibor qaratilmoqda. M.V.Ermolova nemis tilidagi taqiq bildiruvchi maqol va matallarda qo'llangan assotsiativ juftliklarning quyidagi semantik modellari (freymalar)ni belgilaydi:

“1- model: yondoshlikka ko'ra assotsiatsiya, sabab – subyektga zarar yetkazish.

2- model: o'xshashlikka ko'ra (1) yoki qarama-qarshilikka ko'ra assotsiatsiya (2), sabab – subyektga zarar yetkazish.

3- model: yondoshlikka ko'ra assotsiatsiya, sabab – belgilangan tartibning buzilishi.

4- model: yondoshlikka ko'ra assotsiatsiya, sabab – muayyan sharoitlarga e'tiborsizlik.”

Albatta, verbal assotsiatsiyalar tahliliga bu tarzda yondashuv assotsiativ munosabatdagi juftliklarning matnni tashkil etishdagi vazifasini aniqlashga yordam beradi.

Ma'lum bo'ladiki, tilshunoslikda verbal assotsiatsiya-larning turli tiplari farqlansa-da, hanuzgacha assotsiatsiyalarni aniqlash va tasniflashning yagona tamoyili ishlab chiqilmagan. Assotsiatsiyalar tasnifi masalasiga munosabat bildirgan ukrain olimasi Y.I.Goroshkoning fikricha, tilshunoslikda “assotsiativ materiallarning sifat jihatdan tahlili hanuzgacha to'liq yechim topgan emas, assotsiatsiyalarning bir-biriga zid kelmaydigan tamoyilga asoslangan qandaydir har jihatdan mukammal tasnifini tuzish mumkin emas va tuzish kerak ham emas... Assotsiatsiyalar tasnifi muammosi ayrim asoslarga ko'ra bir-biriga zid

kelaydigan assotsiativ aloqalar mohiyatini aniqlash muammosi bilan bevosita bog'liq. Erkin assotsiativ tajriba o'tkazish jarayonida aktuallashtirilgan assotsiatsiyalarni qat'iy tarzda lingvistik, mantiqiy, psixolingvistik yoki falsafiy kategoriyalar orqali tavsiflash mumkin emas".¹⁸

Bizningcha, verbal assotsiatsiyalarni hosil bo'lishi nuqtai nazaridan tasniflab o'rganish mavjud tasniflardagi har xillikka barham beradi. Verbal assotsiatsiyalar, xususan, leksik assotsiatsiyalarni hosil bo'lishi nuqtai nazaridan lingvistik va ekstralingvistik omillar bilan bog'liq holda o'rgani mumkin. O'tkazilgan ssotsiativ tajriba natijalari asosida o'zbek tilida leksik assotsiatsiyalarning quyidagi lingvistik omillar bilan bog'liq holda hosil bo'lishi aniqlandi:

1. Leksemalarning semantik jihatdan o'zaro bog'liqligi.
2. Leksemalarning leksik-grammatik belgisiga ko'ra aloqasi.
3. Leksemalarning uslubiy belgisiga ko'ra aloqasi.
4. Leksemalar pragmatik belgisining mushtarakligi.
5. Leksemalarning yasallishidagi umumiylik.
6. Leksemalarning talaffuzda hamohangligi.
7. Leksemalarning dialektal belgisiga ko'ra bog'liqligi.
8. Leksemalar milliy-madaniy belgisining mushtarakligi.
9. Leksemalarning ijtimoiylik belgisiga ko'ra yaqinligi.
10. Leksemalarning gender belgisiga ko'ra aloqasi.

Leksik assotsiatsiyalarning ekstralingvistik omillar asosida hosil bo'lishiga ko'ra tasnifi. Qayd etilgan lingvistik omillar bilan bog'liq holda hosil bo'ladigan assotsiatsiyalarni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. **Leksemalar semantikasiga asoslangan assotsiatsiya.** Tildagi leksik birliklar inson xotirasida nafaqat shakliy ifodasi – moddiy qobig'i, grammatik shakli; semantik, uslubiy-funksional, pragmatik, akustik kabi til egasi tomonidan idrok etilgan barcha belgilari bilan birga yaxlit holda muhrlanadi. Mazkur

¹⁸ Горошко Е.И. Языковое сознание (ассоциативная парадигма): Дисс. ... д-ра филол. наук. – М., 2001. – С. 352-353.

belgilardan semantik mohiyat ustuvor bo'lganda ma'nodagi yaqinlik, aloqadorlik, zidlik kabilarga ko'ra o'zaro munosabatda bo'lgan assotsiativ birliklar hosil bo'ladi. Professor A.Nurmonovning fikricha, "... assotsiatsiya ham mazmun, ham shakl asosida yoki faqat shakl yo faqat mazmun asosida yuzaga kelishi mumkin." D.Xudoyberganova assotsiatsiyalarning hosil bo'lishini so'z ma'nosi va so'zga xos xususiyatlar bilan bog'laydi. Uning fikricha, "inson o'z xotirasida so'zlarning ma'nolari bilan birga ularning obyektiv olamda o'z sezgi a'zolari orqali his etgan xususiyatlari haqidagi ma'lumotlarni ham saqlaydi. Shu sababli muayyan so'z uni eshituvchi odam xotirasida muayyan assotsiatsiyalarni paydo qiladi."

Tilda leksemalarning semantik belgisiga ko'ra o'zaro aloqasi rang-barang assotsiatsiyalarning hosil bo'lishiga olib keladi. Jumladan, sinonimik munosabatdagi leksik birliklarning o'zaro semantik aloqasi inson xotirasida ularning bir-birini yodga solishi va assotsiativ bog'lanishiga sabab bo'ladi. Masalan, o'qituvchi – muallim, chiroyli – go'zal, aqlli – dono assotsiativ juftliklari sinonimik munosabat asosida hosil bo'ladi.

Antonimik munosabatdagi leksik birliklarning assotsiativ bog'lanishi ham semantik aloqadorlikka asoslanadi. Ma'lumki, har qanday ziddiyat bir-biriga qarshilantirilgan zid a'zolari taqozo etadi. Zid a'zolarining qarshilantirilish orqali o'zaro bog'lanishi ularning til egasi xotirasida bir-birini yodga solib turishiga sabab bo'ladi. Bu holat semantik jihatdan o'zaro zidlanuvchi leksemalarning ham tilda leksik assotsiatsiyalarni hosil qilishini anglatadi. Masalan, olis leksemasi yaqin leksemasi bilan, achchiq leksemasi shirin leksemasi bilan antonimik munosabati asosida assotsiativ bog'lanadi.

Antonimlar mohiyatini assotsiativ tajribalar asosida o'rgangan tilshunos J.Dizning qayd etishicha, zidlanishdagi a'zolar bir-biriga shu qadar kuchli bog'langanki, agar insonga antonimik juftlikning bir a'zosini aytib, undan javob tariqasida boshqa so'zni aytish so'ralsa, u hech ikkilanmay antonim bilan javob beradi.

Antonimik va enantioseмик birliklar farqini izohlar ekan, Y.Odilov antonimik birliklar assotsiatsiyasi haqida quyidagilarni yozadi: «Antonimiyada zid a'zoldan

birining voqelanishi assotsiativ tarzda ikkinchisini namoyon etadi, ya'ni yaxshi deyilishi bilan tasavvurimizda *yomon* tushunchasi aks etadi, enantiosemiyada esa unday emas. Enantiosemik birliklar kishi til xotirasida tayyor holda mavjud bo'lsa-da, ularning kontekst bilan bog'liqligi tufayli bir ma'no assotsiativ tarzda ikkinchi ma'noni yodga tushirmaydi». ¹⁹ Nazarimizda, bu xulosa har doim ham o'zini oqlayvermaydi. Enantiosemik birliklar kontekstual qo'llanish natijasi bo'lsa-da, inson xotirasida bir-biriga zid ma'nolari bilan o'rin olsa, bir ma'no ikkinchi ma'noni assotsiativ tarzda yodga solib turaveradi. Masalan, ma'raka leksemasi orqali xotirada *motam marosimi* bilan birga *to'y leksemasi ham tiklanadi*. *Qarz bermoq* leksemasining bir vaqtda qarzini qaytarmoq va *qarz olmoq enantiosemik ma'nolari* yodga tushadi. Yoki kir leksemasi orqali inson xotirasida iflos kiyim bilan birga yuvilgan kiyim birligi ham jonlanadi. Ko'rinadiki, tahlil etilgan enantiosemik birliklarda bir ma'no assotsiativ tarzda ikkinchi ma'noni xotirada tiklaydi.

Shunisi xarakterliki, leksik birliklar ma'nosida yuz bergan o'zgarishlar semantik assotsiatsiyada ham o'z ifodasini topadi. Masalan, o'zbek tilida osh leksemasining dastlab *ovqat* assotsiatsiyasi kuchli pozitsiyada bo'lgan bo'lsa, keyinchalik bu leksik birlikda ma'no torayishi yuz berishi natijasida palov assotsiatsiyasi kuchli pozitsiyani egallagan. Bu haqda fikr yuritir ekan, M.M.Pokrovskiy o'xshashlik yoki bir-biriga zid ma'noda bo'lgan so'zlar bir-birini assotsiativ tarzda yodga solishi, shu sababli ular o'xshash tarzda yoki parallel ravishda o'zgarishga uchrashini qayd etadi. ²⁰ Anglashiladiki, leksik birliklar semantik strukturasidagi aloqadorlik nafaqat verbal assotsiatsiyalarning hosil bo'lishi, hatto ularning o'zgarishga uchrashining ham omillaridan biridir.

O'zbek tilida semantik aloqadorlikka asoslangan leksik assotsiatsiyalarning

¹⁹ Одилов Ё. Ўзбек тилида энантиосемия // Н.Маҳмудов, Ё.Одилов. Сўз маъно тараққиётида зиддият. – Тошкент: Akademnashr, 2014. 48-49.

²⁰ Покровский М.М. Избранные работы по языкознанию. – М., 1959. – С.21

yana bir ko'rinishi uyadosh leksemalar orqali hosil bo'ladi. Bir mavzu doirasidagi uyadosh leksemalar semantik jihatdan yaqin tushunchalarni anglatgani bois inson xotirasida bir-biri bilan assotsiativ bog'lanadi. Masalan, *qalpoq* leksemasi *do'ppi* leksemasi bilan, *botinka* leksemasi *tufli* leksemasi bilan assotsiativ munosabatga kirishadi.

O'zbek tilida *qo'y* – *hayvon*, *kapalak* – *hasharot*, *o'rik* – *daraxt* tipidagi assotsiativ juftliklar leksemalar o'rtasidagi tur-jins munosabati asosida hosil bo'lsa, *eshik* – *uy*, *barmoq* – *qo'l* juftliklari leksemalar o'rtasidagi butun-bo'lak munosabati asosida hosil bo'ladi. Bu kabi assotsiativ bog'lanishlarning yuzaga kelishida ham leksemalarning semantik aloqadorligi muhim o'rin tutadi.

Shunisi qiziqki, ayrim leksemalarning lug'aviy ma'nosida semantik assotsiatsiyalar mujassam topadi. Masalan, *ashula* leksemasi *inson xotirasida*, *avvalo*, *qo'shiq*, *qo'shiqchi*, *xonanda*, *kuy*, *ijro* assotsiativ birliklarini jonlantiradi. Bu assotsiatsiyalarning *ashula* leksemasi semik tarkibida ham qayd etilishi leksik birlikning lug'aviy ma'nosi asosida ham semantik assotsiatsiyalarni hosil qilishini ko'rsatadi. Fikrimizni «O'zbek tilining izohli lug'ati»da *ashula* so'ziga berilgan quyidagi izoh ham tasdiqlaydi: «Yakka xonanda, guruh yoki xor ijro etadigan, kuy bastalangan (kuyga solingan) asar va uning ijrosi; qo'shiq». Misollar tahlilidan ma'lum bo'ladiki, leksemalarning o'ziga xos semantik xususiyatlari tilda turli assotsiatsiyalarning hosil bo'lishiga olib keladi.

2. Leksemalarning leksik-grammatik belgisiga asoslangan assotsiatsiya.

Tildagi leksemalar leksik-grammatik belgisi asosida ham o'zaro aloqa-bog'lanishda bo'lib, bu aloqa verbal assotsiatsiyalarda ham o'z aksini topadi. Masalan, ot turkumiga mansub leksemalar birlik yoki ko'plikni, erkalash, kichraytirish, hurmat kabilarni ifodalash-ifodalamasligi, sifat va ravishlar belgi darajasi, fe'llar bo'lishli – bo'lishsizlik yoki qaysi nisbat, mayl, shaxs-son kabilarni ifodalashiga ko'ra grammatik jihatdan farqlanadi va hokazo. Leksemalarning grammatik shakli asosida bir-biri bilan bog'lanishi grammatik belgiga asoslangan assotsiatsiyalarni hosil qiladi. Masalan, *qiz* – *qizaloq*, *qiz* – *qizlar*, *qiz* – *qizim*; *qizil* – *qip-qizil*, *to'q qizil*; *aytsam* – *aytmasam*, *boray* – *boring*, *o'qish* – *o'qimaslik*

assotsiativ juftliklari leksemalarning o'zaro bog'liq grammatik belgilari asosida shakllanadi. O'tkazilgan assotsiativ tajriba materiallari shuni ko'rsatadiki, grammatik shaklga asoslangan assotsiatsiyalar ma'noga asoslangan assotsiatsiyalarga qaraganda past chastotali, ularning stimul so'z bilan aloqasi nisbatan kuchsiz.

3.Leksemalarning uslubiy belgisiga asoslangan assotsiatsiya. Tilda uslubiy belgisi asosida umumiy paradigmaga birlashuvchi leksemalar ham verbal assotsiatsiyalarni hosil qiladi. Masalan, ilmiy uslubga xos *qo'shuv – ayiruv, tangens – katangens, morfologiya – sintaksis, nuqta – vergul; badiiy uslubga xos jamol – husn, shabboda – yel; publitsistik uslubga xos obodonlashtirish – ko'kalamzorlashtirish, shartnoma – hamkorlik* assotsiativ juftliklari umumiy uslubiy belgisi asosida yuzaga keladi.

4.Leksemalar pragmatik belgisiga asoslangan assotsiatsiya. Shunisi xarakterliki, leksemalar pragmatik ma'nosining mushtarakligi asosida ham assotsiativ munosabatga kirishadi. Masalan, *aft – bashara, husn – chiroy* assotsiativ juftliklarining shakllanishida leksemalar o'rtasidagi sinonimik munosabat birlamchiday tuyuladi. Bu o'rinda shunga e'tibor qaratish lozimki, berilgan misollarda leksema va uning assotsiatsiyasiga xos umumiy pragmatik ma'nolar (ularning salbiy yoki ijobiy baho munosabatini ifodalashi) assotsiativ juftliklarning bir-birini yodga tushirishiga olib kelgan. Shu sababli *aft* leksemasi eshitilishi yoki o'qilishi bilan xotirada dastlabki o'rinda aynan salbiy baho munosabatini ifoda etuvchi *bashara (yoki turq)* leksemasi jonlanadi. Xuddi shunday, *husn* leksemasi ham umumiy pragmatik ma'nosi asosida avvalo aynan chiroy leksemasi bilan assotsiativ bog'lanadi. Shuningdek, *qiltiriq – do'ndiq, qurumsoq – qo'li ochiq* juftliklarida til egalarining voqelikka salbiy-ijobiy munosabati birlamchi assotsiatsiyani hosil qilsa, leksemalar o'rtasida ziddik munosabati ikkilamchi assotsiatsiyani hosil qiladi.

5.Leksemalarning yasalishiga asoslangan assotsiatsiya. Leksema va u orqali hosil bo'lgan yasalmalar o'rtasidagi munosabat ham inson tafakkurida assotsiativ bog'lanishlarni yuzaga keltiradi. Masalan, suv leksemasi u asosida hosil

bo'lgan *suvchi*, *suvli*, *suvsiz*, *sersuv*, *suvdon* yasalmalari bilan; *tuz leksemasi* esa *tuzli*, *tuzsiz*, *tuzla*, *tuzdon* yasalmalari bilan assotsiativ bog'lanadi. Leksema va u asosida hosil bo'lgan yasalmalar munosabati paradigmatic assotsiatsiyalarni yuzaga keltiradi.

O'z navbatida yasalmalar ham asosdosh so'zlar bilan bir qatorda, asos qismning o'zini ham yodga tushiradi. Masalan: *puldor* – *pul*, *pulli*, *pulsiz*; *ishla* – *ish*, *ishchi*, *ishli*, *ishsiz* kabilar.

Shunisi xarakterliki, so'z turkumlarining ko'chishi asosida hosil bo'lgan yasalmalar nom hosil bo'lishi uchun turtki bo'lgan kognitiv asosni xotiramizda jonlantiradi. Masalan, *Bo'rivoy* atoqli oti eshitilganda til egasi xotirasida bo'ri tishi assotsiatsiyasining tiklanishi, *O'g'iloy* atoqli otining *o'g'il kutish* assotsiatsiyasini hosil qilishi bejiz emas.

“O'zbek tili poetonimlarining izohli lug'ati” mualliflarining fikricha, S.Ahmadning “Kelinlar qo'zg'oloni” komediyasi qahramoni *Sotti* ismi “o'quvchida “sotmoq” fe'li bilan bog'liq assotsiatsiyani hosil qilib, ovsinlari sirini qaynonaga yetkazib, ularni “sotadigan ayol” tabiatiga ishora qilgan”. Albatta, bir so'z turkumining boshqa turkumga ko'chishi asosida hosil bo'lgan bu kabi nomlar orqali hosil bo'lgan assotsiatsiyalarda so'z yasalishiga asos bo'lgan kognitiv bilim nazarda tutiladi.

6.Leksemalarning talaffuzda hamohangligiga asoslangan assotsiatsiya.

Turli ma'nolarni anglatuvchi, biroq talaffuzda hamohang, inson tomonidan semantik jihatdan yaqin birliklar sifatida idrok etiluvchi paronimik juftliklar munosabatida ham assotsiativ aloqa kuzatiladi. O'zbek tilida quyidagi leksemalar orasida shu turdagi assotsiativ aloqani kuzatish mumkin: *adresant* – *adresat*, *diplomant* – *diplomat* kabilar. Rus olimasi Y.A.Konevaning fikricha, paronimlar til birligi sifatida ma'nosi subyektiv yaqin bo'lgan leksemalar sifatida xarakterlanadi, bunday yaqinlik ba'zan individ ongida ularning aralashib ketishiga olib keladi, ko'p hollarda nutqiy vaziyatda bir kontekstda qo'llangan paronimlar individ tomonidan biri ikkinchisi o'rnida qo'llash mumkin bo'lgan teng ma'noli leksemalar sifatida idrok etiladi. Paronimlarning til egasi tomonidan semantik

yaqin birliklar sifatida idrok etilishi ularning inson xotirasida assotsiativ bog'lanishiga sabab bo'ladi.

Assotsiativ bog'lanish ba'zi tilshunoslar tomonidan paronimlarning o'ziga xos ko'rinishlari sifatida ajratilayotgan psevdoparonimlarda (yoki paronomaziya, paronimik attraksiya) ham qayd etiladi. Bu kabi paronimlar turli asoslarga ega bo'lsa-da, ularning akustik hamohangligi bir-birini eslatib turishiga sabab bo'ladi. Xususan, *kvorum* – *forum*, *Inyeksiya* – *infeksiya* leksik assotsiatsiyalari shu tarzda hosil bo'ladi.

Bu o'rinda shuni qayd etish lozimki, nafaqat paronim juftliklar, talaffuz jarayonida tovush tizimida yuzaga keladigan o'xshashlik asosida turli qo'llanishlar ham nutq oqimida bir-birini "chaqiradi", yodga soladi. O'zbek tilidagi gazeta matnlari bo'yicha assotsiativ tajriba o'tkazgan I.Azimovning xulosasiga ko'ra, stimul matn tarkibidagi lisoniy vositalarga shaklan o'xshash bo'lgan assotsiatsiyalar shakliy o'xshashlik asosida hosil bo'ladi. *U delegatsiya, konferensiya, komissiya* so'zlari aloqasida ma'noviy emas, balki shakliy o'xshashlik asosidagi assotsiativ bog'lanish mavjudligini, bunday assotsiativ bog'lanishda ma'no xususidagi informatsiya yetarli bo'lmagach, shakl o'z-o'zidan muhim omilga aylanishini bayon qiladi. Nazarimizda, bu o'rinda delegatsiya, konferensiya, komissiya so'zlarining shakliy o'xshashligi haqida emas, so'z bo'g'inlari (so'nggi bo'g'inlar)ning talaffuzdagi hamohangligi haqida fikr yuritish to'g'ri bo'ladi.

Ba'zan ikki til birligining tarkibiy strukturasidagi o'xshashlik ularning talaffuzda hamohang bo'lishiga olib keladi. Bunday holat ham tilda verbal assotsiatsiyalarning shakllanishiga turtki beradi. "O'zbek tili poetonimlarining izohli lug'ati"da qayd etilishicha, A.Oripovning "Gulzor" nomli she'rida qo'llangan *Birlashgan gullar tashkiloti to'qima nom bo'lib, o'quvchida Birlashgan Millatlar Tashkiloti* assotsiatsiyasini yuzaga keltiradi.³⁰ Ko'rinadiki, stimul birlik va assotsiatsiya tarkibiy strukturasidagi o'xshashlik ularning assotsiativ aloqasini ta'minlagan.

7.Leksemalarning dialektal belgisiga asoslangan assotsiatsiya. Tildagi dialektal qo'llanishlar adabiy tildagi muqobillari bilan assotsiativ munosabatga kirishadi. Bu holat til egalari tafakkurida adabiy til va dialektal birliklarning bir guruhga birlashuvi va shu asosda xotiradan o'rin olib, bir-birini yodga solib turishini anglatadi. Masalan, *narvon – shoti, beshik – gavora, buvi – ena, do'ppi – kallapo'sh, ayron – chalop* assotsiativ juftliklari adabiy til – dialekt munosabati asosida hosil bo'ladi.

Nafaqat dialektal qo'llanishlar, ba'zan leksik birlikning inson xotirasidan o'rin olgan turli tillardagi muqobillari ham assotsiativ bog'lanishlarni yuzaga keltiradi. Masalan, *yalmog'iz kampir – babayaga, bekat – ostanovka, chipta – bilet, dastur – programma* assotsiatsiyalari shular jumlasidandir.

8.Leksemalarning milliy-madaniy belgisiga asoslangan assotsiatsiya. Tashqi olam va unda sodir bo'layotgan rang-barang voqea-hodisalar, kishilar o'rtasidagi ijtimoiy, siyosiy, madaniy, hissiy munosabatlarning verbal ifodasida leksik birliklar alohida o'rin tutadi. Leksik birliklar semantikasida umuminsoniyatga yoki muayyan etnosga xos madaniyat belgilari ham aks etadi. Muayyan etnosning milliy-madaniy xususiyatlari alohida olingan leksik birliklar misolida ochib beriladi. Ayni shu birliklar tilning milliy-madaniylik belgisini yorqin namoyish eta oladi. Masalan, *qurbonlik, kelinsalom, hayit, do'ppi, chopon, ro'mol* leksemalari denotativ ma'nosidan tashqari ular ifoda etgan udum va kiyimlarning o'zbek xalqi madaniyatiga xosligi haqidagi ma'lumotni ham tashiydi. Bunday birliklar milliy-madaniy birliklar bo'lib, bu belgi izohli lug'atlarda ham ba'zida qayd etiladi. Masalan, «O'zbek tilining izohli lug'ati»da kelinko'rdi leksemasining quyidagi ma'nosi berilgan: «**KELINKO'RDI, kelinko'rar etn.** Turkiy xalqlarda, jumladan, o'zbeklarda nikoh to'yining ertasiga kuyovning qarindoshlari, tanishlari, qo'ni-qo'shnilari ishtirokida o'tkaziladigan yangi kelinchakni ko'rish odati». Ko'rinadiki, bu birlikka *etnik* pometasining qo'yilganligi uning muayyan etnos tiliga mansub milliy-madaniy birlik ekanini ko'rsatadi.

Leksik birliklarga xos bu kabi milliy-madaniy belgilar ularning inson

tafakkurida muayyan guruhlariga birlashuviga olib keladi. Shu sababli o'zbek leksemasi o'zbek xalqi xotirasida millat, xalq, O'zbekiston leksemalaridan tashqari, kelinsalom, hayit, chopon kabi milliy-madaniy semali leksik birliklarni ham tiklaydi. Yoki bo'lmasa, do'ppi leksemasi o'zbek millatiga mansub til egasi tafakkurida o'zbek leksik birligi bilan, qozoq millatiga mansub kishi tafakkurida qozoq leksemasi bilan assotsiativ bog'lanishni hosil qiladi. Biroq rus millatiga mansub kishida, u do'ppining qaysi xalqning milliy bosh kiyim ekani haqida biror bilimga ega bo'lsagina, o'zbek, qozoq, qirg'iz, tatar, tojik leksemalaridan biri yoki hammasi bilan assotsiativ munosabatga kirishadi. Bu holat ayrim leksemalarning milliy-madaniylik belgisi asosida turli assotsiatsiyalarni hosil qilishini ko'rsatadi.

Ba'zi leksemalar bir qarashda milliy-madaniylik belgisiga ega bo'lmasa-da, ayrim kishilar ongida milliy-madaniy assotsiatsiyalar sifatida gavdalanadi. D.Xudoyberganovanning qayd etishicha, «...ayrim hollarda predmetning ongdagi obrazi milliy assotsiatsiyalarni ham ifodalashi mumkin. Masalan, paxta so'zini boshqa tillarga tarjima qilish mumkin. Bu so'zning muqobili bo'lmagan tilda esa mazkur tushunchani so'z birikmasi orqali ifodalash mumkin. Lekin paxta haqida boshqa millat vakili ongida paydo bo'lgan assotsiatsiyalar bilan o'zbek millatiga mansub kishining ongidagi assotsiatsiyalar o'rtasida muayyan farqlar bo'lishi tabiiy». Darhaqiqat, paxta leksemasi bu xom ashyoni yetishtiruvchi millat xotirasida dala, egat, ko'sak, etak, terim, paxta terish mashinasi, paxta uyumi, xirmon, hasharchilar, tushlik kabi leksik birliklarni yodga tushirishi aniq. Ammo paxta dalasida bo'lmagan, paxta terimi haqida ma'lumotga ega bo'lmagan til egalarining paxta leksemasiga doir assotsiatsiyalari o'ta jo'n va cheklangan bo'lishi tabiiy.

Leksemalarning ijtimoiy belgisiga asoslangan assotsiatsiya. Ma'lumki, tildagi dialektal qo'llanishlar, muayyan sotsial guruhlariga xos leksik birliklar til egalarining ijtimoiy mavqei, kasb-kori, mashg'uloti kabilar haqida ham ma'lumot tashiydi. Bunday leksemalarning inson xotirasida bir-birini yodga tushirishi va assotsiativ bog'lanishiga ijtimoiy belgisiga ko'ra yaqinligi sabab bo'ladi. Masalan, fermer leksemasi dehqon leksemasini, vrach leksemasi hamshira leksemasini

yodga tushiradi. Bu turdagi birliklar bir-biri bilan doimiy aloqa-munosabatda bo‘luvchi kasb-kor, mashg‘ulot egalarini anglatishiga ko‘ra assotsiativ juftliklarni hosil qilsa, ustoz – shogird, boshliq – kotiba leksemalari shaxslarning sotsial muhitdagi mavqeini ifoda etishi asosida assotsiativ juftliklarga birlashadi.

Muayyan sotsial guruhlar nutqiga xos leksik birliklar ham doim shu guruh egalariga ishora qilib turadi. Masalan, mullajiring – otarchi, soqqa – olibsotar kabilar. Bunday juftliklarda ham leksemalarning ijtimoiylik belgisiga ko‘ra assotsiativ aloqasi kuzatiladi.

1. Leksemalarning gender xususiyatlariga asoslangan assotsiatsiya.

Tildagi gender markerli leksik birliklar aynan shunday belgiga ega leksik birliklar bilan assotsiativ bog‘lanishlarni hosil qiladi. Masalan, ayol leksemasi xotin leksemasi bilan yoki erkak leksemasi bir vaqtda er leksemasi bilan assotsiativ munosabatga kirishadi. Bu holat leksik birliklarning semantik belgisi bilan birga gender xususiyati asosida ham inson tafakkurida guruhlariga birlashuvini ko‘rsatadi.

2. Shunisi xarakterliki, gender belgisiga ko‘ra o‘zaro zidlanuvchi leksik birliklar ham assotsiativ munosabatga kirishadi. Masalan, yigit leksemasi qiz leksemasi bilan, chol leksemasi kampir leksemasi bilan gender belgisiga ko‘ra zidlanadi. Bu zidlik ayni leksik birliklarning bir-birini xotirada tiklashiga yo‘l ochadi. Nutqimizda tez-tez uchrab turuvchi «Er-u xotin – qo‘sh ho‘kiz», «Erni er qiladigan ham xotin, qora yer qiladigan ham xotin» maqollarini er, xotin leksemalarining assotsiatsiyasi sifatida baholash mumkin.

3. Ma‘lum bo‘ladiki, tilda assotsiativ birliklar vazifasini ko‘pincha sinonimlar, antonimlar, paronimlar, uyadosh so‘zlar, bir asosdan yasalgan leksemalar, talaffuzda akustik jihatdan hamohang bo‘lgan leksik birliklar, madaniylik, ijtimoiylik belgisiga ko‘ra umumiy bo‘lgan leksemalar bajaradi. Biroq assotsiativ birliklar vazifasida paremiyalar, iboralar, o‘xshatishli birikmalar ham kelishini kuzatish mumkin. Masalan, ko‘z leksemasi xotirada ko‘zi tushmoq, ko‘z tegmoq iboralarini tiklab, ular bilan assotsiativ munosabatga kirishadi.

4. Verbal assotsiatsiyalarning hosil bo‘lishida ekstralingvistik omillar ham o‘ziga xos o‘rin tutadi. Tashqi olamdagi turli voqeliklar aloqadorligi, til egalarining shaxs xususiyatlari, kasb-kori, ruhiyati, pragmatik xohishi, voqelikka bo‘lgan baho munosabati kabilar bilan bog‘liq holda yuzaga keladigan assotsiatsiyalar ekstralingvistik omillar sanaladi.

5. Tilshunoslikda ekstralingvistik omillar ta’sirida assotsiativ juftliklarning hosil bo‘lishi muammosi bo‘yicha turli qarashlar mavjud. M.M.Pokrovskiy verbal assotsiatsiyalarning hosil bo‘lishiga ekstralingvistik omillar (tashqi olamdagi predmetlar, inson ruhiyati, xalq tarixi, madaniyati kabilar)ning ta’sir ko‘rsatishi haqida mulohaza yuritadi. Uning fikricha, “bu predmetlarni anglatuvchi so‘zlar tilda bir-biri bilan assotsiatsiyalanadi va, albatta, ularni ifoda etuvchi predmetlar ham inson ongida assotsiativ munosabatda bo‘ladi”.

6. Paronim juftliklarning hosil bo‘lishi muammosini assotsiativ tajribalar asosida o‘rgangan rus olimasi Y.A.Koneva ham paronimizatsiya jarayoniga ekstralingvistik omillar sifatida «inson – jamiyat – madaniyat» va kasbiy yo‘nalganlik omilining ta’sir ko‘rsatishini qayd etadi. Anglashiladiki, tashqi olamdagi narsa-predmetlar, voqea-hodisalar, inson va tashqi olam o‘rtasidagi assotsiativ aloqa-munosabatlar tilda verbal assotsiatsiyalar ko‘rinishida o‘z ifodasini topadi.

7. O‘zbek tilida verbal assotsiatsiyalarning hosil bo‘lishida quyidagi ekstralingvistik omillar muhim o‘rin tutadi:

Predmetlarning makondagi aloqadorligi.

Predmetlarning zamondagi aloqadorligi.

Predmet va uning belgisi munosabati.

Tovush va uning egasi munosabati.

Insonning voqelikka munosabati.

Faoliyat va uning obykti aloqadorligi.

Faoliyat egasi va uning mahsuloti aloqadorligi.

Predmetlarning o‘xshashlik belgisi.

Predmetlarning egalik, tegishlilik, mansublik belgisi.

Predmetlar orasidagi sabab-natija munosabati.

Predmetlarning hayotiy zaruriyat belgisi.

Qayd etilgan ekstralingvistik omillar bilan bog'liq holda hosil bo'ladigan assotsiatsiyalarni quyidagicha tasniflash mumkin:

Makondagi aloqadorlikka asoslangan assotsiatsiya. Muayyan makondan o'rin olgan predmetlar, makonda yuz bergan voqeliklar, makonda amalga oshirilgan faoliyat turi, makonda joylashganlik kabilar inson ongida shu makon bilan birgalikda aks etadi. Predmet, voqea-hodisa va makon o'rtasidagi bunday aloqadorlik tilda leksik assotsiatsiyalar munosabatida ham kuzatiladi. Masalan, archa o'rmon va tog'da o'suvchi daraxt turi hisoblanadi. Archaning o'rmon va tog' bilan makondagi aloqadorligi archa leksemasining o'rmon, archa leksik birliklari bilan assotsiativ bog'lanishini hosil qiladi. Transportning to'xtash harakati bekat, muyulish kabi turli joylarda amalga oshiriladi. Mazkur harakatning u amalga oshiriladigan makon bilan aloqasi to'xtamoq leksemasining bekat, muyulish leksik birliklari bilan assotsiativ bog'lanishini yuzaga keltiradi.

Ma'lumki, inson va u yashaydigan makon, ish-faoliyat olib boradigan korxona, tashkilot, o'quv dargohi kabilar aloqadorligi asosida ham tilda turli assotsiatsiyalar hosil bo'ladi. Masalan, o'zbek – O'zbekiston, vrach – kasalxona, do'kondor – do'kon, talaba – institut, o'qituvchi – maktab assotsiativ juftliklari mana shu aloqadorlik asosida shakllanadi.

Zamondagi aloqadorlikka asoslangan assotsiatsiya. Assotsiatsiyaning bu ko'rinishi muayyan predmet, voqea-hodisaning zamon bilan aloqasi asosida hosil bo'ladi. Masalan, sumalak bahor oyida pishiriladigan taom turidir. Sumalak pishirilishining an'anaviy tarzda yilning muayyan fasli bilan bog'lanishi til egalari tafakkurida sumalak – bahor assotsiativ juftligining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Xuddi shunday, Navro'z – bahor, qor – qish, xazon – kuz assotsiativ juftliklari ham zamondagi aloqadorlik asosida shakllanadi.

Ba'zan vaqt semali birliklar ayni shu semadagi birliklar bilan assotsiativ munosabatga kirishadi. Masalan, yoz leksemasi orqali inson xotirasida avvalo fasl leksemasi tiklanadi. Yoz fasli boshqa fasllar kabi yilning ma'lum vaqti bilan

aloqador bo'lgani bois bu leksema bir vaqtda iyun, iyul, avgust oy nomlarini ham xotirada tiklaydi. Yoz leksemasining vaqt tushunchasi bilan aloqadorligi uning vaqt, kun, oy leksemalari bilan assotsiativ bog'lanishini ham ta'minlaydi. Nutqimizda faol qo'llanuvchi yoz oyi, yoz vaqti, yoz kunlari so'z birikmalarini yoz leksemasining oy, vaqt, kun leksemalari bilan assotsiativ bog'lanishi asosida hosil bo'lgan deyish mumkin.

Kishilarning zamon bilan aloqasi Alisher Navoiy – XV asr, Cho'lpon – XX asrning 20-yillari assotsiativ juftliklarida o'z ifodasini topadi.

Predmet va uning belgisi munosabatiga asoslangan assotsiatsiya. Bunday assotsiatsiya predmet va unga xos belgi va, aksincha, belgi va uning egasi munosabati asosida hosil bo'ladi. Ma'lumki, tashqi olamdagi narsa-predmetlar rang-tus, maza-ta'm, hid, shakl-ko'rinish, xususiyat kabi qator belgilarga ega. Bu belgilar inson tomonidan dastlab sezgi organlari orqali his qilinadi. Inson sezgi a'zolari tashqi olam va tafakkurni o'zaro bog'lovchi ko'priq vazifasini bajaradi. Biroq bu vazifani amalga oshirishda barcha sezgi a'zolarimiz birday ishtirok etmaydi. H.Shamsiddinovning qayd etishicha, «bu jarayonda ko'ruv sezgisiga mansub xotira tasavvurining ishtiroki eng faol hisoblanadi. Buning o'z sabablari mavjud. Birinchidan, inson borliq haqidagi informatsiyaning asosiy qismini ko'ruv sezgisi a'zosi – ko'z orqali oladi: narsa-hodisaning shakli, rangi, holati, miqdori, harakati haqidagi ma'lumotlar ko'ruv sezgisi orqali shakllanadi. Ikkinchidan, ko'ruv sezgisi orqali olinadigan informatsiya narsa-hodisaning bevosita kontaktisiz muayyan masofa orqali ham shakllanishi mumkin. Shu sababli ham nom berilishi kutilayotgan narsa-hodisaga nom berishda ko'ruv xotira tasavvurlari assotsiatsiyasining o'rni beqiyos va unumlidir».

Sezgi tasavvuri orqali hosil bo'ladigan assotsiatsiyalarni birlamchi assotsiatsiya hisoblash mumkin. Bu o'rinda birlamchi va ikkilamchi assotsiatsiyalarni farqlash lozim. Jumladan, xushbo'y assotsiatsiyasi rayhon leksemasining birlamchi assotsiatsiyasidir. Bu assotsiatsiya rayhon hidini tuyish orqali hosil bo'lgan. Rayhonga xos bu belgi inson xotirasidan o'rin olgani bois har gal rayhon hidi his etilmasa ham, xushbo'y assotsiatsiyasi tiklanaveradi. Bunday

holatda predmet va uning belgisi munosabatini aks ettiruvchi rayhon – xushbo'y ikkilamchi assotsiatsiyasi yuzaga keladi. Xuddi shunday, ko'rish, eshitish, ta'm bilish, teri sezgisi kabilar orqali his qilingan belgilar predmetlarga xos doimiy belgi sifatida inson xotirasidan o'rin olgan holatlarda ham predmet va uning belgisi munosabatini aks ettiruvchi ikkilamchi assotsiatsiyalar hosil bo'ladi. Qiyoslang: qor – oppoq, paxta – yumshoq, qand – shirin, tun – qorong'ilik kabilar.

Kishilarning shaxs xususiyatlari (xarakteri, yoshi, jinsi, kasbi, ma'lumoti, voqelikni qay tarzda idrok etishi, dunyoqarashi kabilar) bilan bog'liq tarzda yuzaga keladigan assotsiatsiyalarni ham predmet (shaxs) va unga xos belgi (shaxs xususiyatlari) munosabatiga asoslangan assotsiatsiya sifatida baholash mumkin. Masalan, qiz – nozik, kampir – qari assotsiativ juftliklari shaxs va unga xos belgi-xususiyat aloqadorligi asosida hosil bo'lsa, bo'ydoq – yigit, bijildoq – qizcha assotsiativ juftliklari, aksincha, xarakter-xususiyat va uning egasi munosabatini aks ettiradi.

1. Tovush va uning egasi munosabatiga asoslangan assotsiatsiya. Inson ongida eshitilgan tovush va uning egasi haqidagi ma'lumotlar ham birga o'rin oladi. Bu holat tovush va uni hosil qilgan predmet, jonivor, shaxs; tovushni yuzaga keltirgan voqelik kabilarning verbal ifodasi inson xotirasida birgalikda jonlanishidan dalolat beradi. Shu sababli *inga-inga* tovushi til egasi xotirasida *chaqaloq* leksemasini, *to'q-to'q* tovushi *tufli* yoki *hassa* leksemasini, *chi-chi* tovushi esa *sichqon* leksemasini yodga tushiradi. Bir-birini yodga soluvchi bu leksik birliklar tafakkurda assotsiativ bog'langan guruhlariga birlashadi. *Piq-piq* – *yig'i*, *xiring-xiring* – *kulgi* assotsiativ juftliklarining hosil bo'lishi esa tovush va uni keltirib chiqargan voqelik aloqadorligiga asoslanadi.

2. Insonning voqelikka munosabati, istak-xohishiga asoslangan assotsiatsiya. Kishilarning voqelikka munosabati, istak-xohishi kabi ekstralingvistik omillar bilan bog'liq tarzda ham tilda turli assotsiatsiyalar yuzaga keladi. Masalan, mastava stimul so'ziga berilgan achchiqqina javob reaksiyasi, shirinlik stimul so'zi asosida hosil bo'lgan joni dilim assotsiatsiyasi til egasining voqelikka ijobiy munosabatini aks ettiradi. Shokolad – yeyman, velosiped – olib

bering (bolalarga xos assotsiatsiya), mashina – qani bo'lsa, Parij – borsam assotsiativ juftliklari esa til egasining istak-xohishi bilan bog'liq holda shakllanadi.

3. Faoliyat va uning ob'ekti aloqadorligiga asoslangan assotsiatsiya. Ish-faoliyat va u amalga oshiriladigan ob'ekt o'rtasidagi assotsiativ aloqa ham tilda turli assotsiatsiyalarning hosil bo'lishiga sabab bo'ladi. Jumladan, *chopiq – o't, terim – paxta, bog'bonchilik – bog'* leksemalari munosabatida mana shunday assotsiatsiya kuzatiladi.

4. Faoliyat egasi va uning mahsuloti aloqadorligiga asoslangan assotsiatsiya. Muayyan kasb-kor egalari tomonidan ishlab chiqariluvchi doimiy mahsulot turlari inson xotirasida shu mahsulot egalari haqidagi tasavvurni ham jonlantiradi, va aksincha, kasb-kor egalari orqali ular ishlab chiqargan mahsulotlar yodga keladi. Ish-faoliyat egalari va ularning mahsulotlari orasidagi bunday assotsiativ aloqa tilda ham turli assotsiatsiyalarda o'z aksini topadi. Masalan, *oshpaz* leksemasining *ovqat, lag'mon, palov, sho'rva* kabi nomlarni yodga tushirishi oshpaz faoliyati va u pishirgan taom turlari bilan bog'liq. Til egalari tomonidan *tikuvchi* leksemasiga berilgan *ko'ylak* assotsiatsiyasi, *paxtakor* leksemasining *paxta, quruvchi* leksemasining *uy, somsapaz* leksemasining *somsa, nonvoy* leksemasining *non* assotsiatsiyalari ham ekstralingvistik omil – ish-faoliyat egasi va uning mahsuloti aloqadorligiga asoslanadi.

5. O'xshashlikka asoslangan assotsiatsiya. Til egalari tomonidan muayyan narsa-predmetning ma'lum belgisi asosida boshqa narsa-predmetga yoki shaxsning biror narsaga o'xshatilishi ularning tafakkurida o'xshatiluvchi va o'xshatilmish aloqadorligi haqidagi tasavvurni shakllantiradi. Mana shu tasavvur tilda o'xshatishli assotsiatsiyalarni yuzaga keltiradi. Masalan, *qurut* leksemasi *toshdek* leksemasi bilan assotsiativ munosabatga kirishadi. Qurutning qattqlik belgisi asosida toshga o'xshatilishi *qurut* va *toshdek* leksemalari orasida assotsiativ aloqani hosil qiladi. *Yuz – kulcha, kiprik – kamon, oshiq – Majnun* assotsiativ juftliklarini ham o'xshatish munosabati asosida yuzaga kelgan deyish mumkin.

Shuningdek, o'xshatishli birikmalarda o'xshatish asosi yoki o'xshatish sub'ekti qo'llanmasa-da, o'xshatish etaloni (o'xshatish asosidagi obraz) ularning

xotirada oson tiklanishga yordam beradi. Masalan: *do'ppiday hovli* (kichkina), *alifday qomat* (tik); *bo'zday oq* (yuz), *gurziday katta* (musht), *do'mbiraday shishgan* (qorin) kabilar.

Shunisi xarakterliki, metaforik ko'chimlar ham o'xshatishga asoslangan assotsiatsiyalarni hosil qiladi. Metaforik ko'chimlar bevosita o'xshatish etaloniga ishora qilib turadi. Shu bois til egalariga ma'lum bo'lgan doimiy metaforik ko'chimlar bir vaqtda o'xshatish etalonini ham xotirada tiklaydi. Masalan: *temir* (*intizom*), *oltin* (*kuz*), *shirin* (*xayol*), *metin* (*iroda*) kabilar.

Professor N.Mahmudovning qayd etishicha, turg'un o'xshatishlarda o'xshatish etalonida ifodalangan obraz barqarorlashgan bo'ladi, bunday o'xshatishlar, garchi muayyan shaxs yoki ijodkor tomonidan qo'llangan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan til jamoasida urfga kirib, doimiy ifodalar sifatida turg'unlashgan, umumxalq tili leksikonidan joy olib ulgurgan bo'ladi. Bunday o'xshatishlar xuddi tildagi tayyor birliklar kabi nutqqa olib kiriladi.²¹ Turg'un o'xshatishlarga xos bu xususiyat til egalari tomonidan tez idrok etilishi hamda o'xshatish etaloni bilan ongda doimiy tarzda assotsiativ bog'lanishda ekanini ko'rsatadi.

Individual xarakterdagi metaforik qo'llanishlar til egalari tomonidan ilgari eshitilgan holatlarda ham metaforik ma'noli assotsiatlar o'xshatish etalonini yodga tushiradi. Masalan, *pul* – *hokimiyat*, *qaynana* – *ajdaho* juftliklarida assotsiatlarning metaforik ko'chimga asoslanganligi sezilib turadi.

6. Egalik, tegishlilik, mansublik belgisiga asoslangan assotsiatsiya. Voqelikdagi narsa-predmetlar va uning egasi o'rtasidagi assotsiativ bog'lanish tilda ham o'z ifodasini topadi. Shu asosda *so'rg'ich* leksemasi *chaqaloq* leksemasi bilan assotsiativ bog'lanadi, *galstuk* leksemasi esa *boshliq* leksemasi bilan assotsiativ aloqaga kirishadi. Yer, Quyosh, Oyning planetaga mansubligi *Yer*, *Quyosh*, *Oy* leksemalarining *planeta* leksemasi bilan assotsiativ aloqasini hosil qiladi. Mana shu aloqa asosida nutqimizda *Quyosh planetasi*, *Oy planetasi*, *Yer planetasi* birikmalari yuzaga keladi.

²¹ Маҳмудов Н. Ўхшатишлар – образли тафаккур маҳсули // Н.Маҳмудов, Д. Худойберганова. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. -Тошкент: Маънавият, 2013. – Б. 6.

7. Sabab-natija munosabatiga asoslangan assotsiatsiya. Tashqi olamdagi voqea-hodisalar ba'zan bir-biri bilan sabab-natija munosabati asosida bog'lanadi. Boshqacha aytganda, bir voqelik boshqa voqelikning yuzaga kelishiga sababchi bo'ladi. Masalan, kuchli shovqin ko'pincha bosh og'rig'ini keltirib chiqaradi. Bu aloqadorlik tilda *shovqin* va *bosh og'rig'i* birliklarining assotsiativ aloqasini ta'minlaydi. *Yomg'ir – loygarchilik, bulut – yomg'ir* assotsiativ juftliklari ham ikki voqelik o'rtasidagi sabab-natija munosabatiga asoslanadi.

8. Hayotiy zaruriyat belgisiga asoslangan assotsiatsiya. Tashqi olamdagi narsa-predmetlar, voqea-hodisalarning mavjud bo'lishi, yaratilishi, amal qilishi, yashashi uchun zarur bo'lgan hayotiy zaruriyatlar bilan aloqasi tilda *daftar – qog'oz, baliq – suv, yomg'ir – bulut, tovuq – don* kabi assotsiativ juftliklarning shakllanishiga yo'l ochadi.

Xullas, ekstralingvistik omillar bilan bog'liq holda ham tilda turli verbal assotsiatsiyalar yuzaga keladi. Ekstralingvistik omil asosida yuzaga keladigan verbal assotsiatsiyalarning turlarini yana ko'plab ajratish mumkin. Bunga tashqi olamdagi rang-barang munosabatlar ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, I.Azimovanning o'zbek tilidagi gazeta matnlarining mazmuniy pertsepsiyasi muammosini psixolingvistik aspektida o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotida matn sarlavhasiga berilgan assotsiatsiyalarning retsipient oilaviy sharoiti bilan bog'liq holda hosil bo'lganligi qayd etilgan yoki gazeta matnida retsipient uchun notanish bo'lgan so'z tushunilmasa, uning o'rnini kontekstga asoslangan assotsiatsiya egallashi ko'rsatilgan.²²

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Verbal assotsiatsiya nima?
2. Paradigmatik munosabat tushunchasini izohlang.
3. Sintagmatik munosabat tushunchasini izohlang.
4. Verbal assotsiatsiyalarga xos xususiyatlari haqida nima deya olasiz?
5. Stimul so'z tushunchasini izohlang.

²² Азимова И. Ўзбек тилидаги газета матнлари мазмуний перцепциясининг психолінгвістик тадқиқи: Филол.фан. номз. ... дисс. – Тошкент: ЎзМУ, 2008. – Б.115, 126.

6. Nima uchun tilshunoslar tilda verbal assotsiatsiyalarning hosil bo‘lishini turli omillar bilan bog‘lashadi?
7. Ye.I.Goroshko, L.E.Kuznesovalarning fikricha, assotsiatsiyalarning hosil bo‘lishiga qanday omillar ta’sir etadi?
8. “Xullas, tildagi verbal assotsiatsiyalar asosida insonning tashqi olam haqidagi psixologik tasavvuri yotadi” jumlasini izohlang.
9. “Verbal assotsiatsiyalarning ko‘lami, mazmun mundarijasi ayol va erkaklarda ham farqlanadi” ushbu fikrni izohlang.
10. Nima uchun Verbal assotsiatsiyalar ijtimoiylik belgisi asosida ham farqlanadi?
11. A.A.Martinovich so‘z-assotsiatlar ifoda etgan mazmuniy munosabat asosida verbal assotsiatsiyalarning qanday tiplarini ajratadi?
12. Yondoshlik asosidagi assotsiatsiyalariga misollar keltiring.
13. O‘xshashlik asosidagi assotsiatsiyalariga misollar keltiring.
14. Sintagmatik xarakterdagi assotsiatsiyalarga misollar keltiring.
15. Paradigmatik xarakterdagi assotsiatsiyalarga misollar keltiring.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Белянин В.П. Психоллингвистика. Учебник. – М.: Флинта, 2003. – С.131;
2. Береснева Н.И. Модель внутреннего лексикона в позднем онтогенезе (ассоциативный эксперимент): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Пермь, 1997. – 24 с.
3. Волков В.В. Введение в психоллингвистику: Пособие по спецкурсу. – Ужгород, 1994. – 202 с.;
4. Воробьев В.В. Лингвокультурология (теория и методы). – М.: Изд-во Российского университета Дружбы народов, 1997. – 332 с.;
5. Горошко Е.И. Описание механизмов ассоциирования и проблема классификации реакции // Интегративная модель свободного

ассоциативного эксперимента // www.textologu.ru

6. Горошко Е.И. Языковое сознание (ассоциативная парадигма): Дисс. ... д-ра филол. наук. – М., 2001. – С. 352-353.
7. Джамбаева Ж.А. Ассоциативный эксперимент: методологические основы // Л.Н. Гумилев атындағы ЕҰУ Хабаршысы. 2013. - №1. - С. 20.
8. Ермолова М.В. Ассоциативные семантические модели выражения запрета в немецком языке (на материале пословиц и поговорок) // Известия Российского гос.пед.ун-та имени А.И.Герцена. 2009. - №106. – С. 136-140.

IV. AMALIY MASHG‘ULOT MAZMUNI



1-AMALIY MASHG‘ULOT: ASSOTSIATIV MAYDON NAZARIYASI.

REJA:

1. Assotsiativ maydon haqidagi qarashlar tahlili.
2. Assotsiativ maydonini belgilash (amaliy mashq).
3. Assotsiativ maydon tarkibini tahlil qilish (amaliy mashq).

Tayanch tushunchalar: *assotsiativ maydon, assotsiativ maydon birliklari, assotsiat, assotsiativ maydon yadrosi, assotsiativ maydonning chegara qismi*

Topshiriq:

Assotsiativ maydon tushunchasiga tavsif bering.

1. *Funksional-semantik maydon tushunchasiga tavsif bering.*
3. Assotsiativ maydonning tarkibiy qismlari: yadro va chegara qism haqida ma’lumot bering.
4. *Atlas stimul so‘zi assotsiativ maydonida individual va jamoaviy xarakterdagi assotsiatlarni aniqlang.*

ATLAS (mato): *ko‘ylak 68; milliylik 31; mato 25; kelin 11; kiyim 10; Marg‘ilon 10; milliy kiyim 9; adras 6; libos 6; Navro‘z 6; qiz 5; go‘zallik 4; kamalak 4; qizlar 4; chiroyli 4; bayram 3; do‘ppi 3; kelinchak 3; raqqosa 3; o‘zbek qizlari 3; atlas ko‘ylak 2; “Atlas” firmasi 2; ayollar 2; bahor 2; gazlama 2; ipak 2; Marg‘ilon atlas 2; milliy mato 2; Navro‘z bayrami 2; Navro‘z sayli 2; rang 2; ranglar jilosi 2; silliq 2; urf-odat 2; ajoyib mato, Alisher Navoiy tavalludiga bag‘ishlangan tadbir, andoza, an’ana, atlas belbog‘, atlas bozor, atlas do‘koni, atlas do‘ppi, “Atlas kiygan har qanday ayol qalbida milliyigimizni tuyadi”, atlas kiygan qiz, “Atlas kiygan qizlar juda ham chiroyli ko‘rinishadi”, atlas kiygan qizlar, “Atlas kiygan qizni turmushga chiqqan bo‘lsa kerak, deb o‘ylashadi”, atlas kiyimlar, atlas kostyum, atlas ko‘rpa, atlas ko‘rpacha, “Atlas ko‘ylak – kelinlar ziynati”, “Atlas ko‘ylakni Navro‘z bayramida kiyishadi”, “Atlas*

ko‘ylakni qimmat bo‘lganligi uchun boy xonadon ayollari kiyishgan”, atlas lozim, atlas lozim-ko‘ylak kiygan qizlar, atlas matosi, atlas nimcha, atlas oyoq kiyim, atlas ro‘mol, atlas to‘qish texnologiyasi, atlas to‘qish, atlas to‘qiyotgan hunarmand, atlas yostiqlar, atlas sharf, “Atlas chet elda ham mashhur”, atlas chopon, “Atlasda milliyligimiz ifori ufurib turadi”, “Atlasda ranglar uyg‘unligi asosiy o‘rinda turadi”, “Atlasda yetti xil kamalak rangi jilolanib turadi”, atlasdan oyoq kiyim, atlasdan tikilgan kiyimlar, atlasdan yasalgan oyoq kiyimlar, atlasli quroq yostiq, “Atlasning shohini “xonatlas” deyishadi”, “Avvallari yoqmasdi, hozir shu matodan tikilgan kiyimlar jon-u dilim”, “Avvallari kelinlarning ko‘rpalari atlasdan tikilardi, hozir juda ham kam uchraydi”, ayollar kiyimi, ayollar matosi, ayollarimiz kiyadigan qadimiy va ayni paytda zamonaviy mato, “Ayollarning ko‘rkiga ko‘rk, husniga husn qo‘shadi”, bahor fasli, “Bahor kelishi bilan o‘zbek qizlari rang-barang atlaslardan ko‘ylaklar tikib kiyishadi”, bahor sayli, bahorning iliq havosi, banoras, bejirim libos, bejirim mato, bejirim, belbog‘, belbog‘ mato, beqasam, bezak, bezaklar, beg‘uborlik, bir juft atlas, bir kiyimlik atlas, “Birinchi sinfga borganimda oyim Navro‘z bayramiga atlasdan ko‘ylak tikib bergandilar, men dugonalarimga maqtanganman, hali ham esimda, chiroyli ko‘ylak edi”, “Bizda kuyovga atlas belbog‘ berishadi, bu belbog‘ning naqshlari qo‘lda tikilishi shart”, bozor, bozor rastasi, “Bu mato hamisha urfda”, “Bu mato hech qachon o‘z mavqeyini yo‘qotmaydi”, “Bu so‘zni eshitganimda o‘zbek xalqiga xos milliylik, iftixor, ishonchni his qilaman”, butun dunyoga mashhur mato, buvimning sandig‘idan olgan asl matosi, bo‘yoq, bo‘yoqlar, dastgoh, dizaynerlar, dugonalarim, dunyo ranglarining mujassamligi, dunyoga mashhur, dunyoning barcha ranglarini o‘zida jamlagan yorqin mato, durra, “Do‘ppi tikdim” qo‘shig‘i, eng chiroyli mato turi, “Eng mashhuri Marg‘ilon atlasini hisoblanadi”, eng sevimli matolarimdan, erim, Farg‘ona, fason, faxr, geografik hudud, go‘zal qizlar, hammaga mos, hammaga yoqadigan material, haqiqiy o‘zbek qizi, har bir kelinning sarposida bo‘ladigan kiyim, “Har bir qiz kelin bo‘lganida atlasdan ko‘ylak tiktiradi”, har xil ranglar uyg‘unligi, har xil ranglarda tovlanadigan mato, hayo, “Hech qachon urfdan qolmaydi”, “Hozirgi paytda yigitlarimiz ham atlasdan

zamonaviy liboslar kiyishmoqda”, “Hozirgi vaqtda bu matodan tikilgan kiyimlarni ko‘chalarda ko‘rishimiz qiyin, faqat sahnalarda, yo bo‘lmasa, kelinlar sepida uchratamiz”, husnkor, ibo, iffat, “Ikki yoshligimda birinchi marta atlas ko‘ylak kiyib suratga tushgan ekanman”, “Ilgari hamma atlas ko‘ylak kiyib yurgan, hozir esa faqat Navro‘z bayramida kiyishadi”, injiq mato, ip, ipak do‘ppi, ipak gazlama, ipak mato, ipak qurt, “Ipakdan tayyorlanadi”, ipakdan tayyorlangan harir mato, ipakdan tayyorlangan mato, ipakdan to‘qiladigan milliy mato, ipakdan to‘qilgan mato, iroqi do‘ppi, jilokor mato, jilolanib turadigan mato, jiloli va naqshinkor, jilvakor naqshlar, “Jilvakor xonatlas matolarning eng ustunidir”, jozibador, jozibali, juda ham jilodor, kamalak ranglari, kamalak ranglaridan bezak, karta, “Kelin seplarida ko‘p uchraydi” kelinchak libosi, kelinchaklarimiz, kelinchaklarning eng go‘zal kiyimi, kelinchaklarning eng ko‘p kiyadigan libosi, kelinchaklarning ko‘rkiga ko‘rk qo‘shuvchi mato, kelinlar ustidagi ko‘rk, kelinlar, kelinlarimiz sepiga qo‘yiladigan mato, kelinlarning to‘y sarposi, kelinlikning ko‘rki, “Kelinsalom”, kiyimlar, konsertlar, kostyum, kostyum-yupka, Kumushbibi, kuyov, ko‘klam, ko‘rgazma, ko‘rkam, ko‘z ko‘rganda qamashadigan mato, ko‘zni oladigan mato, ko‘zni quvnatadigan mato, liboslar shohi, liboslar tanlovi, liboslarim, lobar kelinchaklar, maftunkor, malika, marosim, marosimlar, “Marg‘ilon – atlaslar yurti”, “Marg‘ilon atlaslari juda ham sifatli va xaridorgir”, Marg‘ilon hunarmandlari atlas to‘qishadi”, Marg‘ilon shahri, mashaqqatli qo‘l mehnati, material, mato turi, mayda taroqli, mayin, mehmonlar, men yoqtirgan mato, mentalitetga mos mato, millatlar, milliy, “Milliy bayramlarda atlasdan libos tikiladi”, milliy libos, milliy liboslar, milliy mato turi, milliy matomiz, milliy qadriyat, milliylikimiz ramzi, milliylikimizni aks ettiruvchi mato, milliylikimizning haqiqiy ko‘rinishi, milliylik va zamonaviylik, moda, Muhammad Yusufning “Uzun ko‘ylak” she‘ri, nafis, nafislik, nafosat, naqsh, naqshinkor, “Naqshlarining jozibadorligi, betakrorligi bilan ajralib turadi”, Navro‘z bayramida kiyiladigan kiyim, “Navro‘z bayramida atlas kiyishadi”, Navro‘z kunlari, nazokat, Nodirabegim, namozshom atlas, oddiylik, old tomoni yaltiroq, onajonim bergan sariq rangli atlas, “Onam qadimiy atlasdan olib qo‘yganlar”,

“Opa-singillar” kinofilmi, oq kapalak, orzu bo‘lib qolgan bolaligim, Otabek, paxta, pilla, pishiq, pushti va qora rangli banoras ko‘ylagim, “Qadimda bu matodan ayollar ko‘ylak tikirib kiyishgan”, “Qadimda bu matodan ko‘rpa-yostiqlar, choponlar tikishgan”, “Qadimdan kelinlarimiz sepidan atlas ko‘ylaklar joy olgan”, qadimdan to hozirgacha urfda bo‘lgan mato, qadimgi o‘zbek matosi, qadimiy meros, qadimiy, qadrli, qaynonam, qaynotam, qimmat, qimmatbaho milliy libos, qimmatbaho, qizil atlas, “Qizlar atlasni iroqi do‘ppi bilan kiyishadi”, qizlar davrasi, “Qizlar Navro‘z bayramida tikirib kiyishadi”, “Qizlar uzatilayotganda ota uyidan atlas ko‘ylakda chiqib ketishadi”, qizlarning go‘zalligi, “Qizlarning chiroyiga chiroy qo‘shadi”, qizlarning ko‘rki, qizlarning sarpolari, qizlarning sevimli matosi, qizchalar, qora atlas, qudalar, qulaylik, Qo‘qon shahri, “Qo‘qon va Marg‘ilonda maxsus atlas to‘qiydigan joylar bor”, qo‘shnimiz, rang-barang, rang-barangligi bilan ham chiroyli, ham mashhur bo‘lgan milliy mato, ranglar, ranglar uyg‘unligi, ranglarning jilolanishi, rangli mato, raqsga tushayotgan qizlar, rasm, Registon, ro‘mol, ro‘molcha, sakkizinchi Mart, sakkiztepki atlas, salom qilish, sandiq, san‘at asari, sariq atlas, sarpo, sayohat, serjilo, sifatli, siyosiy xarita, sotuvchi, sovg‘a, sochlari mayda o‘rilgan qizlar, “Sportchilarimizni milliy atlas kiygan qizlarimiz kutib olishadi”, sumalak, tabiiy, “Tabiiy ipakdan tayyorlanadi”, tabiiy toza mahsulot, tabiiylik, tadbir, tikuv mashinasi, tikuvchi, tikuvchimiz Shoiri opa, “Top-dizayner” ko‘rsatuvi, tovar, tovlanib turadigan mato, tovusli, toza ipakdan to‘qilgan nafis mato, toza mato, turfa rangli, turli bezaklar, turli rangda qattiq to‘qilgan mato, turli ranglar jilosi, “Turli xil ranglarda jilolanib turadi”, tut bargi, to‘qish, to‘y, to‘y-hashamlar, “Unda yetti xil rang mujassam”, “Undan tikilgan ko‘ylaklar hammaga birday yoqadi”, urfdan qolmaydigan mato, usta, Uvaysiy, xalqimizning o‘tmishi, xalqimizning o‘zligi, xarita, xonatlas, xursandchilik, yaltiroq, yal-yal yonib turgan atlas, yangi kelinchak, yangi kelinchaklar to‘yning ertasiga chimildiqdan kiyib chiqadigan kiyim, “Yangi kelinlar atlasdan ko‘ylak-lozimlar tikirishadi”, “Yigirma birinchi asr oxirigacha hamma o‘zbek ayollari faqat atlasdan kiyim kiyishgan”, yorqinlik, Yulduz Usmonovanning qo‘shig‘i, yo‘l-yo‘l, zamonaviy uslubda tikilgan kiyimlar,

zamonaviy, zaratlas, zardo‘ppi, zardo‘zi doppi, zarchopon, o‘lmas qadriyat, o‘yin-kulgu, o‘zbek atlas, o‘zbek ayoli, o‘zbek ayollari, o‘zbek ayollarining milliy libosi, o‘zbek kelini, o‘zbek madaniyatining timsoli, o‘zbek milliy kiyimi, o‘zbek milliy libosi, o‘zbek milliy matosi, o‘zbek qizlarining eng chiroyli matosi, “O‘zbek xalqining butun dunyoga mashhur bo‘lishida qaysidir ma’noda aloqador”, o‘zbek xalqining milliy libosi, o‘zbek xalqining milliy matosi, o‘zbek, O‘zbekiston atlaslari, O‘zbekiston, “O‘zbekistonning ko‘plab hududlarida ishlab chiqariladi”, o‘zbeklar, o‘zbekona, o‘zbeklarning milliy libosi, o‘zbeklarning milliy matosi, o‘zbeklarning milliyliigi, o‘zbekning o‘ziga xosligi, o‘zbekcha tikilgan atlas, o‘ziga chorlovchi mato, o‘zligimiz, o‘zligimiz, o‘zimizning milliy atlas, o‘zimizning milliy matomiz, o‘zlikni anglatib turuvchi mato, shoyi mato, shoyi, “Charlari”, chet el dizaynerlari, chet eldan kelgan mehmonlarni lol qoldirgan mato, chet ellik mehmonlar, chet elliklar e’tirofi, “Chet elliklarga ham juda yoqadi”, chiroy, chiroyli ko‘ylak, choponlar, choy uzatish, cho‘g‘day yonib turgan atlas 1; (608+396+34+362+2)

5. Bitiruvchi stimul so‘ziga berilgan maktab, kollej, litsey, so‘nggi qo‘ng‘iroq, ustozlar, sinfdoshlarim, diplom, attestat assotsiatlarining jamoaviy xarakterda ekanligi asoslab bering.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Assotsiativ maydon nazariyasi
2. Assotsiativ tilshunoslikda assotsiativ maydon tushunchasini izohlang.
3. “Funksional-semantik maydon tushunchasiga oydinlik kiritish uchun uni paradigma tushunchasidan farqlash lozim” Ushbu fikrni izohlang.
4. Sh.Iskandarova A.Nurmonovdan farqli tarzda maydon tushunchasiga qanday ta’rif beradi?
5. Rus olimasi A.A.Zalevskayaning xulosasiga ko‘ra, assotsiativ maydon tushunchasida nimalar nazarda tutiladi?
6. “Assotsiativ maydon tildagi boshqa maydon ko‘rinishlari kabi yadro va chegara qismlaridan tashkil topadi” Ushbu fikrni izohlang.

7. “Assotsiativ maydonning chegara qismida assotsiatlar qo'llanish chastotasining kamayishiga qarab joylashadi” Ushbu fikrni izohlang.
8. A.Nurmonov assotsiativ maydonga xos bu belgi asosida «assotsiativ qatorlar»ning necha jihatini farqlagan?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Лутфуллаева Д.Э. Ассоциатив тилшунослик назарияси. Тошкент: Meriyus, 2017. – Б. 140.
2. Худойберганава Д. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол. фан. д-ри ... дис. – Тошкент: ЎЗР ФА ТАИ, 2015. – Б. 33.
3. Lutfullayeva D.E. O'zbek tilining assotsiativ lug'ati (milliy-madaniy birliklar). -Toshkent: “NAVOIY UNIVERSITETI” nashriyot-natbaa uyi. 2019.
4. Лутфуллаева Д.Э., Солиева Ф. Ўзбек тилида лексик ассоциацияларнинг ҳосил бўлиши. Ўзбек тили ва адабиёти. 2016. №.3. - Б.35-41.
5. Lutfullayeva D.E., Kurbanova M.A. Associative Approach to a Language and the Problem of Associative Relation of Words in Uzbek. Anglisticum Journal Volume: 5 Issue: 7, July, 2016. (Македония). P.61-66.
6. Lutfullayeva D.E. The role of associative experimental method in the study of human linguistic memory. Современные проблемы тюркологии: язык-литература -культура // Международная научно-практическая конференция. – Москва. 2016. С.452-458.
7. Комалова Л.Р. Ассоциативный эксперимент: теоретические и прикладные перспективы психолингвистики: монография / Пищальникова В.А., Карданова-Бирюкова К.С., Панарина Н.С., Степыкин Н.С., Хлопова А.И., Шевченко С.Н. Под ред. Ищальниковой в.а. - М.: Р-валент, 2019. - 200 С.

8. Гридина Т.А. Ассоциативный потенциал слова как основа лингвистической креативности: экспериментальные данные / Вопросы психолингвистики. –М., 2015. 148-157 –С.
9. Лутфуллаева Д.Э. Ассоциатив луғатлар ҳақида. Ўзбек тили ва адабиёти. 2017. №. 2. -Б.30-36.
10. Lutfullayeva D.E. Associative dictionaries as a mirror of reflecting native speakers' word stock. Современные научные исследования и разработки. – Москва: Издатель Научный центр “Олимп”, 2017. №. 2. P.10-13.
11. Lutfullayeva D.E. The role of associative dictionaries in the study of the problems of human phenomenon. LangLit An International Peer-Reviewed Open Access Journal. India. February, 2017. P.191- 200.
12. Лутфуллаева Д.Э. Тилни ўрганишга ассоциатив ёндашув. Тил ва адабиёт таълими. 2017. №6. -Б.15-17.
13. Deese J. The structure of associations in language and thought. Johns Hopkins Press. 1965. – P. 216.
14. Азимова И. Ўзбек тилидаги газета матнлари мазмуний перцепциясининг психолингвистик тадқиқи: Филол.фан. номз. ... дисс. – Тошкент: ЎЗМУ, 2008. – Б.115, 126.

2- AMALIY MASHG‘ULOT:

ASSOTSIATIV TAJRIBA METODI, UNI O‘TKAZISH METODIKASI.

REJA:

- 1. Assotsiativ tajriba metodining amaliy ahamiyatini yoritish.**
- 2. Assotsiativ tajriba o‘tkazish metodikasi.**
- 3. Assotsiativ tajriba natijalarini lingvistik va statistik tahlil qilish.**

Tayanch tushunchalar: *assotsiativ tajriba, assotsiativ tajriba metodi, erkin assotsiativ tajriba, bog‘li assotsiativ tajriba, yo‘naltirilgan assotsiativ tajriba, stimul so‘z, respondentlar, informantlar, sinaluvchilar.*

Ishdan maqsad: Assotsiativ tajriba natijalarini lingvistik va statistik tahlil qila bilish ko‘nikmasini shakllantirish.

Masalaning qo‘yilishi: Tinglovchi amaliy mashg‘ulotda keltirilgan vazifalarni bajarishi, tahlil qilishi va natija olishi lozim.

Ishni bajarish uchun namuna.

Ushbu amaliy mashg‘ulot davomida quyidagilarni bajarish lozim:

1. Assotsiativ tajriba metodining amaliy ahamiyatini tahlil qilish (munozara, suhbat).
2. Assotsiativ tajriba natijalarining statistik tahlilini amalga oshirish (amaliy mashq).
3. Assotsiativ tajriba natijalarini lingvistik tahlil qilish.

TOPSHIRIQ

1. “Turli fan sohalarida assotsiativ tajriba metodining qo‘llanishining amaliy ahamiyati” mavzusida ilmiy xulosa yozing.
2. Berilgan stimul so‘zlar bo‘yicha assotsiativ tajriba o‘tkazing. Assotsiativ tajriba natijalarini lingvistik va statistik tahlil qiling. Stimul so‘zlar: *Vatan, ona, farzand, universitet.*
3. *Atala* stimul so‘zi assotsiativ maydoni birliklarini lingvistik tahlil qiling.

Lingvistik tahlil tartibi:

I.Leksik birlikning leksik-semantik belgisi:

1. leksik birlikning lug‘aviy ma‘nosi;
2. leksik birlikning semantik komponentlari;
3. leksik birlikning ko‘chma ma‘nolari;
4. leksik birliklarning paradigmatic qatorlari (sinonimik, antonimik, omonimik, partonimik, paronimik, uyadoshlik qatori);

II.Leksik birlikning leksik-grammatik belgisi:

1. leksik birlikning morfologik shakllari;

2. leksik birlikning nutqiy sintagmatik qatorlari.

III.Leksik birlikning derivatsion xususiyati:

leksik birlik asosidagi yasalmalar.

IV.Leksik birlikning akustik belgisi.

V.Leksik birlikning uslubiy belgisi.

VI.Leksik birlikning pragmatik belgisi:

1. konnotatsion xususiyati;
2. baho munosabatini ifodalashi;
3. deytik xususiyati;

VII. Leksik birlikning gender belgisi.

VIII.Leksik birlikning milliy-madaniylik belgisi.

IX.Leksik birlikning ijtimoiylik belgisi.

X.Leksik birlikning assotsiativ maydoni.

XI.Leksik birliklarning qo'llanish chastotasi.

ATALA: taom 68; milliy taom 19; un 17; suv 9; bo'tqa 8; yog' 8; tug'ruqxona 7; mazali 6; qiymali atala 6; shakar 6; shirin 6; bolalar bo'tqasi 4; ovqat 4; sut 4; ayollar 3; bolalar 3; go'dak 3; quyuq 3; suyuqosh 3; to'yimli 3; chaqaloq 3; arpa 2; atala qilish 2; atalamoq 2; atala-umoch 2; bolalar ovqati 2; bug'doy 2; bo'shang odam 2; go'sht 2; kasal 2; piyozdog' 2; qiymali 2; sariyog' 2; suyuq ovqat 2; tug'gan ayol 2; umoch 2; yorma atala 2; yovg'on atala 2; zig'ir yog' 2; andijon, aralash-quralash, arpadan pishirilgan atala, atala idish, atala ichish, atala ichmoq, atala masallig'i, atala ovqat, atala pishirish, atala quymoq, atala tayyorlash jarayoni, atala tayyorlayotgan onajonim, "Ataladay suyulma", atalasimon ovqat, avtobus, "Belni mustahkamlaydi", bir mahsulotni ikkinchisiga qo'shish, aralashtirish, bolalar taomi, bug'doydan qilingan atala, "Bunaqa ovqatni bilmayman", buvi, buvim, buvimning atalasi, guruch, "Har doim ham pishirilavermaydi", har xil masalliqlardan pishirilgan aralash-quralash taom, "Hozir atalaga go'sht qiymasi ham solishadi", "Ichmaganman", ilik to'ldirar taom, issiq atala, kambag'alchilik, kambag'allar ovqati, kamharj taom, keksa kishi, keksalar taomi, keksalik, kuch-quvvat, ko'kat, ko'chma ma'noda

“bo‘shashgan odam”, masalliq, milliy taomlarimizdan biri, molga semirtirish uchun beriladigan aralashma, onam pishirgan shirin atala, onam, oq atala, qadimgi taom, “Qadimgilar ko‘proq atala ichib katta bo‘lishgan”, qadimiy taom, qariya, qariyalar, qizdirilgan yog‘, “Qizdirilgan yog‘da un qovurilib, unga suv solib pishiriladi”, qizdirilgan yog‘ga un, suv qo‘shib pishiriladigan suyuq ovqat, qo‘shnimizning vagonlarda turadigan atalasi, qora atala, qovurilgan undan tayyorlanadigan suyuq taom, qozon, quvvat beruvchi taom, quvvat, quyuq bo‘tqa, sigirlarga beriladigan atala, sut atalasi, sut va undan tayyorlanadigan taom, suyuq taom, suyuq, taom turi, tariq, tomoq og‘rig‘i, to‘yimli ovqat, tutun, undan tayyorlanadigan taom, unli suyuq taom, “Uzoq vaqt qaynatiladi”, xom-xatala ovqat, xom-xatala, xushta‘m, xo‘rda, yangi tug‘gan ayol, “Yaqinda farzandli bo‘lgan ayolga atala qilinadi”, yaqinda tug‘gan ayol, yo‘l, yosh bola, yosh bolalar ovqati, yosh bolalar, o‘zbeklarning sevimli taomi, o‘zbek milliy taomi o‘choq, shirin atala 1; (317+127+39+88+29)

1. *Beshikto‘y* stimul so‘zi assotsiativ maydonida aks etgan ekstralingvistik bilimlarni aniqlang.

Ekstralingvistik bilimlar:

- a) Til egalarining voqelik haqidagi kognitiv bilimlari.
- b) Til egalarining shaxs xususiyatlari (yoshi, kasbi, ruhiyati, dunyoqarashi, jinsi, ijtimoiy mavqei, voqelikka munosabati kabilar) hamda tashvish va muammolari.
- c) Milliy-madaniy sohaga doir bilimlar.
- d) Diniy sohaga doir bilimlar.
- e) Ijtimoiy sohaga doir bilimlar.
- f) Iqtisodiyotga doir bilimlar.
- g) Siyosiy sohaga doir bilimlar.
- h) San‘at sohasiga doir bilimlar.
- i) Sportga doir bilimlar.
- j) Meditsinaga (psixoterapiya) doir bilimlar.
- k) Ilm-fan, ta‘lim sohasiga doir bilimlar.

- l) Texnikaga doir bilimlar.
- m) Nomlar (antroponim, toponim, etnonim kabilar).
- n) Jest va mimikalar.
- o) Lozung va reklamalar.

BESHIKTO'Y: to'y 38; marosim 27; bola 24; chaqaloq 22; urf-odat 17; bayram 7; beshik 7; xursandchilik 7; ayollar 4; mehmonlar 4; bazm 3; bosh-oyoq sarpo 3; karnay-surnay 3; qovurdoq 3; sarpo 3; sochma 3; to'yxona 3; o'yinchoqlar 3; alla 2; an'ana 2; belanchak 2; bolalik 2; do'ppi 2; farzand 2; go'dak 2; ichimliklar 2; kiyim-kechak 2; ko'rpacha 2; mehmondorchilik 2; orzu-havas 2; qarindoshlar 2; qo'ni-qo'shni 2; qudalar 2; salla 2; sochqi 2; sovg'a-salom 2; to'y bola 2; xarajat 2; ziyofat 2; shirinliklar 2; ahli ayollar, "Alla" qo'shig'i, amaki-amma, amma-xolalar, avloddan avlodga o'tib keluvchi qadriyat, "Avvallari beshik to'yi bola 10-15 kunlik bo'lganda qilinardi, lekin hozir unday emas", "Avvallari kichkina qilib o'tkazilgan, hozir nikoh to'ylaridan qolishmaydigan qilib o'tkazishyapti", ayollarning turli hazillari, "Azaldan mavjud bo'lib, hozirgacha saqlanib qolgan", "Barcha qarindosh-urug'lar yig'ilib, "yangi mehmon"— chaqaloqni, qutlaydilar", barchaga hurmat ko'rsatish, baxmal yopinchiqli beshik, baxtiyor odamlar, baxtli xonadon, "Ba'zi bir joylarda chaqaloq bir yoshligida beshik olib kelinadi", bejirim beshik, beshik asbob, beshik asboblari, "Beshik bezatilib, ichi sarpolar, sovg'alar bilan to'ldiriladi", beshik keltirgan mehmonlar, beshik olib borish, "Beshik to'y ham aslida marosim", "Beshik to'y to'ng'ich farzandga o'tkaziladi", "Beshik to'yda barcha qarindosh-urug'lar yig'ilib, bolaga sovg'alar berishadi", "Beshik to'yida momolarimiz qon chiqarib, bolani beshikka soladilar", "Beshik to'yida qiz tomon yangi tug'ilgan chaqaloqqa har xil o'yinchoqlar, bola va ona uchun sarpo kiyimlar qilib kelishadi", "Beshik to'yini buvijonlarimiz joyiga qo'yishadi", "Beshik yonida yana turli xil buyumlar ham olib kelishadi", beshikka belash, "Beshikni kelinning ota-onasi olib kelishadi", beshikni tuzash, bezatilgan beshik, "Bezatilgan toychoq, beshikning ikki qushi bolaning tinch uxlashini ta'minlaydigan, uni balo-qazolardan asraydigan qismidir", bir uy ayollar, bir yoshli bola, birinchi farzand,

birinchi nabira, bobo-buvilar, bobom, bola bir yoshga to'lganda qilinadigan kichik to'y, bola sarposi, "Bola tug'ilganda kelinning onasi beshik olib keladi", "Bola tug'ilgandan keyin ona tomon momosi beshik olib keladi", "Bola tug'ilgandan so'ng 2-3 oy ichida o'tkaziladi", "Bola tug'ilgandan so'ng bir yoshga to'lgunga qadar beshik to'y qilinadi", bola tug'ulgandan keyin o'tkaziladigan marosim, bola uchun mebellar, bola uchun yaxshi niyatlar qilish, bolaga atab elga to'y berish, bolaga atalgan kiyimlar, bolaga sarpo kiydirish, bolakayning shodon kulgusi, bolalar shovqini, bolalarning qiy-chuvi, bolani beshikka belash, bolani beshikka solish marosimi, bozor, bosh farzandga qilinadigan to'y, "Boshqa marosimlarga nisbatan kichikroq marosim hisoblanadi", "Bu kunga yetganlar bor, yetmaganlar bor", "Bu marosimda erkaklar ishtirok etishmaydi, lekin barcha tashkiliy ishni qilib berishadi", "Bu marosimda kattaroq yoshdagi ayol chaqaloqni beshikka belaydi", "Bu marosimda ona tomondan bobo va buvilar chaqaloq uchun kiyimlar, sovg'a-salomlar va, albatta, beshik olib kelishadi", "Bu marosimda qiz tomon chaqaloq uchun beshik, kiyim-kechaklar olib keladi", "Bu to'yda beshikka qo'shib, laganlarda shirinliklar, pishiriqlar beriladi", "Bu to'yga ketadigan sarf-xarajatlarni kelinning ota-onasi ko'taradi", "Bu to'yga ketadigan xarajatlar ikki tomonga teng bo'linadi, sababi bu odat tusiga kirib qolgan", "Buvijonlarimiz beshikka ko'rpacha qovishadi, yostiqlar tikishadi", buvim, bo'g'irsoq, dasturxon yozish, dasturxon, dunyoga kelgan "yangi mehmon"ni beshikka solish udumi, duo, "Elga osh beriladi", endi dunyoga kelgan chaqaloq, erkaklarsiz o'tkaziladigan marosim, "Ezgu niyatlar bilan yoshi katta buvijonlarimiz bolani beshikka solishadi", "Farzand dunyoga kelganda yo bir yoshga to'lganda yaqin qarindoshlar bilan kichkina to'y qilinadi", Farzand tug'ilganda beshik to'yi qilishadi", farzand tug'ilganda o'tkaziladigan marosim, "Farzandsiz kishilar: "Bizlar ham beshik to'ylar qilaylik", – deb niyat qilishadi", "Hamma qarindoshlar chaqaloqqa o'yinchoq, kiyim-kechak olib kelishadi", har qanday oilaning orzusi, har xil o'yinchoqlar, har xil sovg'alar, har xil yumshoq o'yinchoqlar, harir pardali belanchak, havas, hayot, "Hozirda beshikka qo'shib bolalar mebellari ham olib

kelinadi”, “Ikki taraf ota-onalari birgalikda to'y qilishadi”, jiyan, jiyanim va ukamning beshik to'yi, kampir, karnay-surnay navolari, karnay-surnay sadosi, “Kattaroq yoshdagi ayol chaqaloqni beshikka belaydi”, kayvoni ayol, kelin, “Kelin tarafdagilar qovurdoq, shirinliklar, beshik, o'yinchoqlar, kiyim-kechaklar olib kelishadi”, kelin tomon asosiy xarajatlarni qiladigan to'y, “Kelin tomon nevarasiga beshik olib boradi”, kelin tomon, kelin tomondan beshik olib borilishi, kelinlar orzusi, kelinning ayollik maqomini olishi, “Kelinning onasi chaqaloqqa har xil kiyim qiladi”, kelinning onasi, “Kelinning ota-onasi bolaga kiyim-kechaklar olishadi”, “Kelinning ota-onasi nabirasi uchun beshik olib kelishadi”, kelinning ota-onasi, kiyim, kiyim-kechaklar, kichkina to'y, kulcha, kuyov tomon, kuyov uyi, “Ko'proq bola 40 kunlik vaqtida qilinadi”, ko'zmunchoq, mablag', mahalla-ko'y, “Marosim o'tkaziladigan kuni chaqaloq, uning dadasi va onasiga sarpo qilib kelinadi”, marosim o'tkazuvchi ayollar, mazali taomlar, mebel, mehmon, mehmondo'stlik, “Mehmonlarga osh berilib, o'yin-kulgi qilinadi”, mehmonlarning duoga qo'l ochishi, mehmonlarning raqsga tushishlari, milliy an'ana, milliy marosim, milliy marosimlarimizdan biri, milliy taomlar, milliy urf-odatlarimizdan biri, nabira, nevara, nikoh to'yi, niyat, non, nonga o'ralgan shashlik, odamlar, “Odatda, beshik to'y katta farzand tug'ilganda qilinadi”, oila, oilada birinchi farzand tug'ilganida o'tkaziladigan to'y, “Oilada bosh farzandga atab o'tkaziladi”, oilada farzand tug'ilganda o'tkaziladigan kichkina marosim, “Oilada farzand tug'ilishi munosabati bilan beshik to'y bazmi uyushtiriladi”, ona, “Ona farzandining chaqaloqchasiga orzu-havaslar bilan beshik yasatib boradi”, ona va bola, onam, onaning qiziga sarpo kiydirishi, orzu, orzu-niyat, orzu-umid, ot yetaklash, ota-ona orzusi, ota-ona, “Ota-onalar farzandlariga beshik to'y qilishadi”, ota-onaning xursandchiligi, oyim, osh, pishir-kuydir, pichoq, pul sochish, pushti rangli ko'ylagim, qand-qurs, qari ayol, qarindosh, qarindosh-urug', qarindosh-urug'ga ziyofat berish, qaynona, qaynota, qiz bola, “Qiz taraf katta xarajatga tushadi”, qizlar, “Qizning onasi beshik olib keladi”, qizning onasi, “Qizning ota-onasi chaqaloqqa turli-tuman kiyimlar qiladi”, qizning ota-onasi, qishloq, quda sarpo, quda tomon, quda, quda-anda, “Quda-andalar “yangi

mehmon” tug‘ilishi munosabati bilan yig‘ilib, to‘y qilishadi”, qo‘ni-qo‘shnilar, Qo‘qon, qo‘y so‘yish, qo‘shiq-kuy, rang-barang sharlar, raqs, rasm-rusm, salla o‘ragan jiyanim, sarpolar, sarpo-surug‘, sovg‘alar, sovg‘a-salom olib borish, sochala, sumak, sunnat to‘y, tabrik, tantanali marosim, tilak, toy ustidagi bola, tog‘ora, turli o‘yinchoqlar, turli sovg‘alar, tuvak, to‘kin-sochinlik, to‘n kiygan jiyanim, to‘ng‘ich farzand, “To‘ng‘ich farzandga olib borilgan beshikda qizning boshqa farzandlari ham katta bo‘lishadi”, to‘ng‘ich farzandga ona buvisi qiladigan to‘y, to‘ng‘ich farzandga qilinadigan to‘y, to‘y qilish, “To‘yda beshikka belash” marosimi ham o‘tkaziladi”, “To‘yda chaqaloqning kamoli uchun tilaklar, duolar qilinadi”, “To‘yda yangi chaqaloqqa beshik olib kelishadi”, “To‘yday qilib o‘tkaziladi”, to‘yona, udum, Udumga aylangan”, uka, ukamning sallachasi, Unda bolani beshikka solish” marosimi bajariladi”, uyqusiz tunlar, uzoq kutilgan mehmon, video, xatna to‘y, xatna, xolam, xursandchilik qilish, xush kun, yangi beshik, yangi kiyimlar, yangi tug‘ilgan chaqaloq, yangi tug‘ilgan chaqaloqqa o‘tkaziladigan bazm, yasatilgan sahna, yasatilgan toychoq, yaxshi kun, yaxshi niyat, yosh oila, yoshi katta kishilar, yugur-yugurlar, yumshoq o‘yinchoqlar, zardo‘zi to‘n, ziyofat dasturxoni, o‘yin, o‘yinchoq mashinalar, o‘yinchoq, o‘yin-kulgi, o‘z nomi bilan to‘y, o‘zbek ayoli, o‘zbek xalqining eng ajoyib marosimlaridan, o‘zbekona to‘y, “O‘zimning beshik to‘yimga Ilhom Ibragimov va Abduljalil Qo‘qonov kelgan ekan”, shaqildoqlar, shirin tashvish, sho‘x musiqalar, shodon o‘yin-kulgi, shod-xurram bolalar, shod-xurramlik, shukrona, shukronalik, “Shunday to‘ylarga yetib yuringlar deb, mahalla-ko‘yga, qo‘shnilarga shirinliklardan ulashiladi”, chaqaloq kiyimlari, chaqaloq uchun kiyimlar, “Chaqaloq bir haftaligida beshikka solinadi”, chaqaloq bir haftaligida bo‘ladigan marosim, chaqaloq chillasi, chaqaloq kelganini nishonlash, chaqaloq tug‘ilgandan keyin qilinadigan marosim, chaqaloq tug‘ilganidan keyin o‘tkaziladigan to‘y marosimi, chaqaloq tug‘ilganini elga ma‘lum qilish maqsadida qilinadigan marosim, chaqaloq uchun har xil o‘yinchoqlar, chaqaloq va ona uchun sarpolar, “Chaqaloq yoshiga to‘lar-to‘lmas, qizning ota-onasi kuyovnikiga beshik olib borishadi”, “Chaqaloq yuvdi” marosimi, chaqaloqni beshikka belash

marosimi, chaqaloqni beshikka belash, “Chaqaloqni beshikka buvilarimiz solishadi”, “Chaqaloqning chillasi chiqqanda qizning ota-onasi beshik olib kelib, to'y qilib berishadi”, chaqaloqning har xil kiyimlari, “Chaqaloqning ona tarafdan buvisi beshik olib keladi”, chaqaloqning ota-onasi, “Chaqaloqqa beshikni quda taraf olib keladi”, chaqaloqqa atab to'y qilish, “Chaqaloqqa beshik olib kelinadi”, chaqaloqqa kerak bo'ladigan buyumlar, charchoq, chelak, chilla, chiroyli bezatilgan beshik 1; (521+336+40+296+14)

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Assotsiativ tajriba metodi nima maqsadda o'tkaziladi?
2. Assotsiativ tajriba metodi qaysi fanlar doirasida qo'llanadi?
3. Assotsiativ tajriba metodi qanday bosqichlarda olib boriladi?
4. Assotsiativ tajriba metodi natijalarining lingvistik tahlilida nimalarga e'tibor qaratiladi ?
5. Assotsiativ tajriba metodi natijalarining stitistik tahlilida qanday vazifalar amalga oshiriladi?
6. Assotsiativ maydon yadrosi va chegarasi deganda nima tushuniladi?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Лутфуллаева Д.Э. Ассоциатив тилшунослик назарияси. Тошкент: Meriyus, 2017. – Б. 140.
2. Худойбергенова Д. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талкини: Филол. фан. д-ри ... дис. – Тошкент: ЎзР ФА ТАИ, 2015. – Б. 33.
3. Lutfullayeva D.E. O'zbek tilining assotsiativ lug'ati (milliy-madaniy birliklar). -Toshkent: “NAVOIY UNIVERSITETI” nashriyot-natbaa uyi. 2019.
4. Лутфуллаева Д.Э., Солиева Ф. Ўзбек тилида лексик ассоциацияларнинг ҳосил бўлиши. Ўзбек тили ва адабиёти. 2016. №.3. - Б.35-41.

3-AMALIY MASHG'ULOT:

LEKSIK ASSOTSIATSIYALARNING LINGVISTIK OMILLAR ASOSIDA HOSIL BO'LISHIGA DOIR TASNIFLARI.

REJA:

1. *Leksik assotsiatsiyalar tasnifiga doir nazariy qarashlarni tahlil qilish.*
2. *Assotsiatsiyalarning lingvistik belgi asosidagi tasnifini yaratish (assotsiativ maydon birliklari misolida).*
3. *Assotsiatsiyalarning ekstralingvistik belgi asosidagi tasnifini yaratish (assotsiativ maydon birliklari misolida).*

Tayanch tushunchalar: *assotsiativ birlik, verbal assotsiatsiya, assotsiativ munosabat, assotsiativ maydon, stimul so'z, assotsiat, assotsiativ birliklar tasnifi*

Topshiriqlar

I. Assotsiatsiyalar tasnifiga doir nazariy qarashlar haqida ma'lumot bering.

II. O'zbek tilida leksik assotsiatsiyalarning quyidagi lingvistik omillar bilan bog'liq holda hosil bo'lishiga misollar keltiring:

1. Leksemalarning semantik jihatdan o'zaro bog'liqligi.
2. Leksemalarning leksik-grammatik belgisiga ko'ra aloqasi.
3. Leksemalarning uslubiy belgisiga ko'ra aloqasi.
4. Leksemalar pragmatik belgisining mushtarakligi.
5. Leksemalarning yasalishidagi umumiylik.
6. Leksemalarning talaffuzda hamohangligi.
7. Leksemalarning dialektal belgisiga ko'ra bog'liqligi.
8. Leksemalar milliy-madaniy belgisining mushtarakligi.
9. Leksemalarning ijtimoiylik belgisiga ko'ra yaqinligi.
10. Leksemalarning gender belgisiga ko'ra aloqasi.

III. Verbal assotsiatsiyalarning ekstralingvistik belgi asosidagi quyidagi turlariga misollar keltiring.

8. Predmetlarning²³ makondagi aloqadorligi.
9. Predmetlarning zamondagi aloqadorligi.
10. Predmet va uning belgisi munosabati.
11. Tovush va uning egasi munosabati.
12. Insonning voqelikka munosabati.
13. Faoliyat va uning ob'ekti aloqadorligi.
14. Faoliyat egasi va uning mahsuloti aloqadorligi.
15. Predmetlarning o'xshashlik belgisi.
16. Predmetlarning egalik, tegishlilik, mansublik belgisi.
17. Predmetlar orasidagi sabab-natija munosabati.
18. Predmetlarning hayotiy zaruriyat belgisi.

IV. Ayron stimul so'zining assotsiativ maydoni asosida verbal assotsiatsiyalarning lingvistik belgi asosidagi tasnifini yarating.

AYRON: ichimlik 66; qatiq 34; sut 21; suzma 14; yoz 8; oqlik 7; lazzat 5; muzdek 5; sovuq 5; oppoq 4; chakki 4; rayhon 3; muz 3; chalop 3; chanqoq 3; achchiq 2; bakalashka 2; bolalar 2; issiq 2; ko'katlar 2; kosa 2; mazza 2; mineral suv 2; olma 2; suv 2; suyuqlik 2; tushlik 2; yalpiz 2; yoz fasli 2; sharbat 2; chanqash 2; chanqoqbosdi 2; chakkining suyuq holati 2; cho'ponlar 2; aka-ukalarim, ayron, "Ayron jazirama yoz kunlari ichiladi", "Ayron muzlatib ichilsa, judayam mazali bo'ladi", "Ayron osh bo'lmas, nodon bosh bo'lmas", "Ayron oshqozonda yig'ilib qolgan yog'larni eritadi", "Ayron oshqozon-ichak kasalliklarining yaxshi davosi bo'la oladi", "Ayron so'rab kelgandan chelagingni qizg'anma", "Ayron yozning issiq kunlarida ichilsa, mazza!" "Ayron shevalarda turlicha ataladi", ayron shimirish, ayron shopirish, ayron chelak, "Ayronchi qiz" qo'shig'i, "Ayronni yaxshi ko'rmaydigan odam topilmasa kerak", "Ayronning

²³ Предмет – кенг маънода.

ichiga bodring, rayhon solinsa, mazali bo'ladi", Ayrontepa, achchiq ta'm, banka, bemor kishilar, bir kosa, "Bizda "chalop" deyiladi", "Bizning shevada "chalop", bobomlar, bochka, bodring, bozor, bog', bosh og'rig'i, "Bosh og'riganda ichilsa ham, yaxshi foyda beradi", "Boshdan kun o'tmasligi uchun tez-tez ichib turish tavsiya etiladi", boshqacha ta'm, buvim, buvimning ayronidan sariyog' olayotgan holati, buvimning ilgagi, buzoq, buzoqcha, bug'doy pishgan palla, bug'doy, bo'z, "Dadam bilan akam juda yaxshi ko'rishadi", "Dadam mineral gaz suvda qilishimizni xohlaydilar", dadam, dala, daraxt tanasida osilib turgan bo'z xalta, darmondori, dehqonlar, echki suti, echki, "Eng ko'p yozda iste'mol qilinadi", eng yaxshi chanqoqbosdi, foydali, gazli suv, gullar, guppi, guruch, "Ham taom, ham ichimlik", har tomonlama foydali, "Hasharlarda tushlikda ovqatdan oldin tortiladi", hordiq chiqarish, hordiq, hovli, hushbo'y hid, iftorlik, issiq havo, issiq kun, issiq kunlar, "Issiq kunlarda tanani yaxlatadi", issiq ko'cha, issiq urib qolishidan saqllovchi, issiq yoz, issiq yoz kunlari, "Issiqda bir kosagina ayron – jonning rohati", issiqda ichiladigan ichimlik, "Issiqdan kelgan odamga berishadi", iste'molchilar, "Ishtaha bo'lmay qolganda ichilsa, ishtahani ochadi", ishtaha ochuvchi, "Ichganda tanaga huzur bag'ishlaydi", jazirama issiq, jazirama, Jizzax yo'llari, jonning rohati, juda foydali, judayam muzday, katta tovoq, kelinoyim, kostrulka, "Ko'cha va bozorlarda sotib yurishadi", kran suvi, kursdoshlar, kuvacha, kuvi, kuvi pishirayotgan ayol, lazzatli, "Mahallada duv-duv gap" filmi, mahalliy aholi, mahsulot, mastlik, maysazor, mazali, mazali ichimlik, mazali ta'm, mazali va chanqoqbosdi, mazza qilib ichiladigan ichimlik, mehmon, muqaddas in'om, murch, muz bo'lakchalari, muzday ichimlik, muzday, muzdek ayron, muzdek buloq suvi, muzdek ichimlik, muzdek suv, muzdekkina, muzlatgich, non, nordon ta'm, Nuriddin Haydarovning "Ayronchi qiz" qo'shig'n, ob-havoning issiqligi, oftob, "Oftob o'tmasligi uchun ichiladi", "Oftob olgan odamlarga berishadi", "Oftob urgan odamga birinchi bo'lib muzdek qilib ayron ichirilsa, tezda ichidagi issig'ini oladi", "Oftob urganda ayron ichish tavsiya qilinadi", oila a'zolarim, oila davrasi, oilam, okroshka, onam, opam, oq, oq rangli, oq tog'ora, oqdan to'groq, ot suti, otam, ota-onam, ovqat, oyim, "Oshqozon faoliyatini

yaxshilaydi”, piyoz, pishloq, pomidor, pomidor salat, qadimiy yaxna ichimlik, qalampir, qarindoshlar, qatiq va qaynatilgan suv, “Qatiq va suvdan tayyorlanadi”, “Qatiq yog‘ini ajratib olib, qolgan qismini “ayron” deb atashadi”, qatiq yoki chakking suv qo‘shib, suyuq holda berilishi, “Qatiqdan qilinadi”, “Qatiqdan tayyorlanadi”, qatiqni suyultirib, unga tuz, pomidor, bodring, ko‘katlar qo‘shib tayyorlanadigan ichimlik, qatiqqa suv qo‘shib, shopirib tayyorlanadigan ichimlik, qaymoq, “Qashqadaryo va Surxondaryoda “chalob” deyiladi”, qiradirlar, qizib turgan tananing sovushi, qishloq, qishlog‘im, qozoq o‘tovi, qoshiq, qurt, qurut, quvvat, quyosh issig‘i, quyosh qizitib turgan palla, quyuq, qo‘y, qo‘y-qo‘zilar, “Rayhon bargi, olma solingan muzdekkina ayron yozda juda yoqimli”, rayhon qo‘shib tayyorlanadigan ichimlik, “Rayhon qo‘shib tayyorlanadigan muzdek ayron jonga oro beradi”, rayhonli, rohat, rohatbaxsh ichimlik, rohati dil, rohati jon, ro‘za oyi, sabzavotlar, salqin holda ichish, salqin ichimlik, salqingina, Samarqanddan Toshkentga kelishdagi yo‘l, saraton, sariq moy, sariqdan ochroq rangli, saryog‘, sayohat, sigir, sigir qatig‘i, sigir sog‘uvchi, sigir suti, sigir-buzoq, sigirlar, Sirdaryo go‘jasi, “Sotar edi yo‘lda bir qiz ayrongina...”, “Sotuvchi ayol yerga tushib ketgan muz bo‘lagini ayronning ichiga solib yuborganini ko‘rganman, o‘shandan beri ayron sotib olib ichmayman”, sovuq ayron, soya-salqin joy, sog‘lomlik, supa, “Surxondaryo va Qashqadaryo taraflarda “chalop” deyishadi”, sut mahsuloti, sutning ivitilgani, suyuq ichimlik, suyuq taom, “Suzma suv bilan aralashtirilib suyuqlashtiriladi, ichiga pomidor, bodring va har xil ko‘katlar solinsa, mazali ichimlikka aylanadi”, suzmadan tayyorlanadigan ichimlik, suzmadan tayyorlanadigan yaxna ichimlik, suzmaga suv qo‘shib tayyorlanadigan ichimlik, tabiiy ichimlik, tan rohati, “Tanangizga rohat bag‘ishlaydi”, tandirxona, tetiklashtiruvchi, teshik xalta, tovoq, tozalik, tog‘, tog‘li yo‘llar, tog‘- u toshlar, turli ko‘katlar, turli xil ko‘katlar, tut soyasi, tuxumbarak, tuya, tuz, tushlik vaqti, to‘yimli ichimlik, to‘yimli, ukam, un, uy, uyimiz, vitamiga boy ichimlik, vitaminlarga boy ichimlik, xalta, “Xorazmda ayronni kuvida qilishadi”, xushbo‘y ta‘m, xushbo‘y, xushkayfiyat, xushta‘m, yam-yashil barra o‘tlar, yax, yaxna ichimlik, “Yaylovda yurgan sigir-buzoqlarni ko‘rganimda

ayronni eslayman”, yomon, yoqimli ta‘m, yoqimli, yor, yoz ichimligi, yoz jaziraması, yoz kunlari, yoz kunlarida ichishli muzdek ichimlik, yoz mavsumi, yoz mavsumining tabiiy ichimligi, yoz oylari, “Yoz payti har kuni otam uchun tayyorlar edim”, yoz payti, “Yozda ayronning ta‘mi o‘zgacha bo‘ladi”, yozda ichiladigan yaxna ichimlik, yozning issiq chillasi, yozning issiq kunlari, yozning issiq kunlarida ichiladigan chanqoqbosdi ichimlik, yozning jazirama issig‘i, yozning jazirama kunlari, yoz chillasi, yog‘, yog‘i olingan suzma, yog‘li suzma, yog‘och qoshiq, yoshligim, “Yuzning tiniqlashishiga, sochning o‘shishiga yordam beradi”, yo‘l, yo‘l cheti, yo‘lovchilar ichimligi, zardob, zelen, ziravorlar, zo‘r ichimlik, o‘tloq, “O‘zga yurtlik mehmonlarga ham yoqadi”, shevalarda “chalop”, shifobaxsh ichimlik, shifobaxsh, shirin ayronlar, shirin, shivit, shopirmoq, sho‘r ta‘mli, sho‘r, sho‘rtang, “Chakkining suyultirilgan holati ham “ayron” deyiladi”, “Chalop” – ayronning shevadagi varianti”, “Chalop” deb ham atashadi”, chanqoq bosuvchi ichimlik, chanqoq qoldiruvchi ichimlik, chanqoqbosdi ichimlik, chanqoqni bosuvchi xushta‘m ichimlik, chanqoqni qondirish, chanqoqni qondiruvchi ichimlik, charchash, chelak, chesnok, chorvachilik, chuchuk, cho‘l 1; (533+345+33+312+3)

NAZORAT SAVOLLARI:

1. O‘zbek tilshunosligida kimning ishlarida tajriba natijalari asosida o‘zbek tilida leksik assotsiatsiyalarning quyidagi lingvistik omillar bilan bog‘liq holda hosil bo‘lishi aniqlandi?
2. Leksemalar semantikasiga asoslangan assotsiatsiya haqida nima deya olasiz?
3. Leksemalarning leksik-grammatik belgisiga asoslangan assotsiatsiya haqida nima deya olasiz?
4. Leksemalarning uslubiyl belgisiga asoslangan assotsiatsiya haqida nima deya olasiz?

5. Leksemalar pragmatik belgisiga asoslangan assotsiatsiya haqida nima deya olasiz?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Маҳмудов Н. Ўхшатишлар – образли тафаккур маҳсули // Н.Маҳмудов, Д. Худойберганова. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. - Тошкент: Маънавият, 2013. – Б. 6.
2. Нурмонов А. Структур тилшунослик: илдизлари ва йўналишлари («Лингвистика» йўналишидаги магистрлар учун ўқув қўлланма). – Андижон. 2006. – Б. 59.
3. Овчинникова И.Г.Текстообразующая роль вербальных ассоциативных структур: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Л., 1986 б. – С.7-8.
4. Покровский М.М. Избранные работы по языкознанию. – М., 1959. – С.21.
5. Слобин Д., Грин Дж. Психоллингвистика. – М., 1976. – С.141.
6. Худойберганова Д. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол. фан. д-ри ... дис. – Тошкент: ЎзР ФА ТАИ, 2015. – Б. 33.
7. Шамсиддинов Ҳ. Кўрув хотира тасаввури ассоциатсияси асосида юзага келган номлар // Тилшуносликнинг долзарб масалалари (Илмий мақолалар тўплами). III қ. – Тошкент. 2006. – Б.19.

4-AMALIY MASHG'ULOT.

LEKSEMALARNING YASALISHI.

REJA

1. *Badiiy matnning assotsiativ maydoni masalasiga doir nazariy qarashlarni tahlil qilish.*
2. *Verbal assotsiatsiyalarning matn hosil qilishdagi o'rnini aniqlash.*
3. *Badiiy matnning assotsiativ maydoni: yadro va chegara qismlar munosabatini belgilash.*

Tayanch tushunchalar: *assotsiativ maydon, assotsiativ munosabat, verbal assotsiatsiya, matn kompozitsiyasi, matnning tayanch birliklari, matnning assotsiativ maydoni, maydon yadrosi, maydonning chegara qismi*

TOPSHIRIQ

1. *Badiiy matnning assotsiativ maydoni masalasiga doir nazariy qarashlarni tahlil qiling va ilmiy xulosa yozing.*
2. *Berilgan she'riy matnni asotsiativ tahlil qiling.*

Yoshlik

Yoshlik! Seni kuylamagan kim,
 Ertaklaring so'ylamagan kim,
 Qariganda o'ylamagan kim,
 O'ylab yana kuylamagan kim?
 Bitmoq bo'ldim men ham senga bayt,
 Yosh yurakning haqqi bormi, ayt?
 Yoshlik, asli mening o'zimsan,
 Keng olamga boqqan ko'zimsan.
 Yozgan she'rim, aytgan so'zimsan,
 Kecham, ertam, ushbu ro'zimsan.
 Bitmoq bo'ldim sen uchun ash'or,

Ammo o‘zni kuylamoq dushvor.
 Yoshlik – gulu gulg‘uncha ekan,
 Bu gul olam turguncha ekan,
 Yoshlik – behad tushuncha ekan,
 Poyoni yo‘q garduncha ekan.
 Bitmoq bo‘ldim men unga doston,
 Uylarimga topmadim poyon.
 Yoshlik, dildan shavq ketgani yo‘q,
 Yurak seni tark etgani yo‘q,
 Yurak seni tark etgani yo‘q,
 Demak, qadringga yetgani yo‘q.
 Yoshlik, seni kuylab bilurman,
 Ammo bugun yoshlik qilurman.
 Yoshlik – ishqu oshiqlik mayli,
 O‘zi Majnun, ham o‘zi Layli,
 Subhi olam uning tufayli.
 Mayli, unga bitmasam mayli,
 Na bir g‘azal, na bir musaddas,
 Uning o‘zi she’rdan muqaddas.

3. Berilgan she’riy matnning assotsiativ maydonini hosil qiling.
Maydonning yadro va chegara qismlari munosabatini chizma orqali
ko‘rsating.

Qizaloq

Qo‘g‘irchoqdan bir zum nari ketmasdan
 Erkalar, bag‘riga bosar qizaloq.
 Hayot nima – hali idrok etmasdan,
 Go‘dakligiga ham aqli yetmasdan,
 Ona bo‘laman deb o‘sar kizaloq.
 Taajjub, kim solmish uning ko‘ngliga,

Kirmoq kayda hali hayot yo'liga,
 Ona allasiga qonmasdan hali,
 Ertaga shu uyga beka bo'lgali
 Supurgi tutadi jajji qo'liga.
 Halitdan onalik mehr-shafqatin
 Dilingga soldingmi, erka qizaloq?
 Tatib ko'rmay hali hayot zahmatin,
 Mushfiq onalikning bor mashaqqatin
 Bo'yningga oldingmi, erka qizaloq?
 Gulzor yashagandek g'uncha qatida,
 Tomchida quyoshning jamolin ko'rdim.
 O'ylasam, o'y bitmas hayot haqida,
 Shu jajji qizaloq tabiatida
 Tabiatning buyuk kamolin ko'rdim.

NAMUNA: E.Vohidovning «Olma» she'ri assotsiativ maydonining chizmasi.


Olma

Meva berdi yetilib bu yil
Men bog'imga o'tqazgan nihol.
Mevalarki, cho'g'day qip-qizil,
Husni yoqut, shirinlikda bol.

Lablaridan tomizib sharbat,
Ol, ye, deydi, armonda qolma!
Lekin shunga hayronman faqat,
Nega uni deydilar «olma»?


Olma eksa bog'iga har kim,
Mehmoniga, ol, ye, demasmi?
«Olma» mening mehmondo'st xalqim –


*Meva berdi yetilib bu yil
Men ardoqlab o‘stirgan nihol.
Olmalarki, shafaqday qizil,
Lekin nomi olma emas, ol. (E.Vohidov)*



Po'lat

*U dastavval oybolta bo ‘ldi,
So ‘ng zambarak bo ‘lib quyildi.
Qilich ham u,
 miltiq va nagan,
U bomba ham bo ‘lib portlagan.
Lekin olgan jahonni faqat
Pero bo ‘lib quyilgach po ‘lat.* (E.Vohidov)





NAZORAT SAVOLLARI:

1. Leksemalarning yasashiga asoslangan assotsiatsiya haqida nima deya olasiz?
2. Leksemalarning talaffuzda hamohangligiga asoslangan assotsiatsiya haqida nima deya olasiz?
3. Leksemalarning dialektal belgisiga asoslangan assotsiatsiya haqida nima deya olasiz?
4. Leksemalarning milliy-madaniy belgisiga asoslangan assotsiatsiya haqida nima deya olasiz?
5. Leksemalarning ijtimoiy belgisiga asoslangan assotsiatsiya haqida nima deya olasiz?
6. Leksemalarning gender xususiyatlariga asoslangan assotsiatsiyani izohlang va misollar keltiring.
7. Makondagi aloqadorlikka asoslangan assotsiatsiyaga misollar keltiring va izohlang.
8. Zamondagi aloqadorlikka asoslangan assotsiatsiyaga misollar keltiring va izohlang.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Воробьев В.В. Лингвокультурология (теория и методы). – М.: Изд-во Российского университета Дружбы народов, 1997. – 332 с.;

2. Горошко Е.И. Описание механизмов ассоциирования и проблема классификации реакции // Интегративная модель свободного ассоциативного эксперимента // www.textologu.ru
3. Горошко Е.И. Языковое сознание (ассоциативная парадигма): Дисс. ... д-ра филол. наук. – М., 2001. – С. 352-353.
4. Джамбаева Ж.А. Ассоциативный эксперимент: методологические основы // Л.Н. Гумилев атындағы ЕҰУ Хабаршысы. 2013. - №1. - С. 20.
5. Ермолова М.В. Ассоциативные семантические модели выражения запрета в немецком языке (на материале пословиц и поговорок) // Известия Российского гос.пед.ун-та имени А.И.Герцена. 2009. - №106. – С. 136-140.
6. Клименко А.П. Лексическая системность и ее психолингвистическое изучение: учеб. пособие. - Минск: Изд-во Минского пед. ин-та иностр. яз., 1974. – С.47-48.
7. Клименко А.П. Третий тип словесных ассоциаций и виды семантической связи между словами в системе // Романское и германское языкознание. Вып. 5. – Минск, 1975. – С. 52;

V. KEYSLAR BANKI




V. KEYSLAR BANKI

Keyslar uchun “keys-stady” metodi asos sanaladi. «Keys-stadi» - inglizcha so'z bo'lib, («case» — aniq vaziyat, hodisa, «stadi» — o'rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil qilish asosida o'qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921-yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o'rganishda foydalanish tartibida qo'llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

Modul bo'yicha quyidagi keyslarni yechish maqsadga muvofiq sanaladi:

1. Assotsiativ tajriba metodi qaysi fanlar doirasida qo'llanadi?
2. Assotsiativ tajriba metodi qanday bosqichlarda olib boriladi?
3. Assotsiativ tajriba metodi natijalarining lingvistik tahlilida nimalarga e'tibor qaratiladi ?
4. Assotsiativ tajriba metodi natijalarining stitistik tahlilida qanday vazifalar amalga oshiriladi?
5. Assotsiativ maydon yadrosi va chegarasi deganda nima tushuniladi?
6. Tilshunoslikda verbal assotsiatsiyalar tasnifining xususiyatlarini izohlang.
7. Leksik assotsiatsiyalarning lingvistik omillar asosida hosil bo'lishiga ko'ra tasnifining xususiyatlari.
8. Leksik assotsiatsiyalarning ekstralingvistik omillar asosida hosil bo'lishiga ko'ra tasnifini izohlang
9. Assotsiativ tajriba metodi nima maqsadda o'tkaziladi?

VI. GLOSSARIY



VI. GLOSSARIY


Termin	O‘zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
Antropotsentrik paradigma	Tilni nafaqat struktura, balki kommunikatsiyaga asoslangan ochiq tizim sifatida o‘rganuvchi, uni jamiyat, inson, madaniyat, ruhiyat kabi boshqa tizimlar bilan aloqadorlikda tadqiq etuvchi, insonni til ichida yoki tilni inson ichida tahlil etishga yo‘naltirilgan ta’limotlar va usullar majmuasi; lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, etnopsixolingvistika, madaniyatlararo muloqot, neyrolingvistika kabi sohalarni birlashtiruvchi paradigma.	A set of doctrines and methods that examine language as an open system, not just a structure, but a connection to other systems such as society, human, culture, and spirit; linguoculturology, cognitive linguistics, psycholinguistics, a paradigm that combines such areas as ethnopsycholinguistics, intercultural communication, and neuroling.
Antropotsentrizm	(grek. anthropos - odam + lot. sentrum - markaz) Tilshunoslikda: tilga inson omili nuqtai nazaridan yondashish	(Greek. anthropos - man lot. centrum - center) In linguistics: Approach to language from the point of view of human factor
Intertekstuallik	(lot. inter - oraliq + lot. textus - mato; to‘qish; aloqa, uyg‘unlik) Biror matn tarkibida boshqa matn yoki uning unsurlarining ochiq yoki yashirin tarzda mavjud bo‘lishi.	(lot. inter - intermediate + lot. textus - cloth; knitting; communication, harmony) The existence of another text or its elements openly or covertly in any text.

	Lingvokulturologiyada intertekstuallikka ikki madaniy-semiotik maydonning "dialogi" sifatida yondashiladi.	In linguoculturology, intertextuality is treated as a "dialogue" of two cultural and semiotic spaces.
Kognitiv tilshunoslik	(lot. cognitio – bilim) Til birliklarining axborotni qayta ishlashdagi rolini nutq yaratilishi va idrok etilishi nuqtai nazaridan o'rganuvchi fanlararo soha. Bunda nutq yaratuvchi va uni idrok etuvchi sub'ektlarga axborotni qayta ishlovchi tizim sifatida qaraladi. Kognitiv tilshunoslik til va ong munosabatini, olamni konseptuallashtirish va kategoriyalashtirish, bilish jarayonlarida va tajribalarni umumlashtirishda tilning o'rnini kabi masalalarni tadqiq etadi.	(lot. cognitio - knowledge) Speech creation and perception of the role of language units in information processing interdisciplinary field of study. The speech maker and him Perceptual entities are treated as information processing systems. Cognitive linguistics is the relationship between language and consciousness, the universe explores issues such as conceptualization and categorization, the role of language in cognitive processes, and the generalization of experiences.
Konsept	(lot. conceptus - tushuncha; bilim) Insonning mental va ruhiy imkoniyatlari, uning bilimi va tajribasini aks ettiruvchi axborot tizimi birligi.	(lot. conceptus - concept; knowledge) A unit of information system that reflects one's mental and psychological capabilities,

		knowledge and experience.
Lingvomadaniy konsept	Ma'naviy qadriyatlarga yo'naltirilgan, lisoniy ifodaga ega bo'lgan va etnomadaniy o'ziga xoslik bilan ajralib turadigan jamoa ongi birligi	Unity of collective consciousness, focused on spiritual values, linguistic expression and ethnocultural identity
Lingvokulturologiya	(lot. lingua - til + lot. cultura- ishlov berish+ grek.logos-ta'limot) Tilshunoslik, madaniyatshunoslik, etnografiya, psixolingvistika sohalari hamkorligida yuzaga kelgan, tilning madaniyat, etnos, milliy mentallik bilan o'zaro aloqasi va ta'sirini antropotsentrik paradigma tamoyillari asosida o'rganuvchi soha.	(Latin. lingua - language + lot. cultura-processing + grek.logos-doctrine) Linguistics, cultural studies, ethnography, in the field of psycholinguistics emerging, language culture, ethnicity, nationality interaction and impact with mentoring a field of study based on the principles of anthropocentric paradigm.
Madaniy kodlar	Muayyan madaniy mazmunni shartli, ramziy va kodlangan tarzda ifodalovchi moddiy yoki ideal belgilar tizimi	A system of material or ideal symbols that represent a particular cultural context in a conditional, symbolic and coded manner
Olamning lisoniy manzarasi	Voqelikni idrok etishning tilda muhrlangan va muayyan lisoniy jamoa uchun xos bo'lgan tuzilishi,	The sealed and language-specific structure of reality perception is a universal and simultaneously nationalized

	olamni idrok etish va konseptuallashtirishning universal va ayni vaqtda milliy xoslangan usuli	way of understanding and conceptualizing the world.
Pretsedent nomlar	Mashhur matnlar yoki vaziyatlar bilan bog'liq bo'lgan nomlar, shuningdek, muayyan sifatlarning namunaviy yig'indisiga ishora qiluvchi ramziy nomlar. Masalan: <i>Alpomish</i>, <i>Majnun</i>, <i>Suqrot</i>, <i>Hotam</i>, <i>Napoleon</i>, <i>Rim</i>, <i>Samarqand</i> Etnolingvistika (Grek. ethnos - xalq + lot.lingua - til) 1 Tilning ma'naviy madaniyat, xalq mentaliteti, xalq ijodi bilan munosabati va aloqadorligini tadqiq etuvchi soha. 2 Tilning madaniyat bilan, shuningdek, etnomadaniy va etnopsixologik omillar bilan munosabatini diaxronik planda o'rganuvchi soha.	Famous texts or situations involving names, as well as symbolic names referring to an exemplary set of certain attributes. Example: <i>Alpomish</i> <i>Majnun</i>, <i>Socrates</i>, <i>Hotam</i>, <i>Napoleon</i>, <i>Rome</i>, <i>Samarkand</i> Ethnolinguistics (Greek. Ethnos - folk + lot.lingua - language) 1 The relationship of language with spiritual culture, folk mentality, folk art. and research related. 2 Language with culture as well as ethnocultural and ethnopsychological factors The field of study of the relationship with the dachron.
Qiyosiy lingvokulturologiya	Lingvokulturologiyaning alohida, lekin o'zaro bog'liq bo'lgan etnoslarning lingvomadaniyati tadqiqi bilan shug'ullanadi	The direction of linguoculturology in the study of linguistic culture of separate but interconnected ethnicities

VII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI



ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курашимиз. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 488 б.
2. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 592 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2018. – 507 б.
4. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажак фаровон бўлади. 3-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2019. – 400 б.
5. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2020. – 400 б.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

6. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2018.
7. Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 23 сентябрда қабул қилинган “Таълим тўғрисида”ги ЎРҚ-637-сонли Қонуни.
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2015 йил 12 июнь “Олий таълим муасасаларининг раҳбар ва педагог кадрларини қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-4732-сонли Фармони.
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февраль “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги 4947-сонли Фармони.
10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрель “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2909-сонли Қарори.
11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 21 сентябрь “2019-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини инновацион ривожлантириш

- стратегиясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5544-сонли Фармони.
12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 27 май “Ўзбекистон Республикасида коррупцияга қарши курашиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5729-сонли Фармони.
 13. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 17 июнь “2019-2023 йилларда Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университетида талаб юқори бўлган малакали кадрлар тайёрлаш тизимини тубдан такомиллаштириш ва илмий салоҳиятини ривожлантири чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4358-сонли Қарори.
 14. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 27 август “Олий таълим муассасалари раҳбар ва педагог кадрларининг узлуксиз малакасини ошириш тизимини жорий этиш тўғрисида”ги ПФ-5789-сонли Фармони.
 15. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябрдаги “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5850-сон Фармони.
 16. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрь “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5847-сонли Фармони.20.
 17. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 29 октябрь “Илм-фанни 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-6097-сонли Фармони.
 18. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 23 сентябрь “Олий таълим муассасалари раҳбар ва педагог кадрларининг малакасини ошириш тизимини янада такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 797-сонли Қарори.
 19. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 29 январдаги “Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси

хузуридаги атамалар комиссиясининг фаолиятини ташкил қилиш чоратadbirlari tўғрисида” ги 40-сонли Қарори.

III. Maxsus adabiyotlar

1. Лутфуллаева Д.Э. Ассоциатив тилшунослик назарияси. Тошкент: Мерияс, 2017. – Б. 140.
2. Худойберганова Д. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол. фан. д-ри ... дис. – Тошкент: ЎЗР ФА ТАИ, 2015. – Б. 33.
3. Lutfullayeva D.E. O‘zbek tilining assotsiativ lug‘ati (milliy-madaniy birliklar). -Toshkent: “NAVOIY UNIVERSITETI” nashriyot-matbaa uyi. 2019.
4. Лутфуллаева Д.Э., Солиева Ф. Ўзбек тилида лексик ассоциатсияларнинг ҳосил бўлиши. Ўзбек тили ва адабиёти. 2016. №3. - Б.35-41
5. Lutfullayeva D.E., Kurbanova M.A. Associative Approach to a Language and the Problem of Associative Relation of Words in Uzbek. Anglisticum Journal Volume: 5 Issue: 7, July, 2016. (Македония). P.61-66.
6. Лутфуллаева Д.Э. The role of associative experimental method in the study of human linguistic memory. Современные проблемы тюркологии: язык-литература -культура // Международная научно-практическая конференция. – Москва. 2016. С.452-458.
7. Комалова Л.Р. Ассоциативный эксперимент: теоретические и прикладные перспективы психолингвистики: монография /Пищальникова В.А., Карданова-Бирюкова К.С., Панарина Н.С., Степыкин Н.С., Хлопова А.И., Шевченко С.Н.Под ред. Ищальниковойв.а. - М.: Р-валент, 2019. - 200 С.
8. Гридина Т.А. Ассоциативный потенциал слова как основа лингвистической креативности: экспериментальные данные / Вопросы психолингвистики. –М., 2015. 148-157 –С.

9. Лутфуллаева Д.Э. Ассоциатив луғатлар ҳақида. Ўзбек тили ва адабиёти. 2017. №. 2. -Б.30-36.
10. Лутфуллаева Д.Э. Ассоциативе дистионариэс ас а миррор оф рефлестинг нативе спеакерсь word стоск. Современные научные исследования и разработки. – Москва: Издатель Научный центр “Олимп”, 2017. №. 2. П.10-13.
11. Lutfullayeva D.E. The role of associative dictionaries in the study of the problems of human phenomenon.LangLitAn International Peer-Reviewed Open Access Journal. India. February,2017. P.191- 200.
12. Лутфуллаева Д.Э.Тилни ўрганишга ассоциатив ёндашув. Тил ва адабиёт таълими. 2017. №6. -Б.15-17.
13. Deese J. The structure of associations in language and thought. Johns Hopkins Press. 1965. – P. 216.
14. Азимова И. Ўзбек тилидаги газета матнлари мазмуний перцепциясининг психоллингвистик тадқиқи: Филол.фан. номз. ... дисс. – Тошкент: ЎзМУ, 2008. – Б.115, 126.
15. Белянин В.П. Психоллингвистика. Учебник. – М.: Флинта, 2003. – С.131;

IV. Elektron ta'lim resurslari

1. <http://lex.uz>
2. <http://ziyonet.uz>
3. <http://natlib.uz>
4. www.bimm.uz
5. www.literature.uz
6. www.kutubxona.uz
7. <http://en.wikipedia.org/wiki/Structuralism>
8. <http://www.utpa.edu/faculty/mglazer/Theory/structuralism.ht>
9. http://www.eng.fju.edu.tw/Literary_Criticism/structuralism
10. <http://www.brocku.ca/english/courses/4F70/struct.html>

VIII. TAQRIZLAR



**TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
ULARNING MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ MARKAZI DOTSENTI
N.SAIDRAHIMOVA TOMONIDAN TUZILGAN "TILSHUNOSLIKNING
ZAMONAVIY YO'NALISHLARI: ACCOTSIATIV TILSHUNOSLIK"
NOMLI FAN DASTURI VA O'QUV-USLUBIY MAJMUAGA**

T A Q R I Z

Zamonaviy tilshunoslikda accotsiativ yo'nalishning tadqiq etilishi tilshunoslikda dolzarb masalalaridan biri sifatida ko'plab muammoli o'rinlarning yechimiga imkon berdi. Bu o'rinda pragmalingvistika, matnshunoslik tadqiqiga oid ishlar diqqatga sazovor. Jahon tilshunosligining liigvopragmatika, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, etnolingvistika, diskursiv taxlil kabi yo'nalishlarida shaxs omili tadqiqot obyektining markazini tashkil etadi. Mazkur soxalarning yuzaga kelishi fanda insonni yanada chuqurroq o'rganish hamda lisoniy faoliyatni shaxs bilan uzviylikda tadqiq etish harakatlari bilan bog'liq.

Til birliklarini antropotsentrik paradigma asosida tadqiq etish milliy ong va tafakkurning ifodasi bo'lgan tilimizni jamiyatning eng muhim subyekti bo'lgan shaxs bilan aloqador jihatlarini o'rganishda alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, matn yaratilishi va uning mazmuniy idroki masalalarini ilmiy tadqiq etish o'zbek tilida so'zlashuvchi til egalarining tafakkuri, lisoniy ong tuzilishi hamda milliy-assotsiativ fikrlash tarzini yoritib berishda, muloqotning eng oliy shakli bo'lgan matnning semantik-kognitiv, pragmatik, psixolingvistik, lingvokulturologik xususiyatlarini aniqlashda muhim. Shunday ekan, mazkur masalaning malaka oshiruvchilar kursida o'rganilishi juda zarur va bu xolat fan doirasida o'qitiladigan masalalarning o'zbek tilshunosligida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar ustuvor yo'nalishlariga mosligini bildiradi. Qayd etilgan mulohazalar "Tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari: Accotsiativ tilshunoslik" fani dasturi va o'quv-uslubiy majmuada belgilangan masalalarning dolzarbligini ko'rsatadi.

Ushbu fan dasturi hamda o'quv-uslubiy majmuada assotsiativ tilshunoslikning psixolingvistika, lingvokulturologiya, pragmalingvistika yo'nalishlari bo'yicha tinglovchilar bilishi va o'zlashtirishi lozim bo'lgan nazariy bilimlar majmui aks etgan. Shu bilan birga, nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiqi yuzasidan topshiriqlar tizimi bayon etilgan. O'quv-uslubiy majmuda berilgan nazariy va amaliy masalalar tahlili asosida shuni alohida kayd etish mumkinki, ushbu ish antropotsentrik tilshunoslikning lingvokulturologiya, pragmalingvistika, psixolingvistika yo'nalishlari bo'yicha ma'lumot beruvchi yaxlit O'quv-uslubiy qo'llanma vazifasini o'taydi. O'quv-uslubiy majmuadan ta'lim jarayonida keng foydalanish mumkin.

Xullas, D.Lutfullayeva tomonidan tuzilgan “Tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlari: Assotsiativ tilshunoslik” nomli fan dasturi, o‘quv-uslubiy majmua zamonaviy tilshunoslik hamda o‘qitishning ilg‘or texnologiyalari talablariga to‘liq javob beradi, uni bimalol nashrga tavsiya etish mumkin.

B.Mengliyev



**TDO‘TAU professori,
filologiya fanlari doktori**

**TOSHD O‘TAU HUZURIDAGI PKQTMO TARMOQ MARKAZIDA
O‘QITILADIGAN
“O‘ZBEK TILI FILOLOGIYASI: O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI”
YO‘NALISHI KURSI O‘QUV DASTURIGA
TAQRIZ**

“O‘zbek tili filologiyasi: o‘zbek tilshunosligi” yo‘nalishi o‘z maqsad va vazifalariga ega, albatta. Fanlararo integratsiya, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish, o‘qitish va bilim olishda turli metod hamda metodologiyalarni qo‘llash – bu davr talabi sanaladi. “O‘zbek tilshunosligining nazariy va amaliy muammolari”, “Antropotsentrik tilshunoslik yo‘nalishlari”, “Tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlari: assotsiativ tilshunoslik”, “Semantikaning dolzarb muammolari”, “Til texnologiyasi”, “Lingvokulturologiya” kabi fanlarning dasturga kiritilgani maqsadga muvofiq ekanini ta’kidlash zarur.

Dasturda berilgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejalari asosida shakllantirilgan bo‘lib, til birliklarini antropotsentrik paradigma asosida tadqiq etish milliy ong va tafakkurning ifodasi bo‘lgan tilimizning jamiyatning eng muhim subyekti bo‘lgan shaxs bilan aloqador jihatlarini o‘rganishga, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan ingliz tili, avtomatik tahlil qilish mezonlari va tamoyillari, tillararo munosabatlar tahlili, tabiiy til qonuniyatlarining algoritmik mezonlarini bilishlari, lingvistik bilimlar bazasi, mashina tarjimasida tizimlashtirish masalasi, lingvistik texnologiyalar, sintaktik parsing, kompyuter leksikografiyasi, morfologiyasi, morfologik teglash, korpus lingvistikasi, matnni avtomatik tahrir qilish, mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, lisoniy qobiliyati, lisoniy xotirasi imkoniyatlari, leksik birliklar zahirasi, matn yaratishi mexanizmi, matnni idrok etishi qobiliyati, o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo‘yicha so‘nggi yutuqlar, til umumiy rivojining, xususan, ma’no taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchlaridan eng qudratlisi dialektik ziddiyat, qarama-qarshiliklarini tahlil qilish, ziddiyat, qarama-qarshilik bilan bir qatorda til va nutq birliklarida xilma-xillik, murakkablik, ko‘ptalqinlilik kabi ma’noviy siljishlar, meyordan chekinishlar, ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, pedagogik texnologiyalarini amaliyotga keng qo‘llash bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Dasturda har bir modulning qisqacha tavsifi, amaliy mashg‘ulotlarni tashkil qilish bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar, malakaviy attestatsiya talablari,

shuningidek, tinglovchilarni eng muhim adabiyotlar bilan tanishtirish uchun yangi ilmiy-nazariy adabiyotlar taqdim etilgan.

Amaliy mashg‘ulotlarda tinglovchilar o‘quv modullari doirasidagi ijodiy topshiriqlar, keyslar, o‘quv loyihalari, texnologik jarayonlar bilan bog‘liq vaziyatli masalalar asosida amaliy ishlarni bajarishga yo‘naltirilgani katta ahamiyatga ega.

Xullas, mazkur dasurni ta’lim jarayoniga tatbiq etish maqsadga muvofiq, deb hisoblayman.

Filologiya fanlari doktori



S.Normamatov



T.C.
İSTANBUL ÜNİVERSİTESİ REKTÖRLÜĞÜ
Dil Merkezi Başkanlığı



14.09.2020

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi "O'zbek tili filologiyasi: o'zbek tilshunosligi" yo'nalishi kursi o'quv dasturiga

TAQRIZ

O'zbek tilshunos olimlarining sohaga oid fundamental ilmiy tadqiqotlaridan biz xorijiy mutaxassislar ham istifoda qilamiz, o'rni kelganda ta'lim jarayoniga tatbiq etishga harakat qilamiz. Chunonchi o'zbek tilshunoslik maktabi jahondagi nufusli maktablar qatorida tilga olinishga loyiqdir. Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazida "O'zbek tili filologiyasi: o'zbek tilshunosligi" kursining o'qitilishi diqqatga sazovordir. Dastur doirasida tinglovchilarga taqdim etilayotgan 3 modul asosidagi mavzular ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari, pedagogning kreativ komponentligini rivojlantirish, provardida samarali ta'lim berish usullarini qamrab olgan. Dasturning "Pedagogning professional faoliyatidagi innovatsiyalar" deb nomlangan 1-modulida oliy ta'lim muassasalari o'qituvchisining professionalligi, uning boshqaruv mahorati, texnikasi, uslublari, shuningdek, o'qituvchining kasbiy professionalligini oshirish omillariga diqqat qaratilgan. Modul so'ngida tinglovchi onlayn darslarni tashkin etish, kuzatish va tahlil qilish metodikasini o'zlashtirib oladi. 2-modul "Pedagogning axborot va kommunikativ komponentligini rivojlantirish" deb nomlangan. Ushbu modul 2 qismni o'z ichiga olib, 1-qismda raqamli texnologiyalar va ularning didaktik imkoniyatlari, "elektron universitet" va uning xususiyatlari, ta'lim jarayonlarida yangi texnologiyalardan foydalanish kabi mavzularning o'qitilishi ko'zda tutilgan. "Maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan ingliz tili" nomli 2-qismda esa tinglovchilarning sohaga oid faol so'zlarni yod olishlari, o'z ilmiy yo'nalishi bo'yicha erkin so'zlab berish va gazetalardagi sohaga oid maqolani o'qib tushunish ko'nikmasiga ega bo'lishiga e'tibor berilgan. Ma'lumki, kursdagi tinglovchi mutaxassislik fanlariga doir qancha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi uning ilmiy va pedagogik faoliyatining shunchalar muvoffaqiyatli va samaradorligini oshirishdagi muhim omildir. Binobarin mazkur o'quv dasturining 3-modulida 6 qismdan iborat sohaga doir mazkur mavzularning keltirilishi maqsadga muvofiqdir. O'zbek tilshunosligining yutuq va muammolari, muammolar yechimiga doir tavsiyalar, ona tili o'qitish metodikasi ta'limida til, shaxs, nutq munosabati, badiiy matnni antoposentirik tahlili, assotsiativ tilshunoslik kabi mavzular ushbu moduldagi dolzarb mavzulardandir. Til va tafakkur munosabatlari, til rivojini ta'minlovchi omillar, tillaro ta'sirlashuv, qarindosh va noqarindosh tillarda ma'nodoshlik, shuningdek, kompyuter leksikologiyasi masalalariga ham 3-modulda alohida o'rin ajratilgan. Lingvokulturologiya tilshunoslikdagi nisbatan yangi fan sohasidir. 3-modulda ushbu fanning obyekti va predmeti, maqsad va vazifalari, fanga doir terminlar va ularning mohiyati o'zbek tilshunosligida lingvokulturologiya sohasidagi ilmiy-nazariy tadqiqotlar va kelajakda yechimini kutayotgan vazifalarga keng o'rin berilgani asosli va mantiqlidir. Dasturning 4-qismi malakaviy attestsatsiya yo'l-yo'riqlari, bu boradagi ko'rsatma va tavsiyalarga ajratilgan. Dasturda ta'kidlanishicha, mustaqil malaka oshirish paytida pedagoglar pedagogik amaliyotdan o'tadilar. Pedagogik amaliyot davrida o'qituvchi asosiy ish joyi bo'yicha ma'lum kafedraning tajribali ustozlaridan ikkita dars kuzatadilar va tahlil qiladilar hamda kafedra a'zolari ishtirokida bitta ochiq dars o'tib beradilar. Ochiq dars tahlili hamda pedagog tomonidan kuzatilgan dars xulosalari kafedra yig'ilishida muhokama qilinadi va bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi. "O'zbek tili filologiyasi: o'zbek tilshunosligi" dasturida to'rt yo'nalishdagi jami 37 adabiyotlar ro'yxati shakllantirilgan. Bu adabiyotlar sohaga tegishli zarur manbalar bo'lib, mazkur o'quv kursining maqsad-vazifalariga to'la muvofiq keladi. Yuqoridagilarni inobatga olib ushbu dasturni ta'lim jarayoniga tayyor dastur deb hisoblaymiz.

Emek USHENMEZ,

filologiya fanlari doktori, Istanbul universiteti professori